Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2024-yil. 11-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz



BU YIL UMUMTA'LIM MAKTABLARIGA 500 NAFAR XORIJLIK TIL MUTAXASSISLARI JALB ETILDI

Ushbu sonda

DOLZARB MAVZU
Bolalarimiz ertaga raqobatbardosh mutaxassisga aylanishlari uchun bugun chet tillarni puxta egallashlari kerak — 3-bet

TAHLIL
O'zbek tilida so'z o'zlashtirish: manbalari va usullari — 9-bet

METODIK TAVSIYA
PISA xalqaro baholash dasturi asosida maktab o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish metodikasi — 21-bet

TADQIQOT
Surxondaryo gidronimlarining morfologik tahlili — 42-bet

К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА / ПИСАТЕЛЯ
Поэзия, объединяющая народы — 49-bet

TARIXIY YUTUQ: 122 TA MEDAL VA 9 MILLIARD SO‘M

Poytaxtimizdagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda 2023–2024-o‘quv yili davomida xalqaro va mintaqaviy fan olimpiadalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar va ularning ustozlarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda ta’kidlanganidek, o‘tgan o‘quv yilida O‘zbekiston maktab o‘quvchilari xalqaro va mintaqaviy fan olimpiadalarida jami 122 ta medalni qo‘lga kiritdi. Bu tarixiy rekord bo‘lib, mazkur natija hozirga qadar erishilgan eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Viloyat, respublika va xalqaro olimpiadalarda zafar quchgan o‘quvchilarimiz va ularning ustozlarini taqdirlash uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag‘ esa 9 milliard so‘mni tashkil qildi. Taqqoslash uchun, ushbu raqam 2019-yilgi 780 million so‘mdan qariyb 11,5 barobarga ko‘p.

G‘oliblarga ajratilgan mukofot summasiga e’tibor qaratsak.

Eng nufuzli xalqaro olimpiadalarning:

- oltin medal sohibiga – 187,5 million so‘m, o‘qituvchisiga – 168,75 million so‘m;
- kumush medal sohibiga – 112,5 million so‘m, o‘qituvchisiga – 93,75 million so‘m;
- bronza medal sohibiga – 75 million so‘m, o‘qituvchisiga – 56,25 million so‘m.

Xalqaro olimpiadalarning:

- oltin medal sohibiga – 56,25 million so‘m, o‘qituvchisiga – 18,75 million so‘m;
- kumush medal sohibiga – 37,5 million so‘m, o‘qituvchisiga – 13,125 million so‘m;
- bronza medal sohibiga – 18,75 million so‘m, o‘qituvchisiga – 11,25 million so‘m.

Mintaqaviy xalqaro olimpiadalarning:

- oltin medal sohibiga – 4,5 million so‘m, o‘qituvchisiga – 18,75 million so‘m;
- kumush medal sohibiga – 3,0 million so‘m, o‘qituvchisiga – 13,125 million so‘m;
- bronza medal sohibiga – 2,25 million so‘m, o‘qituvchisiga – 11,25 million so‘m berildi.

Ma’lumot uchun, nufuzli xalqaro olimpiadalarning medal egalari davlat granti asosida oliy ta’lim muassasalariga qabul qilinadi, ustozlariga esa kelgusi o‘quv yili uchun 200 foizgacha ustama belgilanadi va to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy malaka toifasi taqdim etiladi. Bundan tashqari, g‘oliblar keyinchalik ta’lim muassasalarida o‘qituvchi bo‘lib g‘olib bo‘lgan fanidan dars bergan taqdirda lavozim maoshiga 150 foiz har oylik ustama oladi.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy xalqaro olimpiada sovrindorlari oliy ta’lim muassasalariga kirishda o‘z fanidan maksimal ballga ega bo‘ladi. O‘quvchini olimpiadalarga tayyorlagan o‘qituvchining malaka toifasi bir pog‘ona ko‘tariladi hamda mintaqaviy xalqaro olimpiada g‘oliblari hamda asosiy olimpiadaning respublika bosqichi g‘oliblari, keyinchalik ta’lim muassasalarida o‘qituvchi bo‘lib g‘olib bo‘lgan fanidan dars bergan taqdirda lavozim maoshiga 100 foiz har oylik ustama oladi.



O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan

2024-yil. 11-son

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay’ati:

Hilola UMAROVA
Farhod BOQIYEV
Qozoqboy YO‘LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Jabbor ESHONQULOV
Abdurahim NOSIROV
Bahodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Valijon QODIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Halim SAIDOV
Nilufar NAMOZOVA
Sanobar TO‘LAGANOVA
Yo‘ldosh RAHMATOV
Anatoliy LIXODZIYEVSKIY
Elvina ALIYEVA
Qodirjon NOSIROV
Bekkenbauer REYMOV
Yuliya MUSURMANOVA
Bashorat BAHRIDDINOVA
Shahnoza TURNIYAZOVA
Ra’no ABDUSALOMOVA
To‘lqin XOLJO‘RAYEV
Xadicha MUHIDDINOVA
Umid XO‘JAMQULOV
Salima JUMAYEVA
Shahobiddin RASULOV
(bosh muharrir o‘rinbosari)

Bosh muharrir

Farrux JABBOROV

Nashr uchun mas’ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Sahifalovchi

Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar @TilAdabiyot_bot orqali qabul qilinadi.

Jurnaldan ko‘chirib bosilgan maqolalar “Til va adabiyot ta’limi”dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bo‘lishi mumkin.

Mualliflarning ism-familiyasi shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2024.22.11. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x84$^{1}/_{8}$. Shartli bosma tabog‘i 6,0. “Arial” garniturasi. 10, 11 kegl. “Madad oshiyoni” MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Qushbegi ko‘chasi 6-uy. Buyurtma ___ Adadi 4250 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Shahobiddin Rasulov. Bolalarimiz ertaga raqobatbardosh mutaxassisga aylanishlari uchun bugun chet tillarni puxta egallashlari kerak....3

DARS – MUQADDAS

Gulchehra Ortiqova. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarining ma’no imkoniyatlari....7

TAHLIL

Ravshan Jomonov. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish: manbalari va usullari....9
Fotimaxon Baxtiyarova, Muxtorjon Baxtiyarov. “Qutadg‘u bilig”da astronomiyaga oid terminlar....11
Dilfuza Zaripova. Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasi tahlili....13

ADABIYOTSHUNOSLIK

Manzura Mo‘minova. Abdulla Oripov ijodida ijtimoiy mavzular talqini....16
Sarvinoz Abdusharifova. Omon Matjon she’riyatida talmeh....17
Zavqiyjon Fayzullayev. Asriy Tabriziyga zamondosh turkiy ijodkorlar....19

METODIK TAVSIYA

Umid Xodjamqulov. PISA xalqaro baholash dasturi asosida maktab o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish metodikasi....21
Dilfuza Razikova. Solving linguistic problems: the compensatory approach in technical language education....25
Madina Kamolova. Teaching English with an emphasize on the sociolinguistic profile of learners....26

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Mahliyo Djakbarova. Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitishga yangicha yondashuv....29
Dilafruz Sarimsakova. Continuing Professional Development through exploratory action research....32
Sharofat Toshmirzayeva. Ta’lim taraqqiyotida “4K” metodi....34

TARJIMASHUNOSLIK

Saida Sultanova. Tarjima jarayonida lingvistik interferensiyaning namoyon bo‘lishi....36
Dilbar Jumayeva. Bridging the gap: exploring the role of philology in translating motivational literature and fostering cross-cultural understanding....37

TADQIQOT

Minhojiddin Raximov. Ta’lim muassasalari tizimida yoshlarning ijodiy faolligini oshirish omillari....40
Shahnoza Majidova. Surxondaryo gidronimlarining morfologik tahlili....42
Iroda Xaydarova. So‘z tarkibi komponentlarining lingvistik tabiati....44

KICHIK TADQIQOT

Dildora Tuxtayeva. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalari....46
Robiya Vaxobjonova. O‘zbek adabiy tili publitsistik uslubining shakllanishi va taraqqiyoti....47

К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА / ПИСАТЕЛЯ

Николай Ильин. Поэзия, объединяющая народы....49
Анатолий Лиходзиевский. «Все жанры хороши, за исключением скучного»....51

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Саодат Магдиева. Синергетика структуры артпедагогической системы в практике преподавания литературы в высшем педагогическом образовательном учреждении....55
Хилола Юнусова. Введение падежной системы при обучении грамматике русского языка как неродного....57
Наргиза Хамраева. Задачи методики преподавания русского языка и литературы на современном этапе в высшем образовательном учреждении....60

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гульшод Хамраева. Проявление интерференции при обучении стилистике наречий русского языка студентов иноязычных групп....62
Азиза Муминова. Лингвистический ракурс изучения рекламного текста....63
Альфия Галямова. Некоторые вопросы прагмалингвистики....65

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гулноза Сабирова. Сопоставительный анализ личных и притяжательных местоимений английского и узбекского языков и явление интерференции....67

НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

Гульчехра Давлятова, Зарина Аманова. Влияние русских и узбекских символов на формирование национальной идентичности в молодёжной среде....70
Дилрабо Убайдова. Мифология – одна из древнейших дисциплин....72

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Наргиза Мадаминова. Роль композитообразования в поэзии Серебряного века....74
Шахло Алимарданова. К вопросу о стилистической дифференциации языка....76
Алевтина Шварц. Эволюция значения фразеологических оборотов по прошествии времени....78

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

YEVROPAGA TA'LIM SAYOHATI

Prezident sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovida g'olib bo'lgan jamoalar ta'lim sayohati uchun Germaniya va Buyuk Britaniyada bo'lib qaytishdi.

Dastur doirasida ishtirokchilar Germaniyaning Radolfzell shaharchasidagi Carl Duisburg til markazida o'quv jarayonlarida qatnashishdi. Mashg'ulotlar avvalida o'quvchilarning til bo'yicha bilimlari tekshirilib, guruhlarga ajratildi. So'ng amaliy dars jarayonlariga start berildi. Shuningdek, vazirlik vakillari Carl Duisburg til maktabi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.



O'z navbatida, Buyuk Britaniyaning London shahrida bo'lgan guruh "Tumanli albion"ning Brunel universitetida bilim va til ko'nikmalarini rivojlantirishdi. Shu bilan birga, bu yerdagi maktab hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Ular o'quv qurollari yordamida kiyimlar dizayni ustida ishlab, uni namoyish qilishdi.

Eslatib o'tamiz, mazkur tanlovda umumiy hisobda 6 442 ta maktab qamrab olindi. Shundan 6 175 ta maktab – 30 875 nafar o'quvchi ingliz tilidan, 143 ta maktab – 715 nafar o'quvchi nemis tilidan ishtirok etdi.

MAHORATLI O'QITUVCHI – MILLAT TAYANCHI



Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Jahon banki hamkorligida institutning 90 yilligiga bag'ishlangan "Mahoratli o'qituvchi – millat tayanchi: uzluksiz kasbiy rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyani o'tkazishdan asosiy maqsad – raqamli transformatsiya sharoitida maktab ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlari samaradorligini oshirish, ta'lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, ta'lim bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini tatbiq etishga oid ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish. Shuningdek, jadid ma'rifatparvari, pedagog olim Abdulla Avloniy merosini zamonaviy ta'limiy trendlar bilan integratsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalarini ommalashtirish, istiqbolli ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, professional kompetentligi va pedagogik mahoratini muntazam yuksaltirib borish kabi masalalar har tomonlama chuqur tahlil etildi.

Anjuman doirasida bir nechta yo'nalishda sho'balar tashkil etildi. Ularda olimlar, o'qituvchilar va ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar o'z tadqiqotlari, loyihalarini muhokama qilib, tajriba almashishdi.

SURXONDARYODA 82 TA TA'LIM MUASSASASI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Viloyatning barcha hududlarida jami 74 ta maktab, 8 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti zamonaviy ko'rinishga keltirib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, hududdagi 6 ta maktabda zamonaviy mini-stadion hamda 5 ta maktabda sport zallar ham barpo etilgan.



Yangilangan muassasalarda o'g'il-qizlarning munosib ta'lim olishlari uchun zarur barcha sharoit yaratilgan. Endilikda yorug' va shinam sinfxonalarda dars olish barobarida, zamonaviy axborot texnologiyalari, sport va musiqa jihozlaridan ham keng foydalanish imkoni mavjud.



BOLALARIMIZ ERTAGA RAQOBATBARDOSH MUTAXASSISGA AYLANISHLARI UCHUN BUGUN CHET TILLARNI PUXTA EGALLASHLARI KERAK

Umumta'lim maktablarida xorijlik pedagoglar o'quvchilarga chet tillarni qanday o'rgatmoqda?

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qishga bo'lgan ehtiyoj va ishtiyoq har qachongidan yuqori. Zero, globallashuv davrida zamon bilan hamnafas ildamlash uchun ham til bilish nihoyatda zarur. Turli soha vakillari o'z ona tilini mukammal egallashi bilan birga, biror xorijiy tilni o'zlashtirishi, unda erkin muloqot qila olishi muvaffaqiyat omiliga aylangan. Albatta, bunga maktab davridan tamal toshi qo'yib borish talab etiladi. Ustiga-ustak, chet tili bevosita "ega"sidan o'rganilsa, samarasi ikki hissa bo'ladi.

Ilgari biror maktabga xorijdan chet tili o'qituvchisi kelsa, juda shov-shuvli holat sifatida qabul qilingan. Lekin hozir bunday stereotiplar barham topdi. 2023–2024-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablariga xorijiy mutaxassislarni jalb etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Ta'kidlash joizki, mazkur loyiha bu yil ham davom ettirilmoqda. Shunday ekan, haqli savol tug'iladi: o'tgan bir yil ichida qanday natijalarga erishildi? Xorijdan chet tili o'qituvchilarining olib kelinishi bizga nima berdi?

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi boshlig'i Shahlo TEMIROVA bilan suhbatimiz shular xususida kechdi.

– Shahlo opa, dastlab umumta'lim maktablariga chet ellardan xorijiy til mutaxassislarini jalb qilish g'oyasining tug'ilishi haqida gapirib bersangiz.

– Xabaringiz bor, xorijiy mutaxassislarni yurtimizga jalb qilish amaliyoti ilk marta prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida joriy etilgan va bu amalda ijobiy mevasini bergan. Mana shu tajribadan kelib chiqib, qolaversa, o'zaro tenglikni ta'minlash yo'lida ushbu xayrli ishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoniga asosan, ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni olib kelish ko'zda tutilgan. Mana shu hujjat faoliyatimizga muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Aslida bunday amaliyot dunyoning aksariyat davlatlarida faol kechadigan jarayon. Masalan, birgina Buyuk Britaniya ta'lim sifatini oshirish uchun 2023-yilda 1100 dan ortiq xorijiy til o'qituvchisini jalb qilgan. Xuddi shunday tajriba Xitoyda ham yo'lga qo'yilgan bo'lib,



bu yerga har yili 100 minggacha mutaxassis olib kelinadi. Ushbu ma'lumotlar tumanli albionning mashhur "The Guardian" va Janubiy Koreyaning "The Journal of Asia TEFL" nashrlarida keltirilgan. Amalga oshirish mexanizmiga doir kerakli maslahat va tavsiyalar berilgan.

Shu tariqa davlatimiz rahbarining farmoni hamda xalqaro tajribadan kelib chiqib, mazkur loyihaga qo'l urildi. Bunda avvalo xorijiy til o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarimizni belgilab oldik. So'ng xalqaro *TESOL (Teaching English for Speakers of Other Languages)* tashkiloti bilan maslahatlashdik, tahlillar qildik, o'rgandik. Nufuzli rekruting kompaniyasi, ta'lim tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazdik. Elchixonalar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatib, yakunda o'tkan yili 500 nafar xorijiy til o'qituvchilarini yurtimizga olib keldik.

– Xorijlik til mutaxassisiga qanday talablar qo'yildi?

– Birinchidan, xorijdan keladigan mutaxassis kamida xalqaro darajadagi til bilish sertifikatining C1, C2 darajasiga hamda *TESOL, TEFL* (Teaching English as a Foreign Language)ning malaka sertifikatiga ega bo'lishi shart. Bundan tashqari, avval turli davlatlarda dars o'tgan bo'lishi kerak. O'rgatiladigan tilni o'z ona tiliday bilishi talab etiladi. Mana shu me'yorlar ustuvor qilib belgilandi.

– Ayni paytda siz aytayotgan 500 nafar xorijlik o'qituvchi qaysi hududlarda dars bermoqda?

– O'tkan yili asosiy urg'u Toshkent shahridagi umumta'lim maktablariga qaratildi. Chunki bu yerda tenglik masalasi bor. Deylik, prezident maktablari yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida xorijiy mutaxassislar bo'lishi tabiiy hol. Ko'pchilikka manzur jihati ham shunda. Ota-onalardan keladigan taklif va istaklar, tashabbuslar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy mutaxassis faoliyat yuritayotgan maktabda o'qiydigan farzandi qo'shimcha darslarga muhtoj emas. Negaki, chet ellik har kuni dars o'tadi, u bilan turli masalalarda bevosita yoki bilvosita muloqotda bo'ladi. Jumladan, darsdan tashqarida ham. Natijada bolada til muhiti yaxshi shakllanib boraveradi.

– Nega faqat poytaxtga? Aslida bunday mutaxassislarni respublika bo'ylab taqsimlash adolatli emasmi?

– Bir narsani hisobga olishingizni istardim: xorijiy mutaxassis – chet el fuqarosi. Uning ham xuddi biz singari o'ziga yarasha talab va xohishlari bor. Bir so'z bilan aytganda, ularga har tomonlama yaxshi sharoit qilib beriladigan joy, infratuzilma zarur. Ko'p hollarda mahalliy hokimliklar chet ellik o'qituvchini o'z hududiga biriktirishni so'rab xat bilan chiqishadi. Albatta, biz ularning har bir so'roviga javoban joyiga borib o'rganamiz. Maktab xorijiy mutaxassisni qabul qilishga tayyormi? Uyida sharoit talabga javob beradimi? Bari sinchiklab nazardan o'tkaziladi. Boisi xorijiy hamkor tashkilotlar oldida noqulay vaziyatga tushib qolmasligimiz kerak.

Tasavvur qiling, pedagog kuchli, mohir, maktab ham havas qilsa arzigulik, ammo hududdagi sharoit yaxshi emas. Barcha talablarga javob bergan taqdirda ham, hudud masalasida ko'proq xorijlik mutaxassisning istaklari ustun turadi. Shuning uchun avval poytaxtimiz maktablari ta'minlandi. Bu yil Toshkent shahriga 300 nafar "til egasi" taqsimlandi, 200 nafari esa viloyatlar markaziga yo'naltirildi.

– Xorijlik til o'qituvchilarining sonini yanada ko'paytirish imkoni bormi?

– Yo'q. Xorijlik til mutaxassisi bilan shartnoma bir yilga tuziladi. Buning sababi bizga sifat masalasi muhim. O'quv yili oxirida maktab ma'muriyati, ustozlar va o'quvchilar orasida so'rovnoma o'tkaziladi. Bolalarda qanday o'zgarish kuzatildi? Hammasi tahlilga tortilib, jalb qilingan mutaxassis haqida yakuniy xulosa chiqariladi. Shunchaki xorijdan tilchi keldi-yu bo'ldi, degani emas. Bizga natija kerak. Talabga javob bermaganlar bilan yangi shartnoma imzolanmaydi, o'rni yangi mutaxassis bilan to'ldirib boriladi. Ma'qul tushganlari esa bu yil ham qaytib kelishga va'da berishgandi va hozirda ular faoliyatini davom ettirishmoqda.

– Demak, ular uchun O'zbekiston jozibador mamlakatlar sirasiga kiradi, shundaymi?

– Albatta. Eng avvalo, yurtimizning tinch davlat ekani o'ziga tortadi. Tinchlik – eng katta ne'mat. Bilasiz, dunyoda xavfsiz mamlakatlar reytingida yetakchi o'rinlarda turamiz. Shu ma'noda mutaxassislarni faqat moddiy rag'bat emas, balki o'lkamizning barqaror rivojlanish darajasi, tarixiy shaharlari va, albatta, mazali milliy taomlarimiz o'ziga rom etadi.

– Keling, endi bevosita ta'lim jarayonini muhokama qilsak. Maktablarda xorijlik til mutaxassislarining pedagogik yuklamasi va dars o'tish tartibi qanday?

– Ular bir haftada 20 soatlik dars bilan birga, uch marta qo'shimcha to'garak o'tadi. Bundan tashqari, mahalliy o'qituvchilarimizga bir marta trening mashg'ulotlarini tashkil etadi. Shu yo'l orqali ulardan ko'proq foyda ko'rish maqsad qilingan. E'tiborga molik tomoni, dars jarayoni o'zimizning mahalliy muallim bilan yonma-yon kechadi, ya'ni ular hamkor o'qituvchi sifatida bir-birini to'ldiradi. Buning foydali tomonlari ko'p. Bir tarafdan, xorijlik mutaxassis bilimini ham o'quvchi, ham o'qituvchiga beradi. Ikkinchi tomondan, o'qitish tizimimiz bilan yaqindan tanishib boradi.

– Chet ellik mutaxassislar milliy o'quv dasturlarimizga qanchalar tez moslasha olyapti?

– O'quv dasturlarimiz Kembrij standartlari asosida ishlab chiqilgan. Xorijlik pedagoglar ham boshqa mamlakatlarda ushbu me'yorlarga ko'ra dars o'tgan. Demak, buning qiyinchilik joyi yo'q. Bilsangiz, ilgari grammatika va tarjimaga yo'naltirib ta'lim berilgan. Hozir esa butunlay o'zgargan, ko'proq kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Bu shunchaki o'qib tarjima qilish degani emas. Mavzuni tushunib, qayta javob qaytarish, muloqotga kirishish kerak. O'quvchi yodlab emas, eshitganini fikrlab, sintezlay olishi lozim. Zero, aytilgan, buyurilgan narsani bajargan boladan ko'ra, xuddi shu narsani tahlil qilib, qo'shimcha ma'lumot yig'ib, o'zida tasavvur shakllantira oladigan boladan naf katta. Bunday o'quvchi mustaqil fikr yurita oladigan, kreativ va lider bo'lib voyaga yetadi.

– Ayni paytda o'quvchilarimiz buning uddasidan chiqyaptimi? Xorijiy tilni o'rganish jarayonida qanday muammoga duch kelishmoqda va u qay tarzda bartaraf etiladi?

– Avvalambor, loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda til ko'nikmasini rivojlantirish. Ma'lumki, o'quvchilarimizda o'qib o'rganish, yozish





ancha rivojlangan. Ammo gapirish, tinglab tushunish bu boshqa narsa. Xorijiy til o'qituvchilari orasida retseptiv-produktiv ko'nikma degan tushuncha bor. Ya'ni retseptiv o'qish orqali, tinglaganda qabul qilishni anglatadi. Produktiv esa yozish, gapirish demakdir. Ikkinchisi birmuncha qiyinroq jarayon.

Xalqaro darajadagi testlarni topshirganda ham asosiy kamchilik shunda ko'zga tashlanadi. Misol uchun, IELTSda o'quvchilarimiz tinglab tushunish yoki o'qib tushunish qismidan yuqori ball oladi. Ammo yozish va gapirish ko'nikmalariga kelganda, ochig'ini aytish kerak, ballari pasayib ketadi. Demak, produktiv qism uchun o'quvchilarimizga qo'shimcha yordam talab etiladi. Shuning uchun xorijiy mutaxassislar bilan asosan til muhitini yaratish, ya'ni oson muloqot qurish, tushunish, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish juda muhim. Bu o'quvchilarimiz duch kelayotgan muammolarning yechimidir.

– Chet ellik o'qituvchilar nechanchi sinf o'quvchilariga dars o'tadi?

– 8–11-sinflarga. Boshlang'ich sinfda hali til bilish darajasi past bo'ladi. Shuning uchun yuqori sinflarga biriktirilgan. Ular to'garak o'tish bilan bir qatorda, IELTS, TOEFL singari til sertifikatiga ham tayyorlaydi.

– Xorijiy tilchilarning yoshi nechada va ular asosan qaysi davlatlar fuqarolari?

– O'tkan yili yosh chegarasi 24–60 oralig'ida belgilangan edi. Bu yilgi maksimal yoshni biroz qisqartirdik. Malakasiga qarab ishga qabul qilinadi. Mutaxassislar AQSh, Angliya, Kanada singari ingliz tili davlat tili hisoblanadigan, shuningdek, ikkinchi til sifatida qaraladigan mamlakatlardan jalb qilingan. Asosiy urg'u ingliz tiliga qaratilgan, albatta. Bundan tashqari, fransuz, nemiz, xitoy, koreys, yapon tili o'qituvchilari ham bor. Bu, o'z navbatida, islohotlarimiz bitta til bilan kifoyalanib qolmaganini ko'rsatadi. Maktablarda ikkita xorijiy tilni o'qitish joriy qilinishi bilan shu tillar kiritildi.



– Darvoqe, ikkita xorijiy til o‘qitish amaliyoti haqida. Ushbu loyiha ham yangilik sifatida qaralmoqda. Shu haqda to‘xtalib o‘tsangiz…

– Har bir tuman-shaharda bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish maqsadida 2023–2024-o‘quv yilida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ikkinchi xorijiy til sifatida tanlangan – ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon va xitoy tillari bo‘yicha o‘quv dasturlari yaratildi. O‘tgan o‘quv yilida jami 208 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida ikkita chet tilini o‘qitish amaliyoti joriy etildi. Joriy o‘quv yilida esa maktablar soni 354 tani tashkil etmoqda.

– 2023–2024-o‘quv yili vazirlik uchun xorijlik til mutaxassislarini yurtimizga jalb qilishda katta tajriba bo‘ldi, desak adashmaymiz. Shunday ekan, o‘tgan bir yil davomida qanday natijalarga erishildi? Umuman, xorijiy til bilish darajasini oshirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar sarhisobini aniq raqamlarda ayta olasizmi?

– O‘tgan yillar davomida xorijiy tilni bilish darajasi sezilarli o‘sdi, xususan, til bilish sertifikatiga ega maktab o‘quvchilari soni 2024-yili 37 ming 74 nafarni *(avgust oyi holati)* tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga (10 ming 960 nafar) nisbatan 3,3 karra oshgan. Xuddi shunday sertifikatga ega xorijiy til o‘qituvchilari soni 27 ming 992 nafarni tashkil etib, 56,5 foizga yetkazildi (2023-yili 32 foiz edi). Davlat umumta’lim maktablariga 2023–2024-o‘quv yilida 500 nafar xorijlik mutaxassis jalb etilishi natijasida 500 ta maktab o‘quvchilarining til bilish darajasi hududlar kesimida o‘rtacha 5 foizdan 15 foizgacha oshirildi. 8951 nafar o‘quvchi (2023-yili 5296 nafar) xalqaro sertifikatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovi tashkil etib kelinmoqda. O‘tgan davr mobaynida mazkur tanlovda 14–16 yoshdagi 110 mingga yaqin o‘quvchilar ishtirok etdi. Xususan, 2023–2024-o‘quv yilida 6442 ta maktabning 32 210 nafar o‘quvchisi qatnashdi. Tanlovning yakuniy bosqich natijalariga ko‘ra 70 nafar o‘quvchilardan 39 nafari C1 (55,7 %), 30 (42,8 %) nafari B2 va 1 nafari B1 daraja natija ko‘rsatdi. Umumiy hisobda 99 % ishtirokchilar B2 va undan yuqori natijani qayd etishdi.

– Albatta, yutuqlar o‘zimizniki, ular bilan har qancha g‘ururlansak, faxrlansak arziydi. Lekin masalaning yana bir nozik jihati ham bor. Bu ko‘pchilikni o‘ylantirayotgan savol, aslida. Bugun xorijdan olib kelinayotgan til mutaxassislarining dunyoqarashi milliy mentalitetimizga qanchalik darajada uyg‘un?

– O‘rinli savol. Suhbatimiz avvalida aytganimday, biz xorijlik o‘qituvchiga qat’iy talablarni oldindan belgilab olamiz. Shu jumladan ma’naviy me’yorlarni ham. Misol uchun, ular O‘zbekistonning qonunlari, Konstitutsiyasi, milliy urf-odatlari, qadriyatlari, tili va hokazolarni hurmat qilishga majburligi ogohlantiriladi. Ham og‘zaki, ham yozma shaklda rasman tushuntiriladi. Mutaxassislar shunga rozi bo‘lib, shartni qabul qilgan holda yurtimizga kelishadi.

Chet elliklar maktabdagi ba’zi masalalarga umuman aralashmaydi. Deylik, o‘quvchining yurish-turishi, formasi, e’tiqodi va boshqalar. Maktabning ichki tartib-qoidalariga ham so‘zsiz amal qilishi ko‘rsatilgan. Bir so‘z bilan aytganda, bosh maqsad o‘quvchilarga bilim berish ekanini ular yaxshi tushunishadi. Davlatning belgilangan me’yorlari mavjudligini yaxshi bilishadi. Qolaversa, yonidagi hamkor o‘qituvchi unga yordam berib, tushuntirib boradi. Shu bois bu borada xavotirga sira o‘rin yo‘q.

– Siz ushbu loyihaning yaqin kelajakdagi istiqbolini qanday ko‘rasiz?

– Birinchidan, to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganimizga aminman. Bora-bora bizning davlat ham xorijiy til o‘qituvchilarini dunyoga eksport qila olish darajasiga yetadi. Bunga ishonaman. Axir ne-ne buyuk allomalar yetishtirgan millat vakillarimiz. Demakki, ilm genimizda bor. Ochig‘i, mahalliy o‘qituvchilarimiz orasida chet tilini xalqaro darajada biladigan o‘ta tajribali, kuchlilari ko‘p. Ayni paytda ular 57 foizni tashkil etadi va bu yaxshigina ko‘rsatkich. Eng kamida B2 darajasi, malaka sertifikati bor. Aytmoqchimanki, loyihani davom ettirgan holda, o‘g‘il-qizlarimizni chet tillardan savodli qilishda faqat xorijlik pedagoglarga tayanib ham qolmaymiz. O‘quvchilarimiz bugungi zamonda asosiy kompetensiyalardan biri sanaladigan til bilish darajasi yuqori mutaxassis bo‘lib yetishsa, ertaga global dunyoda raqobatbardosh kadrga aylanadi, tenglar ichra teng ravishda eng nufuzli tashkilotlarda, eng yuksak lavozimlarda faoliyat yuritadilar. Jahon miqyosida o‘zbek degan nomni sharaflab yashaydilar.

Shahobiddin RASULOV
suhbatlashdi.

Gulchehra ORTIQOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMALARINING MA'NO IMKONIYATLARI

(6-sinf, III chorak)

Darsning mavzusi: Ko'makchi fe'llar va ularning imlosi (6-sinf).

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga o'zbek tilida ko'makchi fe'llarning ma'no imkoniyatlari haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni tilimizning o'ziga xos leksik imkoniyatlarini o'rgatish orqali ularni ona tiliga muhabbat ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning harakat tarzi shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga doir bilimlarini rivojlantirish.

Darsning turi: aralash.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Raqamlar charxpalagi", "Valentlik", "Keyin-chi?!", "Kichik aktyor", "Changyutkich".

Darsning jihozi: elektron doska yoki videoproyektor, rag'bat kartochkalari, tarqatmalar, koptok.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashib, davomat tekshiriladi, sinf xonasi tayyorligi nazorat qilinadi.

II. O'tgan mavzuni so'rash.

O'tilgan mavzu (ma'nodosh so'zlar)ni mustahkamlash uchun **"Raqamlar charxpalagi"** metodidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilarga bir tarafida yashil, ikkinchi tarafida qizil rangda yozilgan birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar tarqatiladi (bitta tarqatmaning ikki tomonida bir xil raqam bo'lmasligi kerak). Tarqatmaning bir tarafidagi yashil rangli raqam o'quvchining o'z raqami, ikkinchi tarafdagi qizil rangdagisi esa savol berishi kerak bo'lgan sinfdoshining raqami bo'ladi. O'yinni boshlashda 1-raqamli o'quvchi o'z sherigiga biror so'z aytadi, sherigi u aytgan so'zga ma'nodosh so'z bilan javob qaytaradi. So'ng u o'z sherigiga biror so'z aytadi va uning sherigi ham ma'nodosh so'z bilan javob beradi. Shu tariqa o'yinda o'nta raqam aylanib kelib qaysidir o'quvchining 1-raqamli o'quvchiga savol berishi bilan yakunlanadi. O'yin ishtirokchilaridan savol-javobda tezkorlik hamda zukkolik talab qilinadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu haqidagi nazariy bilimlarni berishdan avval, o'qituvchi **"Valentlik"** metodi orqali o'quvchilarda harakat tarzi shakllari haqida tasavvur paydo qiladi. Bunda o'qituvchi barcha o'quvchilarga bittadan ko'makchi fe'l yozilgan tarqatmalarni tarqatadi va o'zi fe'l so'z turkumidagi istalgan biror so'z yozilgan qog'ozni ko'rsatadi. Sinfdagi qaysi o'quvchida shu fe'l bilan birika oladigan ko'makchi fe'l mavjud bo'lsa, so'zni olib sinf taxtasi oldiga chiqadi hamda o'zi hosil qilgan harakat tarzi shaklining ma'nosini gapda qo'llash orqali izohlashga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini to'ldirib, aniqlab, izohlab boradi.

Shundan so'ng ko'makchi fe'llar haqidagi darslikda keltirilgan quyidagi nazariy ma'lumot elektron doska yoki videoproyektorda slaydlar namoyishi orqali to'liq yoritib beriladi:

__-a/-y, -(i)b__ bilan tugagan fe'llardan keyin kelib, o'zining mustaqil ma'nolarini yo'qotgan fe'llar ko'makchi fe'llar hisoblanadi: __ayta olmoq, ko'rib qolmoq__. Ular asosiy fe'ldan anglashilgan harakat-holatga turli (boshlanish, davomiylik, tugallanish, to'satdan yuz berish, imkoniyat, tez va oson bajarish, birov uchun bajarish…) yordamchi ma'nolarni qo'shadi.

Yetakchi va ko'makchi fe'llar birikuvidan hosil bo'lgan birlik bitta so'z sanaladi. Masalan, __aytib yubormoq__ so'zi. Bunda __yubormoq__ ko'makchi fe'li __aytmoq__ harakatining kutilmaganda ro'y berganini ifodalashga xizmat qilmoqda.


***Boshlamoq, olmoq, bermoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq, ko'rmoq** kabi qator fe'llar ko'makchi fe'l bo'lib kela oladi. __Boshlamoq__ so'zi ko'makchi fe'l vazifasida ham o'z ma'nosini saqlaydi.*

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlashda, avvalo, darslikda keltirilgan quyidagi topshiriqni bajarish tavsiya etiladi:

Xavfsizlik belgilarini diqqat bilan o'rganing. Belgilarning nomini topib yozing.

Topshiriqni bajarishda **"Mosini top"** metodidan foydalaniladi. Dastlab o'quvchilar bilan darslikdagi belgilar nimani ifodalab kelishi haqida suhbat o'tkaziladi.



So‘ng belgilar ostidagi jumlalar o‘qib berilib, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik so‘raladi.

A O‘t o‘chirgich
B Yo‘naltiruvchi ko‘rsatkich
D Chiqish joyi
E Odamlar yig‘ilishi uchun mo‘ljallangan joy
F Diqqat, xavfli!
G Portlash xavfi mavjud
H Yo‘ng‘in xavfi bor
I Olov yoqish taqiqlanadi
J Chekish taqiqlanadi

Bunda o‘quvchi jumlalar belgilarga mos izohlar ekanini tushunib yetishi lozim. O‘quvchilarning javoblari tinglab bo‘lingach, belgilarni ularga mos izohlari bilan moslashtirib, namunada keltirilgan shaklda yozish aytiladi.

Quyida berilgan fe’llarni *o‘chirmoq* fe’liga bog‘lab yozing. Ularni o‘zaro taqqoslang, ma’nolarida qanday farqni sezdingiz?

Namuna: *o‘chira boshlamoq*.

Boshlamoq, chiqmoq, tashlamoq, ko‘rmoq, turmoq, qo‘ymoq.

Dastlab o‘quvchilardan ***o‘chirmoq*** fe’lining ma’nosi so‘raladi: **“O‘chirmoq nima, u qanday holatlarga nisbatan ishlatiladi?”**. O‘quvchilarning javoblari tinglab bo‘lingach, o‘chirmoq – yonishdan to‘xtatmoq ekani, tok, gaz, olovni o‘chirish mumkinligi, ya’ni yonib turgan narsani harakatdan to‘xtatib qo‘yishga nisbatan ishlatilishi haqida ma’lumot beriladi. So‘ng ***o‘chirmoq*** so‘zini berilgan birliklar bilan birgalikda yozish aytiladi. O‘quvchilar yozib bo‘lgach, yozgan so‘zlarini taqqoslab, ularning ma’nolari o‘rtasidagi farqni aytishi lozim. O‘quvchilarning fikri tinglangach, hosil qilingan har bir birlikka o‘qituvchi tomonidan izoh berib o‘tiladi hamda ushbu so‘z qo‘shilmasi orqali harakatning turli darajalarini ifodalash mumkinligi misollar orqali tushuntiriladi:

- ***o‘chira boshlamoq*** – *harakatning boshlanishi;*
- ***o‘chirib turmoq*** – *harakatning davomiyligi;*
- ***o‘chirib qo‘ymoq, o‘chirib tashlamoq*** – *harakatning tez va oson bajarilishi;*
- ***o‘chirib chiqmoq, o‘chirib tugatmoq*** – *harakatning to‘la yakunlanganligi.*

Shundan so‘ng **“Changyutkich”** metodi orqali mavzuni mustahkamlash davom ettiriladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga dastlab quyidagi audiomatnni qo‘yib eshittiradi. O‘quvchilarga eshitgan matndan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini ajratib yozish topshiriladi. O‘quvchilar ishi tekshirilgunga qadar o‘zlashtirishi sust bo‘lganlar uchun ekrandan shu audiomatnning matn ko‘rinishi ko‘rsatiladi va topshiriq yana aytiladi. Endi qolgan barcha o‘quvchilar ham matnda uchragan harakat tarzi shakllarini ajratib yoza olishadi. Aniqlangan ko‘makchi fe’llar qanday ma’no ifodalayotgani tahlil qilinadi.

V. Baholash va rag‘batlantirish.

Dars so‘ngida har bir o‘quvchi dars davomida qo‘lga kiritgan “Rahmat!” (3 baho), “Barakalla!” (4 baho), “Ofarin!” (5 baho) rag‘bat kartochkalari yordamida baholanadi.

VI. Uyga vazifa. Yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi holatlar bilan bog‘liq taqiqlovchi belgilarni chizing. Belgi yoniga ularning izohini yozing, bunda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalaridan foydalanishga harakat qiling. Masalan:



Sayrga chiqqanda olov yoqmang!

Bu belgi tabiat qo‘ynida olov yoqishni taqiqlab qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronova S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov N. “Ona tili” 6-sinf. Darslik. – Toshkent, 2022.
2. Azimova I., Mavlonova K., Quronova S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov N. “Ona tili” 6-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
3. Ortiqova G. Eng faol tadbirkor. // Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2020, №4. – B. 12.



O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH: MANBALARI VA USULLARI

Ravshan JOMONOV,
O'zbekiston xoreografiya akademiyasi
professori v.b.,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Har qanday tilning boyib, rivojlanib borishida so'z o'zlashtirish muhim o'rin tutadi. Ushbu hodisaning ilmiy-nazariy asoslari hozirga qadar chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, so'z o'zlashtirishning manbalari va usullari maxsus tadqiq etilmagan. Vaholanki, mazkur lisoniy hodisani yetarlicha ilmiy-nazariy jihatdan asoslamasdan turib, til amaliyoti uchun tegishli tavsiyalar berish o'rinsizdir. Mazkur maqolada so'z o'zlashtirishning manbalari va o'zlashtirish usullari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *adabiy til leksikasi, so'z o'zlashtirish hodisasi, ilmiy-nazariy asoslar, bevosita o'zlashtirish va bilvosita o'zlashtirish, so'z o'zlashtirishda vosita tilning o'rni.*

Annotation. *Vocabulary acquisition plays an important role in the enrichment and development of any language. The scientific and theoretical foundations of this phenomenon have not been studied in depth so far. In particular, the sources and methods of vocabulary acquisition have not been specifically studied. However, it is inappropriate to give appropriate recommendations for language practice without sufficiently substantiating this linguistic phenomenon scientifically and theoretically. This article provides information about the sources and methods of vocabulary acquisition.*

Keywords: *literary language lexicon, the phenomenon of word acquisition, scientific and theoretical foundations, direct acquisition and indirect acquisition, the role of the target language in word acquisition.*

Аннотация. *Приобретение словарного запаса играет важную роль в обогащении и развитии любого языка. Научно-теоретические основы этого явления до сих пор досконально не изучены. В частности, источники и способы усвоения слов специально не исследовались. Однако нецелесообразно давать соответствующие рекомендации по языковой практике без достаточного научно-теоретического обоснования данного языкового явления. В этой статье представлена информация об источниках и методах усвоения слов.*

Ключевые слова: *лексика литературного языка, феномен усвоения слов, научно-теоретические основы, прямое и непрямое усвоение, роль среды в усвоении слов.*

So'z o'zlashtirish hodisasi tilning lug'at boyligini yangilab, muntazam boyitib boruvchi jarayon sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki so'z o'zlashtirish ijtimoiy ehtiyojlar, hayotiy zarurat tufayli amalga oshadi. Binobarin, yuzaga kelayotgan yangi voqea-hodisalarni, predmet va buyumlarni nomlash, shuningdek, mavjud nomlarni almashtirish usullaridan biri sifatida har qanday tilda so'z o'zlashtirishning o'rni beqiyosdir. Xo'sh, so'z o'zlashtirish deganda nima tushuniladi, uning til taraqqiyotidagi o'rni qanday, xorijiy tildan kirgan har qanday so'z ham to'liq o'zlashib ketishi mumkinmi? Agar xorijiy so'z adabiy tilga to'liq o'zlashib ketsa, uning leksik tizimida qanday o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin?

Nazarimizda, mazkur savollarga to'liq javob qaytarish uchun so'z o'zlashtirish jarayonini puxta o'rganish, juda ko'plab o'zlashtirilgan so'zlarni tahlil etish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishga to'g'ri keladi. Buning uchun, eng avvalo, so'z o'zlashtirish bilan bog'liq hodisalarni aniqlab olish lozim bo'ladi. Negaki, "So'z o'zlashtirish – turli millat vakillari og'zaki va yozma muloqotining muqarrar natijasidir. Har qanday tilning lug'at tarkibida ma'lum bir foiz o'zlashtirilgan so'zlar mavjud. Ayrim xalqlarning puristik g'oyalari qanchalik kuchli bo'lmasin, birorta ham til o'zlashmalarni chetlab o'tolmaydi. Vaqt o'tishi bilan ko'plab so'zlar ularni o'zlashtirgan til xususiyatiga shunchalik moslashadiki, ularning o'zlashtirilgan, xorijiy so'z ekanligi bilinmay ketadi" [1: 41]. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o'zbek tiliga bir qator so'zlar o'zlashtirilgan. Bunday tipdagi so'zlar dastlab xalq jonli talaffuzida o'zlashgani bois xuddi o'zbekcha so'zlardek bo'lib ketgan. Misol

uchun, ***patnis*** (поднос), ***chorizm*** (царизм), ***cho‘t*** (счёты), ***cho‘tka*** (щётка) so‘zlarining talaffuzi va yozilishi o‘zbek tilida biror muammo tug‘dirmaydi.

Aslida, o‘zlashtirish deganda juda keng lisoniy hodisa nazarda tutiladi. Binobarin, o‘zlashtirish fonetik, morfologik, leksik (lug‘aviy), sintaktik, semantik va hokazo ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Biz mazkur maqolada asosan leksik (lug‘aviy), ya’ni so‘z o‘zlashtirish muammosini ko‘rib chiqamiz. Negaki, so‘z o‘zlashtirish jarayonining o‘zi nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, “Mazkur mavzu bilan bog‘liq muammolarni konkret hal etish hozirgi tilshunoslikda o‘zlashtirish jarayonining ba’zi bir jihatlari aniqlanmagani tufayli yuzaga keladigan nazariy xarakterdagi ayrim qiyinchiliklarga borib taqaladi. Masalan, boshlang‘ich nuqtalar juda noaniq, xususan, nimani o‘zlashtirish deb atash kerak? Nimani o‘zlashtirilgan so‘z deb atash kerak? “Bir tildan boshqasiga so‘z o‘tishi” nimani anglatadi? Bir tildan boshqasiga “o‘tish” so‘zini yuzaga keltiruvchi qanaqa sabablar bor?” [2: 3].

Shu o‘rinda ***o‘zlashtirilgan so‘z*** deganda nimani tushunish masalasini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Bu boradagi qarashlar hozirga qadar ancha munozarali. Masalan, N.M.Shanskiy fikriga ko‘ra, “Rus tiliga tashqaridan kirgan har qanday so‘zni, hatto u tashkil etuvchi morfemalari bo‘yicha asl ruscha so‘zlardan farqlanmasa-da, o‘zlashtirilgan so‘z deb tushunish lozim” [3: 86].

Ma’lumki, har qanday til o‘z ehtiyojlari uchun boshqa tillardan so‘z o‘zlashtiradi. Bu, aslida, tabiiy jarayon. Hozirgi o‘zbek tili tarkibida qadimgi xitoy, hind tillaridan, keyinroq fors-tojik va arab tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar bor. Biroq XX asrning 30-yillaridan boshlab Yevropa tillaridan o‘zlashtirilayotgan so‘zlar faqat ruscha talaffuzda va ruscha shaklda olingani bois o‘zbek tiliga singib ketishi va talaffuzi qiyin kechdi. Aniqrog‘i, kirill yozuvida ruslar qanday yozsa, o‘sha taxlitda yozadigan va aytadigan bo‘ldik. Bu esa til rivojiga ma’lum ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, o‘zbek lotin alifbosining joriy qilinishi bilan bir qator orfografik muammolar yuzaga keldi. Jumladan, “yolashgan unlilar” deb nomlanuvchi **е, ё, ю, я** harfli so‘zlar, **ц** harfi bilan yoziladigan so‘zlar, ayirish (**ъ**) va yumshatish (**ь**) belgili so‘zlar imlosida qator qiyinchiliklar kelib chiqdi, turli xil orfogrammalar qo‘llana boshladi, imloda boshboshdoqlik (anarxiya) avj oldi. Vaholanki, hozirgi yozuv amaliyoti bunday masalalarni tezda hal qilishni, ilmiy-nazariy jihatdan puxta asoslangan imlo qoidalarini yaratishni taqozo etmoqda.

So‘z o‘zlashtirishning nazariy asoslari haqida gapirganda mazkur lisoniy hodisaning manbalari va usullarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu jarayonda ikki til o‘zaro “to‘qnashadi”, bir til elementi ikkinchi tilning lug‘aviy tizimidan joy oladi. So‘z berayotgan til manba til hisoblanadi. Odatda so‘z manba tildan yoxud vosita til orqali o‘zlashtiriladi. Demak, so‘z o‘zlashtirish manbasi haqida gapirganda ikki holat ko‘zda tutiladi: manba tildan so‘z o‘zlashtirish, vosita til orqali so‘z o‘zlashtirish. Shu sababli ham, “O‘zlashtirilgan leksikani tadqiq etganda, tabiiyki, o‘zlashgan so‘zlarning manba tili haqidagi masala kelib chiqadi.

Ma’lumki, o‘zlashtirish bevosita yoki bilvosita bo‘lishi mumkin. Keyingi (bilvosita) holatda so‘z bir tildan ikkinchi tilga uchinchi vosita orqali o‘zlashadi, natijada semantikada o‘zgarish va o‘zga til muhitining so‘z shakliga ta’siri amalga oshadi. Bilvosita o‘zlashtirishda so‘z qo‘shnilarning og‘zaki nutqi orqali ham kirib kelishi mumkin, ular esa uni birinchi (dastlabki) manbadan yoki kitobdan ham o‘zlashtirgan bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, o‘zlashtirilgan so‘zning manbasini aniqlashda bir qator murakkabliklar yuzaga keladi. Bunda o‘zlashtirilgan so‘zning dastlabki va bilvosita manbalarini farqlash lozim” [4: 7].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi o‘zlashtirilgan so‘zlarga ham ayni shu nuqtayi nazardan yondashish mumkin. Masalan, arabcha, fors-tojikcha va ruscha so‘zlar, asosan, o‘sha tillarning o‘zidan o‘zlashtirilgan bo‘lsa, qadimgi hind, xitoy va Yevropa tillaridan kirgan so‘zlar vosita til orqali o‘zlashtirilgan. O‘zlashmalar o‘zbek tiliga turli yo‘llar bilan kirib kelgan. Arabcha o‘zlashmalarning ko‘pi o‘zbek tiliga yozma manbalardan, qisman og‘zaki nutqdan o‘zlashtirilgan. Fors-tojik elementlarining o‘zlashishida yozma manbalar bilan bir qatorda og‘zaki til muhim rol o‘ynagan. Turmushga oid, hunarmandchilik, kasb-kor, dehqonchilik va chorvachilik, oddiy muomala va rasm-rusumlarga oid tojikcha so‘zlarning ko‘pi o‘zbek tiliga o‘zbek-tojik mahalliy shevalarining o‘zaro aloqasi tufayli kirib kelgan. O‘zlashmalarning tilga kirib kelish usullari har davrda o‘ziga xos bo‘lishi mumkin. Ruscha-baynalmilal so‘zlarning o‘zbek tiliga kirishida dastlabki davrlarda og‘zaki nutq, og‘zaki muloqot muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, keyinchalik yozma manbalar, radio va televideniye nutqi, ayniqsa tarjima va matbuot tili muhim rol o‘ynadi [5: 19].

Ayni paytda o‘zlashtirilgan so‘zlarni o‘rganayotganda quyidagi holatlar hisobga olinadi. Birinchidan, o‘zlashma qachon, qaysi tarixiy hodisa sababli amalga oshganini aniqlash zarur. Chunki biror xorijiy so‘z, albatta, biror sabab bilan, nimanidir ta’sirida o‘zlashtiriladi. Ijtimoiy hayotdagi har qanday o‘zgarish tilda o‘z ta’sirini qoldirganidek, o‘sha atama (termin) ham lisoniy ehtiyoj tufayli boshqa til leksikasiga kirib boradi. Bunda o‘sha o‘zlashmaning xarakteri: maishiy mavzudagi so‘z ekani yoxud ilmiy terminligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, so‘z o‘zlashtirishning qaysi usuli bilan amalga oshganini ham aniqlash amaliyot uchun muhimdir. Negaki, o‘zlashtirilayotgan so‘zning og‘zaki yoki yozma tarzda amalga oshgani, bevosita yoki bilvosita kirib kelgani kabi omillar so‘z o‘zlashtirish hodisasini xarakterlovchi belgilardan biri hisoblanadi. So‘zning aynan o‘sha tildan kirib kelganini ko‘rsatuvchi belgi-alomatlarni ham hisobga olish o‘rinli bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, so‘z o‘zlashtirishning manbalari va usullari turlicha bo‘lib, bir-biri bilan bog‘liq, uzviy jarayonni tashkil etadi. Binobarin, “O‘zlashtirilgan so‘zlarning quyidagi tiplari ajratiladi: qadimgi va zamonaviy o‘zlashmalar; og‘zaki va yozma; bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri manba tildan) va bilvosita (boshqa tillar orqali); jonli va o‘lik tillardan o‘zlashmalar; xususiy va xalqaro xarakterdagi o‘zlashmalar. Shu sababli ham, o‘zlashtirish usuli ko‘p hollarda o‘zlashtirilayotgan so‘zlarning xarakteriga bog‘liq bo‘ladi; biror tilga o‘zlashmalarni ongli ravishda olib kirishda asosiy e’tibor mazkur so‘zlarning manba

tildagi xususiyatlarini aniqlash hamda o'zlashtirayotgan tildagi ularga o'xshash xususiyatlarga qaratiladi" [1: 41].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, so'z o'zlashtirish hodisasi har qanday til taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Mazkur hodisani tahlil etganda o'zlashtirilayotgan so'zning manbasi va o'zlashtirish usullariga e'tibor qaratish zarur. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish tarixi shundan dalolat beradiki, ona tilimiz tarkibidagi so'zlar asosan ikki usulda: bevosita yoki bilvosita o'zlashtirilgan. Masalan, forsiy so'zlar tojiklar bilan bevosita yonma-yon yashaganimiz uchun o'sha tilning o'zidan o'zlashtirilgan, keyinchalik ruscha so'zlarda ham ayni shu holat takrorlangan: *patnis, chor, cho't, cho'tka* va hokazo. Lekin Yevropa tillaridan so'z o'zlashtirishda rus tili vosita til vazifasini bajargan. Natijada o'zlashmalarning aksariyati ruscha qolipda yoziladigan va talaffuz etilgani uchun ularning o'zlashishi qiyin kechgan. Qadimgi hind, xitoy tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar esa uzoq yillar mobaynida qo'llanib kelgani sababli, ular deyarli o'zbekcha so'zlarga aylanib ketgan: *lag'mon, manti, manpar*… So'z o'zlashtirish to'xtovsiz davom etadigan jarayon bo'lib, o'zlashtirilayotgan so'z imkon qadar o'zbek adabiy tilining fonetik, orfoepik me'yorlariga moslashtirilishi hamda o'zbek orfografiyasi qoidalariga muvofiq yozilishi lozim. Ana shunda bunday o'zlashmalarning ona tilimizda o'zlashib, singib ketishi tezlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суперанская А.В. Теоретические основы практической транскрипции. – Москва: Наука, 1978.
2. Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Наука, 1968.
3. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – Москва: Просвещение, 1972.
4. Исенгалиева В.А. Тюркские глаголы с основами, заимствованными из русского языка (производные глаголы синтетического и аналитического образования). – Алма-Ата: Наука, 1966.
5. Jomonov R. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imlo muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.



"QUTADG'U BILIG"DA ASTRONOMIYAGA OID TERMINLAR

Fotimaxon BAXTIYAROVA,
Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi;
Muxtorjon BAXTIYAROV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar tilimizga, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, yangi terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Shular orasida astronomiyaga oid terminologik tizim ham o'ziga xos o'ringa ega. Zero har bir sohaning takomillashuv darajasi o'sha soha terminologiyasining qay darajada rivojlangani, shuningdek, tartibga solingani bilan ham uzviy bog'liq [1: 62–63]. Chunki termin yoki uning ifoda shakli aniq bo'lmasa, chalkashlik, noaniqlik kelib chiqadi.

O'zbek tilida astronomiyaga oid terminlarga bag'ishlangan izohli lug'at yaratilmagan. Agar yaratilsa, u bebaho manba bo'lishi aniq. Chunki tilshunoslik, tarix va tibbiyot kabi sohalar uchun izohli lug'atlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular nafaqat tegishli sohalarni rivojlantirishga yordam berayapti, balki mutaxassislarni tayyorlashda hamda ilmiy jamoatchilikning yutuq va

kamchiliklarini baholashda asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Akademik Azim Hojiyev umumiy so‘zlardan farqli o‘laroq, ma’lum bir soha doirasidagi atamalarni aniq talqin qilish zarurligini ta’kidlagan [2]. Shu nuqtayi nazardan terminologiyadagi o‘zgarishlarni kuzatish va o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshirishni rag‘batlantiruvchi omillarni aniqlash maqsadida astronomiyaga oid atamalarning izohli lug‘atini yaratishni jadallashtirish, bu yo‘lda aniqlik, xolislik tamoyillariga amal qilish zarur.

Filologiya fanlari doktori, professor Valeriy Danilenko ta’kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko‘rsatkichi shu soha terminologiyasining “qat’iy ilmiy terminologiya”ga ega ekani bilan ham belgilanadi [3]. Olim “qat’iy ilmiy terminologiya” deganda biron-bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg‘unlashuvini, terminlarning sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligini, qabul qilingan va muomaladagi terminlarning fan tili bilan mos kelishini nazarda tutadi. Umuman, terminlarning aniqligi va qat’iylashishi fan, maorif va madaniyat darajasini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida astronomiyaga oid terminlar tadqiqi doirasida bajarilgan ishlar sirasiga tilshunos olim Azamat Primovning kosmonimlarning lisoniy xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasini kiritish mumkin [4]. Olim ilmiy ishida astronomiya sohasining bir tarmog‘i hisoblangan kosmonimlarni va ularning badiiy adabiyotlarda, shuningdek, xalq orasida nomlanishini tadqiq etgan. Saidbahrom Azizovning o‘zbek adabiyotshunosligida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan “Alisher Navoiy asarlarida falakiyot sirlari” nomli kitobini ham e’tirof etish o‘rinli. Asarda Alisher Navoiyning kosmogonik dunyoqarashi shakllanishida Ulug‘bek astronomiya maktabining o‘rni, Navoiy asarlarida falakiyot ilmiga oid ma’lumotlar (astronomik jihozlar, olam modellari, osmon jismlari, samoviy hodisalar), shuningdek, ularning manbalari haqida so‘z yuritilgan [5: 136].

Hozirgi o‘zbek terminologiyasining shiddat bilan taraqqiy etishi til lug‘at tarkibining boyishi va takomillashuviga sabab bo‘ldi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida sof o‘zbekcha leksik birliklar bilan birga, ruscha-baynalmilal terminlarning ham alohida o‘rni bor. Bu jihat, ayniqsa, tabiiy fanlar, xususan, astronomiyaga oid terminlar tizimida o‘zining yaqqol ifodasini topdi. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga tavsiya etish uchun mazkur sohaga oid terminlarni nafaqat soha adabiyotlaridan, balki o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalaridan ham olinishi milliy tilimizga bo‘lgan chuqur hurmatni ifodalaydi.

Qoraxoniylar saltanatida vazir lavozimini egallagan Yusuf Xos Hojib turkiy tilda she’riy doston bitib, turkiy tilli xalqlarni ulug‘lashni niyat qilgan. Uning “Qutadg‘u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) asari insonni komillikka undovchi nasihatnomadir. Asarda ramzlar, timsollar orqali inson va imon-e’tiqod, inson va jamiyat, inson va burch kabi masalalar sodda va go‘zal she’riy uslubda bayon etilgan. “Qutadg‘u bilig” badiiy tafakkuri, tadqiq ko‘lami va she’riy qimmati jihatidan mo‘tabar ekanini alohida ta’kidlab o‘tmoq lozim” [6]. Asarning “Yetti sayyora va o‘n ikki burj bayoni” deb nomlangan beshinchi bobida osmon jismlarining nomi turkiy tilda berilgan. Bilamizki, tushunishni osonlashtirishning samarali vositalaridan biri terminlarni ifodalashda illustrativ misollardan o‘rinli foydalanishdir [7: 51–54]. Izohli lug‘atlarga illustrativ misollarni kiritish foydalanuvchilarga ilmiy tushunchalar bilan tanishish va ilmiy uslubni yaxshiroq baholash imkonini beradi. Ushbu misollar bilan tanishish orqali kitobxon tanqidiy fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va turli astronomik hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni analiz va sintez qilishni o‘rganadilar [8: 164–168].

Bu misollar nafaqat ta’riflarni aniqlab beradi, balki foydalanuvchiga koinot mo‘jizalarini chuqurroq anglashga ham ko‘maklashadi. Quyida “Qutadg‘u bilig” (qadim turkchadan Emin Usmon tarjimasi)da illustratsiyalar bilan berilgan astronomiyaga oid terminlarni ko‘rib chiqamiz:

…Baridan yuksakd ***Sekan****tir turar,*
Ikki yil sakkiz oy bir burjda turar [6].

Sekantir – Zuhal (Saturn) yulduzi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (keyingi o‘rinlarda *O‘TIL*)*da* bu yulduz haqida shunday ma’lumot berilgan: **SATURN** *[lot.* Saturnus – Qadimgi Rim mifologiyasida: ekin-tikinlar ma’budi va ziroatchilik homiysi] *(S – katta) astr.* Quyosh sistemasidagi sayyoralardan Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha oltinchi, kattaligi bo‘yicha ikkinchi, atrofida halqasi bo‘lgan sayyora; Zuhal, Kayvon. *Saturnni ilk bor Galiley 1610-yilda kashf etgan [9: 688]*.

Ikkinchi o‘rinda turadi ***O‘ngoy****,*
Bir burjda qolar rosa o‘n ikki oy [6].

O‘ngoy – Mushtariy (Yupiter) yulduzi. O‘TILda: **YUPITER** I *[lot.* Jupiter – qadimgi Rim mifologiyasida: oliy ma’bud, bosh xudo] (Yu – *katta) astr.* Quyosh sistemasidagi eng katta, Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha beshinchi sayyora; Mushtariy [9: 87].

Bu yulduz haqida xalq og‘zaki ijodida rivoyatlar mavjud. Aytilishicha, Mushtariy va Zuxro yulduzining ko‘rishishi natijasida yer yuzida bir ulug‘ inson dunyoga kelar ekan.

Uchinchi ***Ko‘rud****dir g‘azabnok yurar,*
Qayon boqsa jam’i yashnagan qurar [6].

Ko‘rud – Mirrix (Mars) yulduzi. O‘TILda: **MARS** [*lot.* Mars – Rim mifologiyasida: urush ma’budi (xudosi)ning nomi] (M – *katta) astr.* Quyosh sistemasidagi to‘qqizta katta sayyoralardan biri, Quyoshdan keyin to‘rtinchisi; Mirrix [9: 547] .

Misrliklar Mars (badiiy adabiyotlarda Mirrix, Bahrom) yulduzini urush, jang va yovuzliklar xudosi, deb bilishgan.

To‘rtinchi Quyoshdir yoritar jahon,
Uzog‘u yaqinni, duch kelgan tomon.
Xushchiroyin ko‘rsatsa beshinchi ***Savit****,*
Va mehr-la boqsa, sen o‘zing ovut [6].

Savit – Zuhra. Cho‘lpon (Venera) yulduzi. O‘TILda: **ZUHRA** [*a.* o] (3 – *katta)* 1. *astr.* Quyosh sistemasi-

dagi katta planetalardan biri – Veneraning arabcha nomi. 2. Zuhra (xotin-qizlar ismi) [9: 166].

*Undan so'ng **Orzu** yulduzi kelar,*
Kimga yaqinlashsa, tilakka yetar [6].

Orzu – Otorud (Merkuriy) yulduzi. O'TILda: **MERKURIY** [*lot.* Merurius – Rim mifologiyasida chorvachilik va savdo ma'budi; sayyohlar, yo'lovchilar homiysi] (M – *katta) astr.* Quyosh sistemasidagi to'qqizta katta sayyoradan biri, Quyoshga eng yaqini [9: 580].

*Bulardan quyida **Yolchiq** turadi,*
Quyoshga ro'baro' bo'lsa to'ladi [6].

Yolchiq – oy. O'TILda: **OY** 1 (O – katta) *astr.* Quyoshdan nur olib, yog'du sochuvchi samoviy jism, Yerning tabiiy yo'ldoshi [9: 98].

Osmon jismlarining faqat bittasi (Quyosh) qadimgi va hozirgi til uchun umumiy, qolgan oltitasining nomi qadimgi turkiy til uchun xos. Qadimgi turkiy tilga mansub nomlarning izohli lug'atlarda illustrativ misollar bilan berilishi milliy tilimizga bo'lgan e'tiborni ko'rsatadi. Terminlarning mazmuniy tarkibi tavsifini semantik-struktur jihatdan izchil tadqiq etish ulardan amaliy foydalanishda, xususan, astronomiyaga oid terminlarning lug'at uchun maxsus tavsifini yaratish, terminlik ta'rifini mukammallashtirish, shuningdek, sohalar doirasida ixtisoslikka doir terminlarni tanlab olib, lug'atga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi [10: 326–328]. Shu tufayli izohli lug'atlarda astronomiyaga oid terminlarni illustrativ misollar bilan keltirishning ahamiyati va ularning astronomik tushunchalarni kengroq tushunishga qanday ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova S. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: Fan, 1996.
3. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977.
4. Primov A. O'zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. nomz...diss. avtoref. – Toshkent: O'zRFA TAI, 2009.
5. Azizov S. Alisher Navoiy asarlarida falakiyot sirlari. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Qadim turkchadan Emin Usmon tarjimasi. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-emin-usmon-tarjimasi.html
7. Mengliyev B. Lug'aviy ko'p ma'nolilik lison va nutq bo'linishida. // O'zbek tili va adabiyoti. 2000, №5.
8. Baxtiyarova F. O'zbek tilshunosligining terminologiyasi, xususan, astronomiya sohasining terminografiyasi masalalari. // Chet til ta'limida zamonaviy yondashuv tamoyillari va ilmiy-amaliy tarjima. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent, 2023.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
10. Baxtiyarova F. O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi astonomiyaga oid terminlarning semantik tuzilishi va ularning xususiyatlari. // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari. – Toshkent, 2023.

Dilfuza ZARIPOVA,
Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

HUVAYDONING "IBROHIM ADHAM" QISSASI TAHLILI

Xo'janazar Huvaydo iste'dodli mutasavvuf shoir, ijodkor, din arbobi bo'lgan. U avom xalqning rahnamosi sifatida jamiyat va el manfaatlarini muqaddas deb bilgan. "Ibrohim Adham" qissasi – Huvaydoning yirik asari. Qissada Alloh yo'lida toj-u taxtidan voz kechgan va darveshlikni tanlagan Ibrohim Adham singari so'fiylar himmati va mardligi ibrat qilib ko'rsatilgan. Muallif o'zi yashab turgan davr xususiyatlaridan kelib chiqib, ayni vaqtda ham diniy, ham tasavvufiy g'oyalarni rivojlantirishga, tasavvufning malomatiya, qodiriya, kubroviya singari tariqatlari g'oyalarini uyg'unlashtirishga, ham majoziy, ham ilohiy ishqni ulug'lashga intilgan.

Asarning ko'plab qo'lyozma va toshbosma nusxalari respublikamizdagi institutlar fondlarida saqlanmoqda. Qissa sayyor sujetga qurilgan. Asarda behad mol-dunyoga ega bo'lgan, biroq boylik, toj-u taxt, rohat-farog'atda yashashdan voz kechib, faqirlik yo'lini tanlagan Balx hokimi qissasi hikoya qilinadi. O'zbek mumtoz adabiyotida ushbu mavzuda ko'p asarlar yaratilgan. Huvaydo ana shu an'anaviy hikoyatni o'ziga xos uslubda yangi tuyg'u va kechinmalar, yangi ruhiy manzaralar tasviri orqali ifodalashga erishgan. Qissada faqat Ibrohim Adham emas, balki boshqa ko'plab obrazlar ham bor. Ayoli Zulhayo va o'g'lining ichki iztiroblari, cho'pon va tuyakash timsollari ham tasvirga olingan.

Qurayshiyning "Risola"sida shunday deyiladi: "Ibrohim ibn Adham Balxning boyonlaridan. Ov paytida tulki yoki quyonning orqasidan quvlayotganlarida g'oyibdan: "Sen shu narsa uchun yaratildingmi, shunga buyurildingmi?" degan ovoz keladi. Ovozni eshitiboq otdan tushadilar. Otalarining cho'ponlarini uchratib, ularga ot, kiyim-bosh va boshqa narsalarini beradilar-da, cho'l-biyobonga chiqib ketadilar. Sufyon Savriy va Fuzayl ibn Iyoz bilan do'stlashadilar.

Shomda yashaydilar. O‘roqchilik va bog‘ qorovulligi bilan tirikchilik qiladilar [1: 49].

Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasidagi cho‘pon va tuyakash obrazlari Qurayshiyning “Risola”sidagi voqealar xulosasiga o‘xshab ketadi.

Adabiyotshunos Saodat Yo‘ldosheva “Shohning faqirlik falsafasi” maqolasida Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasi asosida Ibrohim Adham podsholigi, uning o‘z ixtiyori bilan toj-taxtni tashlab, faqirlik yo‘liga kirgani haqidagi fikrlarni tahlil etgan. Manbalarga ko‘ra, Ibrohim Adham Balxda tavallud topgan. Keyinchalik bu shaharga hukmdorlik qilgan. Y.E.Bertels fikricha, “...u harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Ibrohim Adham zamonasining barcha ilmlarini mukammal egallagan, yetuk kishi bo‘lgan, u aslzoda oilada kamolga erishgan” [2: 71].

Qissada uning onasi Balx shohining qizi Malikayi Hubon, otasi kayoniy podshohzodalaridan devona Adham ekani zikr qilinadi. Uni olamga mashhur qilgan narsa nasl-nasabi emas, balki o‘zidagi iymon va e’tiqod, insonparvarlikdir. Ibrohim Adham rostgo‘y va davlatmand kishi bo‘lgan. O‘sha zamonda barcha insonlarga Ibrohimning qilgan ishi va so‘zi hujjat edi, ya’ni “bu ishni Ibrohim qildi” desalar hech kim xilof qilmas edi: “Ibrohim Adham shohlik martabasiga erishgunga qadar ham el orasida donishmand va avliyo kishi sifatida nom taratgan. Shu boisdan Muhammad Siddiq Rushdiy uni nafaqat dunyoning, balki dinning ham ulug‘ shohi, uzlat olamining ganji deb ta’riflaydi” [3: 3]. U podshoh bo‘lgandan keyin ulamo va fuzalo, sayyidlarga va faqir-u bechoralarga, ko‘r va shollarga xayr-u ehsonni, in’omni bisyor qilib, ularning duoyi xayrini oldi. Allohga bo‘lgan muhabbati shu darajada yuksak ediki, natijada u mamlakatni idora qilish huquqidan – shohlikdan ixtiyoriy tarzda voz kechib, qalandar hirqasini kiyadi va Makkaga hajga otlanadi.

Biz dastlab Ibrohimni bobosidan meros bo‘lib qolgan katta davlatning hukmdori sifatida ko‘ramiz. U adolat bilan hukmronlik qiladi, yerni obod qiladi:

“Qachonkim shohning bo‘ldi vafoti,
Ki Ibrohimga qoldi mamlakoti,
Bu Ibrohim oti olamg‘a to‘ldi,
Zi mashriq toki mag‘ribga yoyildi.
Necha yil qildi anda podshohliq,
Tamome shahrni qildi omonliq” [4: 94].

Ibrohim otasini izlab Balxdan qaytgan o‘g‘li bilan uchrashganda uning haqiqiy hayotga muhabbati qayta tug‘iladi. Xotini Zulhayoni shunday ayanchli holatga solganidan pushaymonligini bildira olmay, hushini yo‘qotadi.

Asarda ayollarning tuyg‘ulari, otashin mehr-muhabbat, sadoqat, madad va sabr-toqat, farzandlarga bo‘lgan onalik sadoqati alohida samimiyat bilan tasvirlangan. Darveshlik inson tabiatiga ma’lum darajada ziddir, buni shoir Zulhayo obrazida, ayniqsa, yaqqol ko‘rsatadi.

She’rdagi epizodik obrazlar ham ta’sirchan va ishonchli chiqqan. Onaning qizi va nabirasiga bo‘lgan beqiyos mehr-muhabbati shu qadar mahorat bilan tasvirlanganki, bu satrlarni hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi:

“O‘qub bu baytni xonim boyakbor,
Qizi yodig‘a tushub yig‘ladi zor,
Yonib ichki o‘tin yondirdi yana,
Muhabbat qo‘ydi anga g‘oyibona” [4: 91].

“Ibrohim Adham” qissasi tasavvufiy ruhdagi asardir. Bu so‘zlardan Alloh yodi uchun taxt-u baxtidan voz kechgan, ilohiy birlikka musharraf bo‘lgan oshiq ma’naviyatini anglash mumkin. Qissa so‘ngida shoir tomonidan keltirilgan bir g‘azal Ibrohim Adham faoliyatining mazmun-mohiyatini yaqqol sharhlaydigan xulosa vazifasini o‘taydi:

“Dunyoni tark qiluvchi uqbog‘a yuz urg‘on kishi
Jannat ila hurni netar mavlo yuzin ko‘rgan kishi,
Kim bexabardur mavlodin mag‘rur erur dunyoyeg‘a,
Dunyoning mulkin naylasin ondin xabar olg‘on kishi.
Fagfuri qaysar mulkni boshig‘a ursunmu oni,
Netsun Sulaymon taxtini ishq taxtiga mingan kishi”
[4: 110].

Ushbu qissa Huvaydoning “Rohati dil” dostonida ko‘zda tutilgan muhim vazifa, ya’ni komil inson tarbiyasi uchun xizmat qilgan. Butun Sharq mumtoz adabiyotida ibratli, haqiqiy oshiq timsoli bo‘lib kelgan Ibrohim Adham obrazi qayta yaratilishi “Rohati dil”ning ahamiyatini yanada oshirdi.

Xo‘janazar Huvaydo o‘zining shar’iy-axloqiy mulohazalarini ibratli hayotiy lavhalar bilan dalillash maqsadida musulmon dunyosida dovruqli mutasavvuf Ibrohim Adham haqidagi hikoyatini keltiradi. Undagi lavhalarda yana bir taniqli ma’naviy-ruhiy arbob Robiya Adaviya ham ishtirok etadi. Ibrohim Adham o‘n to‘rt yil sahro kezib Makkayi mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka’batulloh o‘z o‘rnida yo‘q ekan. O‘sha muqaddas makonda hozir bo‘lganlar muborak sajdagohning Robiya Adaviya istiqboliga chiqqanligini ma’lum qilishadi. Tabiiyki, bunday kutilmagan hodisadan Ibrohim Adhamning fig‘oni falakka ko‘tariladi. Shunday qilib, Ibrohim va Robiya Adaviya o‘rtasidagi mashhur savol-javob boshlanadi.

Xo‘sh, Robiya Adaviya kim? Huvaydo bu obrazni nega qissasiga kiritgan?

Robiya Adaviya zohidlikda nom chiqargan mashhur so‘fiy ayol. 718-milodiy yilda Basrada tug‘ilib, 801-milodiy yilda vafot etgan. Fariduddin Attor o‘z tazkirasida Robiyaning g‘aroyib odatlari, manoqiblari va karomat-u munojotlaridan xiyla naqllar keltirgan. Jumladan, “Kunlardan bir kun ikki shayx Robiyani ko‘rgani keladilar va ular och edilar. Robiyaning ikkita noni bor edi, ularning oldiga qo‘ydi. Shu topda bir gadoy eshikni taqillatdi va bir nima so‘radi. Robiyaning hech narsasi yo‘q edi. U mehmonlar oldidagi ikkita nonni olib, gadoyga berib yubordi. Shayxlar ajablanib qoldilar” [5: 105]. “Naql qiladilarki, bir kechasi Hasan Basriy shogirdlari bilan Robiyaning oldiga boradilar. Robiyaning chirog‘i yo‘q edi, eranlar esa yorug‘lik xohlardilar. Robiya barmog‘ini pilik qilib pufladi, shu zahoti u shamga aylanib, tonggacha yonib turdi”. “Bir kuni Hasan Basriy Robiyaga aytdi: turmushga chiqish niyating bormi?” Dedi: “Nikoh vujud (tirik tana)ga mu-

nosibdir. Bu o‘rinda tirik tana (jism) yo‘q, chunki men o‘zimning manim emasman va men Unikiman va Uning soyasi ostidaman. Meni Allohdan so‘rash kerak (mening roziligimni Allohdan so‘rash kerak)” [5:105].

Robiya bu yo‘lda tun-u kun tavba-tazarru va ibodat qilishdan tashqari, tilda va dilda hamisha Olloh nomini zikr etish, unga mehr-muhabbat bog‘lab, uni butun vujudi bilan sevish ila band bo‘ldi. Shunda jannat va do‘zax, mol-dunyo va o‘zining jism-joni bu yo‘lning qurboni bo‘ldi. U jisman butunlay yo‘qolgan edi, o‘zi o‘ziniki emasdi. Balki u o‘zini Ollohniki deb bilardi va uning soyasida yashardi. Shu bois Robiyaning Ollohga bo‘lgan oshiqona kechinmalari xiyla dardli sado berardi va unda Alloh sevgisi shu qadar kuchli ediki, shoira hayotiy sevgini tamoman yoddan chiqarib yuborgandi. Demak, Robiya uchun hayotiy sevgi va real yor jamoli Alloh sevgisi va uning nuroniy jilvasining in’ikosi emasdi. Alloh bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muhabbat bog‘lab, uning diydorini oxiratda ko‘rish zohidona ta’limotning yorqin ko‘rinishi ediki, Robiya shu yo‘lda jonini fido etdi.

Adabiyotshunos olim Nusratullo Jumaxo‘ja “Huvaydo tasavvufiy she’rlarida falsafiy-badiiy talqin” maqolasida Huvaydoning Ibrohim Adham haqidagi “Rohati dil” manzumasiga to‘xtaladi. Bu asar pandnoma bo‘lib, Huvaydo badiiy uslubi Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi yirik siymolarga yaqin turishini ta’kidlab, Mashrab soxta, taqvodor zohid suratini chizganligini, uning riyokorligini, namozu taqvosini el ko‘rsin uchun qilayotganligini eslatib, unga o‘git beradi:

“Namoz-u taqvosin zohid qilur olam aro mashhur,
O‘gurub subhasin tinmay, ishi doim riyo emish”
[1: 50].

Zero, Haq vaslini mudom istagan “jo‘yanda” (istovchi, qidiruvchi), “yovanda” (topa oluvchi, topa olgan)lar ko‘p va el aro ma’lum-u mashhur edilar.

Huvaydo “Ibrohim Adham” qissasi so‘ngida beshta g‘azal kiritgan. Bu g‘azallar mazmuni qissa mohiyatini tushunishga yordam beradi, asar mazmunini boyitish bilan birga, kishilarga estetik zavq ulashadi. Ba’zi g‘azallar qahramonning murojaati, munojoti bo‘lsa, ayrimlari qahramonning ruhiy holatini ifodalash uchun keltirilgan. Masalan, Ibrohim Adhamning o‘g‘li – Muhammad otasini izlab ketganida onasining tilidan ushbu g‘azal keltiriladi:

“Oh mani dard-u balog‘a mubtalo qilg‘on firoq,
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Taxti baxtimni buzub oxir gado qilg‘on firoq,
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Gavhari qiymatbaho erdim nasab bozorida.
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Sindirub qaddimni naylakim baho qilg‘on firoq,
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Bulbuli shirin navodek maskanim erdi chaman,
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Sag‘irdek vayronalar ichra ado qilg‘on firoq,
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Man zaif bechoranikim doimo fursat bilan,
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Kuydurub xokistarimni zeri poy qilg‘on firoq,
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Tovusi xurram edim to‘tiyolarg‘a hamnishin.
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
Voy netaykim, zog‘i zag‘ang‘a oshno qilg‘on firoq.
-v-- / -v--/ -v--/ -v-
[4: 104]

G‘azal aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Unda tanosib (dard, balo, firoq), tashbeh (bulbuli navodek, tovusi xurram) kabi badiiy san’atlar qo‘llanilgan. Bu Huvaydoning o‘ziga xos poetik mahoratidir.

Qissadagi qolgan 4 ta g‘azal ham shu vaznda yozilgan. “Ibrohim Adham” qissasi masnaviy shaklda bo‘lib, qofiyalanishi: a-a, b-b, v-v, g-g, d-d….

Ushbu qissa muallif tilidan bayon qilingan. Qissada o‘sha davr asarlariga xos: Alloh nomi bilan boshlash, oyatlarni aytish, qur’oniy sujetlarni kiritish kabi xususiyatlar o‘z aksini topgan. Ibrohim Adham haqida “sayyor” sujetlar Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasining paydo bo‘lishiga zamin hozirlagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tariximizda yorqin siymolar xalq tomonidan ideallashtirilgan. Ularning faoliyati, ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni bo‘rttirilgan. Shu tariqa obyektiv voqelik badiiylasha borib, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini yorituvchi “badiiy-biografik qissa” janri yuzaga kelgan.

Huvaydoning “Ibrohim Adham” qissasida Ibrohim Adham tarixiy shaxs sifatida badiiy talqin qilingan. Ibrohim Adhamning hayot yo‘li, u bilan bog‘liq voqea-hodisalarning asosiy qismi tarixiylik asosida yaratilgan bo‘lib, xayoliy va hayotiy to‘qimalar, rivoyatlar orqali namoyon bo‘lgan. Qissadagi qahramonlarning badiiy tasviri (tashqi qiyofasi, fe’l-atvori) bilan tarixiy haqiqat o‘rtasida uyg‘unlik bor. Ibrohim Adham haqidagi rivoyatlarda olg‘a suriladigan asosiy g‘oyalar kamtarona hayot kechirish, rahmdil bo‘lish, nafsga azob berish orqali ruhiy pokizalikka erishish, bu dunyoda hech bir kishiga, hatto jonivorlarga ham azob bermaslikka undash kabilardir. Demak, bu qissaning asosiy bosh g‘oyasi – komil inson masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldosheva S. Badiiy biografik qissalar poetikasi. (“Qissasi Ibrohim Adham”, “Qissasi Sayid Nasimiy”, “Qissasi Mashrab” asarlari asosida): Filol.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2012.
2. Бертельс Е. Э. Суфизм и суфийская литература. Избранные труды. – Москва: Наука, 1965.
3. Yo‘ldosheva S. Shohning faqirlik falsafasi. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1998, 25-dekabr.
4. Huvaydo X. Rohati dil. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
5. Abdullayev A. Tasavvuf va uning namoyandalari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

Manzura MO'MINOVA,
Andijon shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi

ABDULLA ORIPOV IJODIDA IJTIMOIY MAVZULAR TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada adabiyotning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy ong sohalaridan biri ekanligi haqida fikr yuritiladi. Ijtimoiy ong shoir lirikasining bosh mavzusi sifatida e'tirof etiladi. Lirik asar uchun jamiyat va ijtimoiy muhit mafkurasi ijod obyekti bo'lib xizmat qilishi va badiiy g'oya omma tafakkurining boyishiga ko'maklashadigan kuch ekani ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada Abdulla Oripov lirikasining kompozitsiyasiga xos xususiyatlar o'rganilgan. Nazariy qarashlar asosida ilmiy xulosalarga kelingan.*

Kalit so'zlar: *adabiyot va jamiyat, ijtimoiy ong, mavzu, ijod materiali, lirik asar kompozitsiyasi: asosiy va ramka unsurlari, shoirning maqsad va vazifalari.*

Annotation. *This article is about the social nature of literature, and its being one of the spheres of social consciousness. Social consciousness is recognized as the main theme of the poet's lyrics. It is emphasized that the ideology of society and social environment serves as a creative material for a lyrical work, and that the artistic idea is the main force that helps to develop public thinking. The characteristics of the composition of Abdulla Oripov's lyrics have been studied. Scientific conclusions were reached based on theoretical views.*

Keywords: *literature and society, social consciousness, theme, creative material, composition of a lyrical work: main and frame elements, poet's aims and tasks.*

Аннотация. *Данная статья посвящена социальной природе литературы, сфере ее общественного сознания. Общественное сознание трактуется как основная тема лирики поэта. Анализируется, что идеология общества и социальная среда служат творческим материалом для лирического произведения, а художественная идея – основной силой, способствующей развитию общественного мышления. Изучены особенности композиции лирики Абдуллы Орипова. Научные выводы были сделаны на основе теоретических представлений.*

Ключевые слова: *литература и общество, общественное сознание, тема, творческий материал, лирическая композиция: основные и каркасные элементы, цель и задача поэта.*

Barcha zamonlarda millat va davlat hayotidagi muhim o'zgarishlarni qalamga olishni, xalqni maqsadlar sari chorlashni ijod ahli zimmasiga olgan va buni sharafli burch deb bilgan. Chunonchi, atoqli shoir Abdulla Oripov lirikasining millat va jamiyat hayotidagi o'rni ham shu qadriyatlar bilan belgilanadi. Adabiyotshunos olim Abdurahim Erkayev "Abdulla Oripov fenomeni" maqolasida ta'kidlaganidek, "Vatan, xalq, inson erki, ravnaqi, iqboli Abdulla Oripov ijodining bosh mavzularidir" [1]. Haqiqatan ham, shoir ijodida ijtimoiy hayot asosiy mavzulardan biri sanaladi. Zero, ijod kishisining kayfiyati davr kayfiyati bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot boshqa ko'plab sohalar qatorida ijtimoiy ong sohasidir. Adabiyotshunos D.Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" kitobida aynan adabiyotning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligini ta'kidlab yozadi: "Ijtimoiy ong deganda kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida o'sha jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lgan borliq (olam, odam, jamiyat) haqidagi bilimlar, tasavvurlarning jami tushuniladi" [2: 50]. Darhaqiqat, davr mafkurasi qaysi tomonga yo'nalsa, ijod materiali uchun ham shu mafkura asos bo'ladi. Ijodkor omma kayfiyatini ilg'aydi, tasavvur qiladi, mushohada yuritadi, munosabat bildiradi, tasvirlaydi. Bu jarayon shoir shaxsiyati, xarakteri bilan ham bog'liq.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrning yetakchi faylasuflaridan biri, jurnalist Y.Xabermas maqolalaridan birida: "Zamonaviy ijtimoiy tasavvurning shakllanishida adabiyot asosiy o'rin tutadi" [3], deb yozgandi. Haqiqatan ham, adabiy asar va unda ifodalangan g'oya yashovchan va ommabop bo'lib, o'z muxlisini topishi muqarrar. Abdulla Oripovning "Hayot saboqlari" sarlavhali she'ri:



"Qanday soz, avlodlar o'ynasa-kulsa,
Sen ham tabrik aytsang qutlab basma-bas".

misralari bilan boshlanadi. She'r noan'anaviy tarzda, ya'ni dastlabki misralardayoq tugal xulosa bilan boshlanadi. Buning sababi keyingi misralardan ayon bo'ladi: o'tmish ajdodlarimizga xos fazilatlar sanaladi, ularning erkin va ozod hayot qurishni orzu qilganlari, hattoki cherik tortib tinchlik uchun jangga kirishgani g'urur bilan aytiladi. Anglashiladiki, she'rda moziyda hukm surgan ijtimoiy ong ijod materiali sifatida xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida shonli tariximiz, tarixiy siymolarimizni ulug‘lashga ma’naviy ehtiyoj paydo bo‘ldi. Buni ham ijtimoiy ong taqozo etdi. She’rning quyidagi bandida zamon bilan hamnafaslik yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Bugun men ko‘z tashlab asriy ko‘zguga
Dildan quvongayman – yuksaldi shonim.
Erishdim Hurriyat degan orzuga,
Qaddini rostladi O‘zbekistonim [4: 7].

Shoir o‘zini jamiyatning asosiy uzvi deb biladi, Vatan ozodligi yo‘lida kurashuvchi, faol ijtimoiy shaxs sifatida o‘zini namoyon etadi. O‘zlikni ifoda usulining asosi, deb biladi. Lirik qahramonning iftixor tuyg‘usi bevosita o‘quvchiga yuqadi, u mutolaa jarayonida she’rni o‘ziniki qilib oladi, o‘ziniki deb anglaydi.

Lirik asar kompozitsiyasidagi asosiy badiiy vositalar she’r mazmunini va shakliy originalligini ta’minlashga: hissiy ta’sirni oshirish, lirik qahramon kechinmalarini yorqin tasvirlashga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan bandda olis o‘tmishga nigohini qaratayotgan lirik qahramon qiyofasi gavdalanadi. U yashab o‘tgan hayotidan ko‘nikma va saboqlar olgan shaxs obrazi. Zotan, olis o‘tmishga boqayotgan kishi ma’lum bir davr farzandi. She’r 2013-yil 4-oktabrda yozilgani qayd etilgan. Xalqimiz ong-u shuurida mana shu sana bilan bog‘liq xotirot yashaydi. Demak, shoir mana shu nuqtadan turib hurriyat, erkinlik haqida so‘zlashga, qalb kechinmalarini yetkazishga intiladi. Ajdodlarining orzu-umidlari ushalganini baralla kuylashni afzal biladi. Shoir o‘z tarjimayi holida shunday yozadi: “…yozuvchining oddiy tarixnavis, yilnomachidan farqi bor. U ko‘proq o‘z muayyan g‘oyalariga mos keluvchi mavzularni izlaydi” [5]. Shoir o‘zining aqidalariga mos g‘oyalarni izlagan va topgan. U faqat o‘z kechinmalarini emas, balki millat va davlat ahamiyatiga molik mavzularni, g‘oyalarni ifodalaydi. Bu esa, shubhasiz, adabiyotning ijtimoiy xarakteri bilan bog‘liq. “Odat” sarlavhali she’rida shoir yozadi:

Unutilmas ba’zi bir odat,
Vaqt agarchi yelaveradi.
Qayda haykal ko‘rinsa, albat,
Gullar qo‘ygim kelaveradi [4: 44].

Bugun ham ulug‘ ajdodlarga haykallar tiklash, ularning shaxsini ulug‘lash maqsadida yodgorliklar poyiga gullar qo‘yish an’anasi bardavom. E’tiborli tomoni shundaki, she’rda qadim tarixga boqayotgan lirik qahramon qiyofasi bor, uning ijtimoiy muhitdan minnatdorlik tuyg‘usi ifodalangan. “Hayot saboqlari”da ham, “Odat”da ham asriy ko‘zguga boqayotgan inson gavdalanadi. U moziy sarhadlarida ajdodlari ardoqlagan, muqaddas deb bilgan qadriyatlarni ko‘rmoqda. “Hayot saboqlari”da ajdodlarning erk va ozodlikka tashnaliklari va davrlar osha ajdodlar orzusiga avlodlar erishganidan baxtiyorlik tuyg‘usi ifodalangan. “Hayot saboqlari”da *shonim, O‘zbekistonim* qad rostladi, deb sevinayotgan shoir “Odat”da shu sevinchning ishorasi o‘laroq bobolar haykallari poyiga gul qo‘yishni burch, deb biladi va bundan mamnunlik his etadi. Demak, ijtimoiy ong ko‘rinishi bir-birini taqozo etmoqda, to‘ldirmoqda.

Barcha davrlarda ijtimoiy ong, jamiyat hayotidagi muhim o‘zgarishlar, muammolar ijod materiali bo‘lib qolaveradi. Adabiyot uchun ijtimoiy hayot masalalari ustuvor mavzulardan biri hisoblanadi. Shvetsiyaning Lund universiteti tadqiqotchilari T.Forslid va A.Ohlsson-ning “Adabiyot va jamiyat” maqolasida shunday fikr aytiladi: “Adabiyot har doim o‘z o‘quvchilari va tinglovchilariga, siyosatchilar va qonun chiqaruvchi insonlarga ta’sir ko‘rsatgan, ularni harakatlantirgan, himoyaga chaqirgan” [6: 431]. Ushbu fikr o‘rinli, albatta. Zero, barcha zamonlarda adabiyotning eng muhim va asosiy materiali ijtimoiy ong, davr mafkurasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Erkayev A. Abdulla Oripov fenomeni. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdurahim-erkaev-abdulla-oripov-fenomeni.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Boucher G. Habermas and Literature: The Public Sphere and the Social Imaginary. – London: Bloomsbury Academic, 2021.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. VIII jild – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016.
5. Oripov A. O‘z haqimda bir og‘iz so‘z. http://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/abdulla-akaning-tarjimai-holi.
6. Torbjorn Forslid and Anders Ohlsson. Introduction: Literary Public Spheres // Journal of current Cultural Research, Culture Unbound, Volume 2, 2010.

Sarvinoz ABDUSHARIFOVA,
Urganch davlat universiteti talabasi

OMON MATJON SHE’RIYATIDA TALMEH

Har qanday shoir ijod jarayonida turli she’riy san’atlardan foydalanib, o‘zining estetik idealini ifodalaydi. She’riy san’atlar asarning ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Omon Matjon she’riyati misolida kuzatmoqchi bo‘lganimiz – talmeh san’ati ham ana shunday badiiy vositalardan biri. Talmeh she’riy san’ati nafaqat mumtoz adabiyotda, shu jumladan, zamonaviy poeziyada ham keng qo‘llanib kelinayotir.

Talmeh (arabchada: “chaqmoq chaqishi”; “ko‘z qirini tashlash”, “nazar solmoq”) orqali she’rda



mashhur shaxslar, tarixiy voqealar, badiiy asarlarga ishora qilinadi. Talmeh shoirga ko‘zda tutgan fikrni aytish, holatni batafsil tasvirlash zaruratidan xalos etib, ko‘zlangan natijaga o‘sha fikr yoki holatga mos boshqa biror hayotiy yoki badiiy faktga ishora qilish bilanoq erishish imkonini beradi. Talmehni qo‘llab oz so‘z bilan teran ma’noni ifodalash mumkin bo‘ladi. Zero, talmeh qo‘llangan bayt mazmuniga ishora qilinayotgan tarixiy voqea yoki badiiy asar nomini keltirish, ular bilan bog‘liq biror iborani tilga olish orqali ochiq yoki yashirin tarzda amalga oshirilishi mumkin [1: 306].

Omon Matjon qalamiga mansub quyidagi misralarda talmeh she’riy san’ati qo‘llangan:

So‘z ochsang, jarrohlar bekitdi tig‘ni,
Jonning bu malhami Luqmondan emas [2: 14].

O‘zbek go‘zallariga bag‘ishlangan ushbu she’rda Luqmon tarixiy ismini qo‘llash orqali talmeh she’riy san’ati yuzaga kelgan. Ishbu misralarda Luqmon obrazi orqali o‘zbek qizlarining qanchalik zakiy, shirinso‘z, har qanday dardga malham bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Luqmoni Hakim haqida ushbu hikoyat keltirilgan: “Luqmon Dovud yalavoch vaqtinda erdi. Uzun tishlik bir habashiy qul erdi. Ul ming besh yuz yashadi. Aymishlar, bir yo‘nuvchining quli erdi. Xojasi ozod qildi. Aymishlar, o‘zi yo‘nuvchi erdi. Aymishlar, Mavlo taolo anga ikki farishta izdi, kun o‘rta vaqtida. Aydilar: “Ey Luqmon, tilasang senga yalavochlik beraling, tilasang hikmat beraling”. Luqmon aydi: “Manga hikmat kerak. Hikmat ma’nisi kuni pishig‘ ishlik bo‘lur”. Yana so‘rdilar: “Yalavochlikg‘a nechuk unamading?”. Aydi: “Og‘ir yuk turur”. Mavlo taolo hikmat birla, ul chog‘lig‘ hikmat birla ul chog‘lig‘ hikmat bayon qildikim, qamug‘ yalavochlar anga muhtoj bo‘ldilar.

Aymishlar, bir kun o‘lturub xaloyiqg‘a o‘gut berur erdi. Bani Isroildin biragu telim xaloyiq ko‘rdi. Ularg‘a bordilar. Luqmonni ko‘rdi, o‘gut berur. Ortindin kelib, bo‘ynin tutib qisti. “Luqmon senmusen!” tedi. Aydi: “Bale”. Aydi: “Bu maqomga neding tegding?”. Luqmon aydi: “Ko‘ni so‘zlar birla amonatni o‘tadim, haqg‘a yaramasni qo‘ydum – bu maqomg‘a tegdim”.

Hikoyatga kelmish, bir kun xojasi Luqmonni bug‘doy ekkali izdi. Luqmon borib arpa ekti. Xojasi aydi: “Arpa eksa bug‘doy unmasmu?”. Xojasi aydi: “Unmas”. Luqmon aydi: “Andag‘ bo‘lsa sen ham yomonliq ekib yaxshiliq umid etmagil” [3: 74].

Quyidagi misralarda shoir talmeh vositasida o‘quvchi ko‘z o‘ngida tarixni gavdalantiradi:

Biz tig‘ qadar chekindik – Ulug‘bekday
cheksiz ong –
Mijjamizda yulduzni asramoq qayg‘usida.
Oftobdan atomlar qadar chekindik nogoh,
Mariya qiz kaftida tong topay deb osuda [5:15].

Omon Matjonning millatni olg‘a da’vat etib yozgan “Bir qadam olg‘a” she’ridan olingan ushbu parchada shoh va olim Mirzo Ulug‘bek hamda Iso alayhissalomning onasi Mariya ismlari keltirilib, ular bilan bog‘liq voqealarga ishora etish orqali talmeh san’ati yuzaga kelgan.

Shoirning quyidagi she’rida ham o‘zbek xalq dostoni qahramonlari Alpomish va Avaz nomlari keltirilib, talmeh san’ati qo‘llanilgan:

Bugun yuz yil osha kelarkan sassing,
Deyman, mangulikka tushipti basing,
Turg‘az Alpomishing, turg‘az Avazing,
Yurtim deganni shu tuproqda qoldir,
Soxta polvonlarni firoqda qoldir [5: 19].

“Paxtamiz xususida nutq” she’ridan olingan quyidagi parchada ham Tohir obrazini qo‘llab, shoir talmeh san’atini namoyon etgan:

Garchi har yil ekib, har yil teramiz,
Garchi har bir chigit qalbga zohirday –
Ilk chanoq ochilsa, yayrab ketamiz
Sandiqdan yoruqqa chiqqan Tohirday [5: 24].

She’rda Tohir obrazi vositasida paxtaning yurtimizda qadrli milliy boylik ekanligi ta’kidlangan. Garchi paxta har yili ekilib, har yili terilsa-da, ilk paxta ochilgan damdan odamlar xuddi uch oy sandiqda qorong‘ulikda yotib, yorug‘ni ko‘rgan Tohirday behad sevinadilar. Shu she’rdan olingan quyidagi bandda Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” asari nomi keltirilgan:

Besh degan so‘z asli hikmat yong‘og‘i,
Besh yulduz, besh qit’a, besh panja, “Xamsa”,
Ne so‘z, paxtamizning beshband chanog‘i
Shu buyuk timsollar safida yonsa! [5: 25]

Omon Matjon “besh” so‘zi zamirida katta hikmat mujassamligini ta’kidlab, besh yulduz, besh qit’a, besh panja kabi “Xamsa” ham besh dostondan iborat ekanini aytib, shu buyuk timsollar qatorida besh-chanoq paxta ham bo‘lsa ajab emas, degan fikrni ilgari suradi.

Shoir qalamiga mansub “Chorlov” she’rida ham ushbu she’riy san’atga mansub o‘rinlar uchraydi:

Munis qalb xorazmiylar zehnin sayqallagan to,
Ogahiyning ishq ahlin bo‘yniga taqqan tumor,
Beism botirlar-u shoh-gadolarga mozor –
Aksini saqlay olgan ijroni ko‘rmoq bo‘lsang,
Bor Amu bo‘ylariga, borgin, do‘stginam [6: 15].

She’rda Munis, Ogahiy singari mumtoz qalam sohiblarining nomlari hamda ular yozgan asarlariga ishora qilinadiki, bunda biz talmeh san’atining ajoyib namunasini ko‘ramiz.

Hajringda oy kabi yiroqqa botdim,
Qora g‘amim bilan chiroqqa botdim.
Yig‘idan ko‘zlarim bulog‘i qurib,
Farhod teshasidek men toqqa botdim [4: 24].

Ushbu misralarda “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni qahramoni Farhod epizodi she’riy san’at – talmehni yuzaga keltirgan. She’rda lirik qahramon yor hajrida g‘amga botadi, jabr-u sitamlarga dosh berolmay yig‘layverganidan ko‘zyoshi qurib, ado bo‘ladi. Lirik qahramon o‘zining bu holatini suv chiqarish uchun tog‘ni qaziyotgan Farhod teshasiga o‘xshatadi. Ta’kidlash joizki, bu bandda qofiyadosh so‘zlardan tashqari shakldosh so‘zlar ham mavjud. Masalan, birinchi misrada qo‘llangan “botdim” so‘zi “oyning botishi” ma’nosida, ikkinchi misrada ushbu so‘z “belanmoq, ko‘milmoq” ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, bandning so‘nggi misrasida “sanchilmoq, bosib, ezib yoki yorib ichiga kirmoq” ma’nolarida qo‘llangan.

Xulosa o‘rnida aytganda, nafaqat Omon Matjon, balki boshqa shoirlar she’rlarida ham biror voqea yoki hodisani kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirish maqsadida talmeh she’riy san’ati keng qo‘llanib kelinayotir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
2. Matjon O. O‘rtamizda birgina olma. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1990.
3. Rabg‘uziy N. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
4. Matjon O. Iymon yog‘dusi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.
5. Matjon O. Yonayotgan daraxt. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.
6. Matjon O. Seni yaxshi ko‘raman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.

Zavqiyjon FAYZULLAYEV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

ASRIY TABRIZIYGA ZAMONDOSH TURKIY IJODKORLAR

Turkiy adabiyot jahon adabiyotining bir qismi sifatida asrlar osha yashab kelmoqda. Bu adabiyotning bebaho xazinasidan joy olgan badiiy asarlar esa dunyo adabiyotining gultoji bo‘lib turibdi, desak, yanglishmaymiz. Mazkur adabiyot makon nuqtayi nazaridan ham chegara bilmas qamrovga ega. Ma’lumki, jahon turkiy adabiyotiga mansub xalqlar qadimdan O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Kavkaz, Qoshg‘ar, Hindiston kabi mintaqalarda istiqomat qilishgan. Har bir hududda yashovchi aholi vakillari o‘z adabiyotiga ega bo‘lib, ular bir biridan til, uslub jihatidan ajralib turgan, ammo ularning hammasini birlashtirib turadigan jihat bor, u ham bo‘lsa, asarlarda umuminsoniy g‘oyalarning aks etishidir.

Qadimdan Eron hududi adabiyot, san’at va madaniyat taraqqiy topgan o‘lka sifatida keng tanilgan. Ayniqsa, fors diyorida kamol topgan ijodkorlarning nomi yetti iqlimda mashhur bo‘lgan. Birgina shayx Sa’diy nomi fikrimiz uchun dalil bo‘la oladi. Shu bilan birga, bu o‘lkada forslar bilan bir qatorda qardosh turkiy xalqlar ham asrlar davomida yashab kelgan. Natijada, bu xalqlarning adabiyoti hamda madaniyati orasida mushtaraklik paydo bo‘la boshlagan. Bu yurtda qalam tebratgan siymolarning asarlari faqat o‘sha hudud adabiyotida emas, balki jahon turkiy adabiyotida ham o‘chmas iz qoldirgan.

Ushbu maqolamizda XVII asrda Eron hududida yashab, ijod qilgan turkiy shoirlar haqida so‘z yuritamiz. Zotan, adabiyot makon va zamon tanlamaydi. Qadimdan bu yurtning Sheroz, Isfahon, Tabriz, Qazvin kabi shaharlari madaniyat o‘choqlari sifatida mashhur bo‘lgan. Xususan, Tabriz aholisining katta qismini turkiylar tashkil etgan. Biz quyida fikr yuritmoqchi bo‘lgan ijodkorlar turkiy adabiyot vakillari bo‘lsa-da, aksariyati zullisonaynlik an’anasini davom ettirib, fors tilida ham barakali ijod qilishgan.

Asriy Tabriziy XVII asrda qalam tebratgan eronlik turkiy shoirlardan biri bo‘lib, ba’zi manbalarda ijodkor nomi Mullo Uzriy deb ham bitilgan. Shoir haqida faqat ayrim tazkiralarda ba’zi ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Asriy Yazd shahrida ulg‘aygan, Isfahon, Tabriz shaharlarida ham istiqomat qilib, ijod bilan shug‘ullangan. Bu davrdagi turkiy ijodkorlarning ko‘pchiligi asarlarida Fuzuliy ijodiga izdoshlik sezilib turadi. Zero, Fuzuliy ijodi keyingi davr shoirlari uchun chinakam mahorat maktabiga aylangan edi. Biroq Asriy Tabriziyning o‘ziga xos g‘azalnavislik uslubi bor. U boshqalarga taqlid qilmagan, baytlarida ma’nolarning ketma-ketligi, o‘ziga xosligi kuzatiladi. Asriydan bizgacha turkiy tilda yozgan 33 ta g‘azali, Fuzuliy g‘azaliga bog‘lagan yetti banddan iborat muxammasi, 25 baytdan tashkil topgan “Pandnomayi Asriy” pandnomasi hamda bir nechta to‘rtliklari yetib kelgan. Asriy devonidan ba’zi she’rlarni saralab, 1946-yili Tehronda nashr ettirgan eronlik olim J. Mir o‘g‘li Fuzuliy g‘azaliga yozilgan muxammasiga quyidagicha izoh bergan: “Fuzuliyning bu g‘azalina XIX asr shoirlarindan Rog‘ib, Zuhuriy, Safo, Osiy, Navras, G‘ofil mushoira tariqinda musobaqa shaklinda naziralar yozildig‘i ma’lumdir…” [2].

Asriy ijodining mavzu ko‘lami keng. Shoir lirikasining asosiy mavzusi ishq bo‘lishiga qaramay, unda orifona g‘azallar ham uchraydi. Xususan, “kelmishlardaniz” radifli g‘azalida orifonalik va rindonalik uyg‘unlashgan bo‘lib, unda shoir dunyo, iymon, ishq haqidagi qarashlarini faylasufona talqin etgan:

Biz bu dunyo bazmina rindona kelmishlardaniz,
Qoilizkim, go‘shayi vayrona gelmishlardaniz.

E’tiboringizni Asriy Tabriziyga zamondosh yana bir turkiy ijodkorlarga qaratsak. Bu davrda ikki tilda ijod qilgan iste’dodli shoirlardan biri Soib Tabriziy edi. U turkiy tilda yozilgan she’rlaridan tashqari, fors tilidagi lirikasi bilan ham XVII asr Eron fors tilli adabiyotida ham o‘chmas iz qoldirgan. Soib Tabriziy shoh Abbosning buyrug‘i bilan boshqa ijodkorlar qatori Tabrizdan Isfahonga ko‘chirilgan va bu yerda yashashga majbur bo‘lgan. Biroq u o‘zining tabrizlik, ya’ni Tabriziy ekanini va bundan faxrlanishini ko‘p o‘rinda ta’kidlagan. Quyidagi baytga diqqat qilaylik:

Tuprog‘indandirsan Sa’diy Sheroziy,
Xoki pokindandir Soib Tabriziy.

Yoki:

Genj iken, Soib, go‘zal fikring sanin,
Kishvariy Tabrizni jannatga g‘arq ayladi [3: 17].

Soib, avvalo, lirik shoir, uning ijodida insonparvarlik, do‘stlik, oqibat, vafo tushunchalari ta’riflansa, ba’zi she’rlarida ilmsiz, baxil va tanbal kishilar qoralanadi. Shoir bir baytida o‘zini mazlum kabi ko‘rsatgan zolimlar aslida qandayligini aytadi:

Nargis kabi u ko‘zlarga aldanma, omondir,
Mazlum ko‘rilgan zolimning har zulmi yomondir [4: 20].

Ko‘rinib turibdiki, Soib alloma ijodkor, uning ijodida ham boshqa turkiy shoirlarda bo‘lgani kabi didaktik ruh ufurib turadi. Albatta, bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘lgan hodisa emas, chunki Fuzuliy ijodidan oziqlangan Soibda ham bu talqin aks etishi tabiiy edi. Buni Alisher Navoiy ijodining Soibga ta’siri deyishimiz ham mumkin, zotan, Fuzuliy asarlarida Navoiyni o‘zining ustozi, deb atagan.

XVII asrda yashagan mashhur olim va shoirlardan biri Sharafiddin Mirza Muhammad Majzub Tabriziyning ham forscha badiiy asarlari ilm olamiga ma’lum bo‘lsa-da, uning turkiy devoni haqida hech bir manbada ma’lumot berilmagan. Oxirgi vaqtlarda turkiy tilda yozgan devonining qo‘lyozmasi Leyden universiteti kutubxonasidan topilishini muhim bir adabiy hodisa sifatida baholash lozim. Majzubning tavallud tarixi ma’lum emas, devonining Britaniya muzeyida saqlangan bir qo‘lyozma nusxasiga havola qilingan ruboiydagi tarixdan ma’lumki, shoir 1682-yili vafot etgan. “Majzub” tasavvufiy atamadir. Eronlik olim Sayid Jafar Sajjadiy “Istilohot va ta’biroti irfoniy” kitobida bu so‘zni aniq izohlaydi: “Majzub – jazb bo‘lmoq demakdir... Alloh uni o‘zi uchun tanlagan va muqaddas suv bilan pok etgan. Bu kabi shaxs azob va zahmatsiz yuksak martaba va maqomga yetadi”. Majzub Tabriziyning qo‘limizdagi forsiy va turkiy devonlari uning har ikki tilda mohir so‘z ustasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Forsiy yoki turkiy g‘azallarini o‘qishimiz bilan ularning ravon, sertuyg‘u va ta’sirli ekanini anglaymiz. Shoirning Tabrizga bag‘ishlab yozgan g‘azali uning tug‘ilgan yurtiga yuksak ehtiromini ko‘rsatadi:

Soqiy, Tabrizning sof sharobini ber,
Chunki Tabriz suvining o‘zgacha ta’siri bor [3: 23].

Yurtni sevish, xalqni ardoqlash, xotiralarga muhabbat va sadoqat kabi tushunchalar biz turkiylar uchun azaliy qadriyat darajasiga yetgan fazilatlardir. Shu sababli bo‘lsa kerak, ijodkorlar o‘z asarlarida bu mavzuga alohida urg‘u berishgan, zamondoshlarini shunga da’vat etishgan. Maqolamiz avvalida so‘z yuritganimiz Asriy Tabriziy ijodida ham buni kuzatish mumkin:

Na shirin so‘zlu shoirlar yetishdirmish bu yer, Asriy!
Gelib Tabrez tavofin qil, hala Sherozdin voz kech.

Xulosa o‘rnida aytsak, XVII asr turkiyzabon adabiyot vakillari ijodi tadqiq va tahlilni taqozo etadi. Chunki bu davrda, ayniqsa, o‘zga o‘lkada yashab ijod qilgan dunyo turkiyzabon adabiyoti vakillari, fikrimizcha, yetarli darajada o‘rganilmagan. Holbuki, bu adabiyot vakillarining ham adabiyotimiz xazinasini boyitishi mumkin bo‘lgan nodir meroslari mavjud. Shu sababli ularni qidirish, topish, tahlil va tadqiq etish bugungi davr adabiyotimizning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayzullayev Z. Erondagi turkiy adabiy muhit va Asriy Tabriziy. // Til va adabiyot ta’limi. 2023, №11, – B. 6.
2. Asriy “Devon”idan sahifalar (g‘azallar). Nashrga tayyorlovchi J. Mir o‘g‘li. Birinchi nashr. – Tehron: Chamanoro, 1946.
3. XVII əsr Azərbaycan lirikası (Antologiya). – Bakı: Nurlan, 2008.
4. Saib Təbrizi. Seçilmiş əsərləri. – Bakı: Öndər nəşriyyat, 2004.
5. Kərimov P. XVII əsr anadilli Azərbaycan poeziyası. – Bakı: Nurlan, 2012.



Umid XODJAMQULOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish, ularda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda CLIL texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *CLIL texnologiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, kreativlik, kollaboratsiya, tanqidiy fikrlash, tabaqalashtirilgan o'qitish, raqamli vositalar, hamkorlikda o'qish, XXI asr talablari, sifatli ta'lim metodikasi.*

Annotation. *This article discusses the advantages of using the CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology for teaching future educators based on modern approaches.*

Keywords: *CLIL technology, communicative skills, creativity, collaboration, critical thinking, differential teaching, digital tools, cooperative learning, 21st-century demands, quality education methodology.*

Аннотация. *В статье рассматриваются преимущества использования технологии CLIL при обучении будущих педагогов на основе современных подходов и формирование у них коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *Технология CLIL, коммуникативные навыки, креативность, коллаборация, критическое мышление, дифференцированное обучение, цифровые инструменты, совместное обучение, требования XXI века, методика качественного образования.*

PISA baholash dasturi haqida ma'lumot. PISA (Programme for International Student Assessment) – xalqaro baholash dasturi bo'lib, u har uch yilda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan o'tkaziladi. Bu baholash dasturining asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning turli sohalardagi bilimlari, xususan, matnli axborotni tushunish va uni real hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini baholashdir. Aksariyat davlatlarda bu yoshdagi o'quvchilar o'rta ta'limni yakunlash arafasida bo'ladi va PISA ularning kelajakda jamiyat va ish jarayoniga qanchalik tayyor ekanini aniqlaydi [1: 87].

PISA baholash dasturi matnli axborotlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish va qo'llash bilan bog'liq o'qish savodxonligi, shuningdek, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilimini baholaydi. Bu baholash dasturi nafaqat ta'lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlashga, balki sohadagi islohotlarni rejalashtirishga ham yordam beradi. Mamlakatimizning ushbu baholash dasturida ilk bor ishtiroki umumiy o'rta ta'limdagi mavjud holat, ta'lim mazmuni va unga qo'yilayotgan talablar, o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini xalqaro mezonlarga ko'ra baholash bilan bog'liq muhim xulosalar chiqarish imkonini yaratdi. Natijalar ko'plab sohalarda yaxshi tomonga o'zgarish qilish zarurligini ko'rsatdi, jumladan, o'qish savodxonligini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

O'qish savodxonligi nima va uning qanday ahamiyati bor? O'qish savodxonligi – insonning matnli axborotni tushunish, tahlil qilish va mazmunidan foydalanish qobiliyati bo'lib, nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. O'qish savodxonligi yuqori bo'lgan shaxslar axborotni to'g'ri va aniq tushunib, uni ishlash jarayonida samarali qo'llay oladi. Bu ko'nikma faqat maktabga xos emas, butun umr davomida rivojlanishi mumkin va zarur.

PISA dasturi bo'yicha o'quvchilar savodxonligini baholash mezonlari. PISA baholash dasturi doirasida o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash uchta asosiy mezonga asoslanadi: *tushunish, tahlil qilish va axborotni qo'llash qobiliyati.* O'quvchilarning bu mezonlar bo'yicha savodxonligi nafaqat matnni tushunib o'qish, balki uni tahlil qilish va turli hayotiy vaziyatlarda undan foydalana olish qobiliyatini baholash uchun muhim [3].

1. Tushunish. Bu mezon o'quvchining matnni qanday tushunayotganini baholaydi. Mazkur jarayonda o'quvchilardan turli matnlarni o'qib, uning asosiy g'oyasi va undagi muhim axborotni tushunish, shuningdek, ularni sharhlash ham talab etiladi. PISA baholash dasturida tushunish darajasi faqat birgalikdagi ma'lumotlarni yodlash emas, balki ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunib, ularni hayotdagi voqealar bilan bog'lay olish ko'nikmasini ham o'lchovchi vosita sifatida foydalaniladi.

2. Tahlil qilish. O'quvchilarning matndagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni turli nuqtayi nazar bilan taqqoslash va axborotning ishonchliligi yoki mantiqiyligini baholash qobiliyatini o'lchaydi. Matnda keltirilgan faktlar va fikrlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunib yetish ularni o'quvchilar tomonidan tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qobiliyat nafaqat ta'lim jarayonida, balki hayotning boshqa sohalarida ham muhim hisoblanadi. Axborot manbalarini tahlil qilish va undan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyati o'quvchilar uchun juda muhim kompetensiya hisoblanadi.

3. Qo'llash. PISA xalqaro baholash dasturining asosiy vazifalaridan biri maktabda olingan bilimlarni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat, ya'ni o'quvchi bilimlariga tayana olishi lozim. Bu mezonni baholash jarayonida PISA dasturi turli kontekstdagi savollar yordamida o'quvchilarning bilimini kundalik hayotda qo'llash qobiliyatini tekshiradi. Masalan, turmushda paydo bo'ladigan muammolarni hal qilishda turli axborot manbalaridan foydalanish va uning samaradorligini tekshirish orqali o'quvchining qo'llash qobiliyati baholanadi [2: 49]. Ushbu mezonlar nafaqat ta'lim tizimida o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'lchashga yordam beradi, balki ularning kelajakdagi hayot va kasbiy faoliyatiga tayyorligini ham ko'rsatadi.

O'qish savodxonligini oshirish bo'yicha metodikalar. Bunda turli usulni qo'llash mumkin bo'lib, ularning maqsadi o'quvchilarda o'qishga qiziqish uyg'otish, matnli axborotni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Quyida shularning ayrimlari haqida kengroq ma'lumot beramiz.

Faol o'qish usullari. Faol o'qish – o'quvchilarni matnli axborot bilan jonli va to'g'ridan to'g'ri muloqot qilishga yo'naltiruvchi metod. Bu jarayonda ular faqatgina matnni o'qish bilan cheklanmaydi, balki uning mazmunini tushunish va chuqur tahlilga harakat qiladi. O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va ularning mulohaza yuritish qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu metodikani qo'llashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

• **savollar bilan ishlash.** O'quvchilar matnni o'qish jarayonida undan turli savollar tug'dira olishlari kerak. Masalan, matnda keltirilgan faktlar va fikrlar o'rtasida qanday bog'liqliklar bor? Berilgan ma'lumotlar asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin? Bunday savollar o'quvchilarning fikrlashini chuqurlashtiradi va ularni tahlil qilishga yo'naltiradi;

• **ma'lumotlarni sarhisob qilish.** Faol o'qish jarayonida o'quvchilar matndan olingan asosiy g'oya va xulosalarni yozib boradi. Bu jarayon ularga axborotni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Matndagi muhim nuqtalarni belgilab qo'yish yoki taqqoslash orqali o'quvchilar matnning umumiy mazmunini yaxshiroq anglaydi;

• **qisqa muhokamalarni tashkil etish.** O'quvchilar o'qib chiqqan matnlar bo'yicha qisqa muhokamalar tashkil qilib, fikr va tushunchalarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin. Bu usul orqali ular o'zaro fikr almashadi va matnni tushunish qobiliyati yaxshilanadi. Bunday muhokamalar o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga undaydi, ularning mulohazalarini chuqurlashtiradi.

Matn bilan ishlash. O'quvchilar o'qish savodxonligini oshirishning yana bir samarali usuli – ularni turli matn bilan ishlashga yo'naltirish. Bu jarayonda ular har xil janrdagi matnlarni o'qish orqali o'z ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin [7: 267]. Har bir matn turi o'quvchilarning o'qish savodxonligini ko'p jihatdan oshirishga yordam beradi. Masalan:

• **hikoyalar.** Qisqa hikoya yordamida o'quvchilarning tushunish va taxmin qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bunda hikoyani o'qish jarayonida asosiy personajlarning harakatini tushunib, kelgusi harakatlarini taxmin qiladi;

• **esselar.** Esse yozish o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash va ularni aniqlashtirishga undaydi. Esse yordamida o'quvchilar o'qib tushungan ma'lumotlar asosida o'zlarining mustaqil fikrlarini bayon qilishga o'rganadi;

• **maqola va ilmiy matnlar.** Ilmiy maqola va boshqa tahliliy matnlar bilan ishlash o'quvchilarning tahlil qilish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy matnlar o'quvchilardan chuqur tahlil qilish va matndagi ma'lumotlarni boshqa axborot manbalari bilan taqqoslashni talab etadi. Bu o'quvchilarda faktlar va ularning asosliligini baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Interfaol yondashuvlar. O'quvchilarni o'qish jarayonida faol ishtirok ettirish va ularni o'zaro hamkorlikka jalb qilish ularning o'qish savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interfaol usullar orqali o'quvchilar o'zaro munozaraga kirishadi, o'zidagi tushunchalarni boshqalar bilan bo'lishadi va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi [6: 4]. Bu usul jamiyatdagi ishlash ko'nikmalari va faol muloqotga tayyor bo'lishni ta'minlaydi.

Ushbu metodni quyidagi shaklda tashkil qilish mumkin:

• **guruhli muhokamalar.** O'quvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish va yangi bilimlarni muhokama qilishning samarali usuli. Bunda o'quvchilar bir-birining fikrini eshitish orqali o'z mulohazalarini rivojlantiradi va ularni tahlil qilishga yo'naltiradi.

• **debatlar** o'quvchilarning nuqtayi nazarlar bilan ishlash va ularni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Bunda u o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi, boshqalarning fikrini tushunib, baholashga harakat qiladi.

• **o'yin shaklidagi mashg'ulotlar.** Interfaol o'yinlar orqali o'quvchilar o'qish jarayonini qiziqarli va jonli qilib o'tkazishlari mumkin. Bunday mashg'ulotlar ularning diqqatini oshirish, matnli axborotni tez va aniq tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Texnologiyalarning o'qish savodxonligini oshirishdagi roli. O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda nafaqat to'g'ri tanlangan metodikalar orqali, balki ta'lim vositalari asosida ham samaradorlikka erishish mumkin. Jumladan, dars mashg'ulotida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Elektron kitoblar, audiokitoblar, onlayn ta'lim platformalari va boshqa interfaol vositalar orqali o'quvchilar o'qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilib tashkil qilishi mumkin. Texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarga zamonaviy axborotga tez va oson kirish imkonini beradi. Bu esa ularning o'qish savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Quyida ta'limning ayrim zamonaviy texnologiyalarining afzalliklarini ko'rib chiqamiz:

1. Elektron kitoblar. Ularni istalgan vaqtda va joyda o'qish mumkin, foydalanish jarayoni tez va qulay, o'quvchilarda ko'proq axborot olish imkoniyati mavjud.

2. Audiokitoblar – o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular axborotni eshitish orqali tushunish va chuqur tahlil qilishga ko'maklashadi. O'quvchilarga har qanday sharoitda, hatto sayohatlar yoki sport bilan shug'ullanish jarayonida ham matnli axborotni qabul qilish imkonini beradi, o'quvchilarning axborotni tushunish va yodda saqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Ta'lim platformalari. Zamonaviy ta'lim platformalari, masalan, Coursera, Khan Academy, edX kabi onlayn resurslar o'quvchilarga turli xil fanlar bo'yicha bilim olish imkonini beradi. Bu platformalar interfaol darslar va videolar orqali o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish, ularning tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixologik yondashuvlar va motivatsiya. O'quvchilarni o'qishga rag'batlantirish va qiziqtirish jarayonida psixologik yondashuvlar va motivatsiya ham muhim rol o'ynaydi. Motivatsiyaning to'g'ri shakllantirilishi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi, ularning diqqatini oshiradi va bilim olish jarayonida ko'proq samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Quyida o'quvchilarni o'qishga rag'batlantirish bo'yicha turli psixologik yondashuvlar va motivatsiya usullariga to'xtalib o'tamiz:

1. Rivojlantiruvchi motivatsiya. O'quvchilarni o'qishga qiziqtirish va ularning darsga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda motivatsiyaning rivojlantiruvchi turlari muhim o'rin tutadi. Motivatsiya jarayonida erishilgan muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish, o'quvchilarga o'z yutuqlarini baholash imkoniyatini berish ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu usulda o'quvchilar natijalarini yaxshilashga intiladi va bu ularning ma'naviy o'sishiga ham yordam beradi.

A) Rivojlantiruvchi maqtovlar va e'tiroflar. O'quvchilarning faol ishtirokini maqtash va ularning yutuqlarini ta'kidlash orqali ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu jarayonda har bir o'quvchining shaxsiy yutuqlariga e'tibor qaratish va ularni boshqalar bilan taqqoslamasdan, shaxsan uning o'z kamoloti bilan baholash muhimdir. Bu yondashuv o'quvchilarga bilimlarini yaxshilashga undaydi va ularning o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

B) Muvaffaqiyatli natijalarni rag'batlantirish. O'quvchilarga o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun turli rag'batlantirish vositalarini taqdim qilish ham ularni faol o'qishga undaydi. Bunday vositalar turli shaklda bo'lishi mumkin: maktabdagi mukofot, kichik sovg'a yoki maxsus faxriy unvonlar. O'quvchilarga o'qishda muvaffaqiyatga erishish uchun qo'shimcha rag'bat berish ularni yanada katta maqsadlarga intilishiga yordam beradi.

2. Individual yondashuv. Har bir o'quvchi o'z xususiyati, qobiliyati va qiziqishlariga ega. Shuning uchun psixologik yondashuvlardan foydalanishda individual yondashuvning ahamiyati katta. O'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, ularning o'quv jarayoniga moslashtirilgan dastur va usullar bilan yondashish samaradorlikni oshiradi.

A) Shaxsiy o'quv rejalarini ishlab chiqish. Har bir o'quvchining o'ziga xos o'quv tempi va o'zlashtirish darajasi bor. Shunday ekan, o'quvchilarning bilimini rivojlantirish uchun ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiy o'quv rejalarini ishlab chiqish kerak [10]. Bu usul orqali ular o'zlarining o'ziga xos usulida bilim olishlari va o'z qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Masalan, ayrim o'quvchilar vizual materiallar orqali ma'lumotni yaxshiroq o'zlashtiradi, boshqalar esa audio yoki o'yin shaklidagi materiallar orqali yaxshi o'rganishadi.

B) O'quvchilarning qiziqishlariga mos yondashuv. Har bir o'quvchining o'ziga xos qiziqishlari bor. Masalan, kimdir sportga qiziqsa, boshqa bir o'quvchi texnika yoki san'atga qiziqadi. O'quvchilarni o'qishga rag'batlantirishda shaxsiy qiziqishlariga moslashgan material va topshiriqlar berish muhim. Deylik, sportga qiziqqan o'quvchi uchun sportga oid matnlarni o'qitish yoki texnik fanlarga qiziqqan o'quvchilar uchun texnologiyalar haqidagi maqolalarni topshirish ularning o'qish savodxonligini oshirishda yordam beradi. Qiziqishlarga muvofiq materiallar tanlash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini saqlab qoladi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

3. Maqsadli motivatsiya. O'quvchilarni o'qishga qiziqtirishning yana bir usuli ularga maqsadli motivatsiya berishdir. Bu yondashuv orqali ular o'z kelajagi uchun bilim olish muhimligini tushunishlari mumkin. Orttirilgan bilimlar ularga qanday foydali bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot berish va oldilariga aniq maqsadlar qo'yish o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

A) Ta'lim olishning manfaatlarini tushuntirish. O'quvchilarga bilim olishning hayotdagi ahamiyatini tushuntirish va kelajakda qanday natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatish ularning o'qishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkin. Masalan, o'qish orqali yaxshi kasb egallash, muvaffaqiyatga erishish va kelajakdagi hayotini yaxshilash mumkinligi haqida ma'lumot berish ularning o'qishga qiziqishini oshiradi [8: 92]. O'quvchilar o'zlariga qo'yilgan aniq maqsadlar asosida ishlashni o'rganadilar va bu ularning motivatsiyasini saqlab turishga yordam beradi.

B) Maqsadlarni aniq belgilash. O'quvchilarning o'qishdagi motivatsiyasini oshirish uchun ularga aniq va bosqichma-bosqich maqsadlar qo'yish zarur. Masalan, har oy yoki har chorakda ma'lum bir fan bo'yicha muvaffaqiyatga erishish maqsadi qo'yilishi mumkin. Bu maqsadlarga erishish jarayonida ular o'zlarining yutuqlarini ko'rib, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini saqlab qoladi.

Shu bilan birga har bir bosqichdagi muvaffaqiyat uchun rag‘bat berish ularning motivatsiyasini yanada oshiradi.

4. Jamoaviy yondashuv va raqobatni shakllantirish. O‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish va ularni guruhda birgalikda ishlashga rag‘batlantirish ham motivatsiyani oshirishda samarali usullardan biridir. Bu yondashuv ularning o‘zaro hamkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini oshiradi, shu bilan birga o‘qish jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi.

A) Jamoaviy loyihalar: o‘quvchilarni birgalikda ishlashga yo‘naltiruvchi jamoaviy loyihalar ularning o‘qishga qiziqishini oshirishda yordam beradi. Loyihalar jarayonida har bir o‘quvchi o‘z rolini bilib, jamoaning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi. Bu usul orqali ular nafaqat o‘qish jarayonidagi bilimlarini rivojlantiradi, balki jamoaviy ishlash ko‘nikmasini ham egallaydi. Jamoada birga ishlash o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantiradi va ularning bir-biri bilan muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

B) Sog‘lom raqobat muhitini yaratish. Sog‘lom raqobat o‘quvchilarni o‘qish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, o‘quvchilar o‘rtasida o‘qish va fanlar bo‘yicha turli musobaqalar tashkil qilish ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bunday musobaqalarda g‘olib bo‘lish uchun ular ko‘proq harakat qiladi va bilimlarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishga intiladi. Bunday muhitning yaratilishi o‘quvchilarni o‘z bilimlarini oshirishga rag‘batlantiradi va ularning o‘qish savodxonligini yuqori darajaga ko‘tarishga yordam beradi.

5. Qiziqarli va interfaol ta’lim. O‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirishning yana bir samarali usuli ta’lim jarayonini interfaol va qiziqarli qilib tashkil etishdir. O‘qish jarayoni qiziq bo‘lganda, ularning motivatsiyasi yuqori bo‘ladi va bilim olishga qiziqishlari oshadi.

A) Interfaol o‘quv mashg‘ulotlari. Darslarda interfaol usullardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishda samarali hisoblanadi. Masalan, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘yin, kviz yoki viktorinalar shaklida o‘tkazish ularning faol ishtirokini ta’minlaydi va o‘qish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi [9: 38]. Bunday mashg‘ulotlar o‘qishni qiziqarli qilish bilan birga, ularning bilimlarini ham chuqurlashtiradi.

B) Texnologiyalardan foydalanish. Texnologiyalarning zamonaviy vositalari, masalan, audiokitoblar, interfaol onlayn o‘yinlar va ta’lim platformalari yordamida o‘qish jarayonini yanada qiziqarli va yorqin tarzda tashkil qilish mumkin. Masalan, virtual sayohatlar, 3D simulyatsiyalar va turli ta’lim platformalari yordamida fanlar bo‘yicha materiallarni o‘rganish o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni ko‘proq o‘qishga rag‘batlantiradi.

Ushbu maqolada ko‘tarilgan muammo va uning tadqiqi asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. Ona tili ta’limida turli janrdagi matnlar bilan ishlashni ko‘paytirish lozim.
2. O‘quvchilarni har xil matn janrlari bilan tanishtirish va ularni tahlil qilishga o‘rgatish.
3. Faol o‘qish usullari va interfaol yondashuvlardan foydalanish.
4. O‘quvchilarni faol o‘qish jarayoniga jalb qilish va ularning matnli axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirish.
5. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn ta’lim platformalari kabi vositalardan samarali foydalanish.
6. Ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlar va motivatsiyaga e’tiborni kuchaytirish, xususan, o‘quvchilarni o‘qishga rag‘batlantirish, ularning qiziqishlariga moslashuvchan bo‘lish va individual yondashuv qo‘llash kabilar.

PISA baholash dasturi natijalari respublikamiz maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish savodxonligi bo‘yicha muayyan kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Yuqorida keltirilgan metodikalar, interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini samarali oshirish mumkin. Har bir metod ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, yanada faol o‘quvchiga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, ularga o‘qituvchilarning kreativ va ijodiy munosabatda yondashishi metodikalar samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Sh. O‘qish savodxonligini oshirishda zamonaviy metodikalarning ahamiyati. – Toshkent: Universitet, 2019. – B. 125.
2. Norqulov B.A. O‘zbekistondagi ta’lim tizimida PISA baholash dasturini joriy etish tajribasi. // Ta’lim va jamiyat, 2020. 5(3), – B. 45–57.
3. OECD (2019). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/5f07c754-en
4. Schütz, G. and Wößmann, L. The Impact of Student Literacy on Economic Growth. Economics of Education Review, 2020. 74, 101945.
5. Matkarimov A.M. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilar tayanch kompetensiyalarini shakllantirish: Ped. fan.b.fals.d-ri...diss. – Chirchiq, 2022. – B. 129.
6. Babanskiy Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – B. 4.
7. Jalolova L. Interfaol metodlar asosida o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. / Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent, 2018. – B. 267.
8. Матюхина М.В. Мотивация учения младших школьников. М.В.Матюхина. – Москва: Педагогика, 1984. – 144 с.
9. Хавенсон Т.Е., Керша Ю.Д. Сравнительный анализ результатов тестов PISA и TIMSS в России и странах Европы / Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. – Москва: НИУ ВШЭ, Современная аналитика образования, 2017. №1 (9). – 32 с.
10. Huisken F. Der “PISA-Schock” und seine Bewältigung. Wieviel Dummheit braucht/verträgt die Republik? // VSA-Verlag, Hamburg, 2005. – p. 193.

Dilfuza RAZIKOVA,
Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers,
a PhD student

SOLVING LINGUISTIC PROBLEMS: THE COMPENSATORY APPROACH IN TECHNICAL LANGUAGE EDUCATION

In technical language education, where proficiency in English is crucial for success, students often face unique linguistic challenges. The complexities of mastering a foreign language alongside technical expertise require innovative approaches to teaching. One such approach gaining prominence is the compensatory approach model, which aims to bridge the gap between students' existing language skills and the demands of technical fields such as engineering, IT, or sciences.

The compensatory approach focuses on learners' ability to use available linguistic resources to overcome gaps in language proficiency. This approach encourages students to employ strategies such as paraphrasing, guessing meanings from context and using synonyms to communicate effectively despite limited vocabulary. Some researchers believe that teaching compensatory strategies can enhance learners' communicative competence. Hurd (2008) emphasizes the importance of fostering learners' autonomy through compensatory strategy, noting that students often face language barriers that can hinder communication. Kormos (2012) further explores how these strategies can be integrated into language instruction, arguing that they improve fluency and empower learners by giving them tools to manage their language-learning processes. This aligns with the findings of Cohen (2011), who highlights the role of strategic competence in effective language use. In the education of technical language, a compensatory approach emphasizes integrating technical content into language instruction. Educators can provide context and relevance to language acquisition activities through authentic materials, such as industry reports, manuals and case studies. This methodology enhances language proficiency and augments students' comprehension of industry-specific concepts and terminology.

The compensatory approach acknowledges that technical students may have strengths in their field of study but may struggle with language proficiency. This model recognizes that learners can compensate for their linguistic deficiencies by leveraging their technical knowledge and skills to enhance their language learning experience. By focusing on these strengths, educators can tailor instruction to meet the specific needs of technical students, thereby empowering them to take control of their learning journey.

Research by Bialystok (2001) suggests that bilingual learners often use compensatory strategies that draw on their cognitive resources, enhancing their overall language-processing capabilities. Furthermore, Vygotsky's (1978) sociocultural theory underscores the importance of social interaction in cognitive development, suggesting that language learning is enhanced when learners engage in collaborative problem-solving. This indicates that integrating compensatory and linguocognitive strategies can enrich the learning experience, fostering a sense of community among educators and learners. The compensatory approach is based on many significant strategies that are designed to enable students to overcome language barriers without impeding their technical development:

The compensatory approach supplies a dynamic, adaptive framework that is suited to the specific needs of technical students who deal with linguistic difficulties in English. This concept is predicated on the idea that completing up language skills gaps can be achieved by utilizing students' current technical and cognitive strengths. Teachers can assist students in improving both their language skills and their comprehension of technical material related to their area by using these compensatory measures:

Use of Linguistic Resources Strategically: This component motivates students to make use of the language resources they already have. Practical examples include paraphrasing, utilizing synonyms to get around language restrictions, and leveraging context to infer meaning. Even while their proficiency is growing, these techniques help students communicate in English successfully. Promoting this ingenuity helps students develop language resilience as well as a sense of accomplishment and independence.

Combining Language Instruction with Technical Content: Technical students need to be conversant in both language and industry-specific terms and concepts. The compensatory approach places a strong emphasis on using real materials as a tool with two functions, such as industry reports, case studies, and technical manuals By providing students with appropriate technical terminology and context, these tools help them connect language proficiency to practical uses, boosting their confidence in both their language and professional abilities.

Using Technical Knowledge to Learn Languages: Many technical students can use their strong analytical and problem-solving abilities from their field of study to help them learn languages. Teachers can design language classes around the rational, meticulous thought processes that technical students are accustomed to by identifying and utilizing these cognitive abilities. This encourages motivation and engagement by making language acquisition seem less abstract and more obvious.

Developing Collaborative Learning: The compensatory approach, which is grounded in Vygotsky's sociocultural theory, places a high importance on interpersonal communication and teamwork. Group conversations, peer evaluations, and team problem-solving are examples of activities that assist students support one another and create a sense of

community among learners. In addition to improving language proficiency, this method strengthens the social and technical abilities needed in the workplace.

By using the compensatory approach in technical language instruction, teachers can play a vital part in giving students useful tools for dealing with language difficulties. This methodology enhances students' language proficiency and augments their self-assurance in professional communication within their technical domain. Through this approach, students acquire the ability to leverage their technical expertise to surmount language barriers, thereby preparing them for successful careers in their respective industries.

Students gain advantages using the compensatory approach in technical language instruction in several ways:

Enhanced Autonomy and Strategic Competence: By providing students with flexible coping mechanisms for language barriers, the compensatory approach promotes independence and eventually elevates their confidence in business communication.

Enhanced Professional Readiness: Students are more qualified to handle professional settings that require both technical and language proficiency as they learn to combine the two. This preparedness can facilitate transitions into positions requiring fluency in English and enhance professional possibilities.

Community Development and Collaborative Skills: Students can develop networks and improve their teamwork abilities by participating in group activities. This fosters a community that is both linguistically and technically enriching and establishes a helpful learning environment.

In essence, the compensatory approach provides a holistic framework for technical language education, addressing both language and professional skills simultaneously. This model not only builds language proficiency but also fosters autonomy, strategic competence, and confidence, ultimately preparing students for successful careers in their technical fields.

The practical implementation of the compensatory approach necessitates utilizing diverse pedagogical strategies tailored to the specific requirements of technical students. These strategies may encompass task-based learning activities that simulate authentic professional scenarios, vocabulary-building exercises focusing on domain-specific terminology, and critical thinking tasks that facilitate students' analysis and evaluation of technical information in English.

The compensatory approach in technical language education offers a holistic framework for addressing the linguistic challenges students in technical specialties face. By leveraging students' technical knowledge and skills, educators can create dynamic and engaging learning experiences that equip students with the language proficiency necessary for success in their fields. Solving these linguistic challenges through the compensatory approach paves the way for enhanced communication skills and professional competence among technical students.

References

1. Hurd S., Lewis T. Language learning strategies in independent settings // Journal of Language Learning Strategies in Independent Settings, 2008, 329.
2. Kormos J. The role of individual differences in L2 writing // Journal of Second Language Writing, 2012, 21, 390–403.
3. Cohen A. Strategies-based instruction for learners of a second language // NASSP Bulletin, 2011, 84(612):10-18.
4. Bialystok E. Bilingualism in development: Language, literacy, and cognition. – New York: Cambridge University Press, 2001.
5. Vygotsky L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Massachusetts: Harvard University Press, 1978.
6. Razikova D.S. Use of quizzes as a summative assessment in teaching students of an oil and gas profile // Current Research Journal of Pedagogics, 2024, Vol. 3, No. 11, pp.15-19.

Madina KAMOLOVA,
Kattakorgan Branch of Samarkand State University,
Faculty of Pedagogy and Language Teaching,
an English teacher of the Department of Foreign Languages

TEACHING ENGLISH WITH AN EMPHASIZE ON THE SOCIOLINGUISTIC PROFILE OF LEARNERS

In teaching process, teachers' awareness of the importance of gender differences, cultural background, social status, language background of learners is vitally crucial for ensuring that all students get opportunity to demonstrate their knowledge and abilities in a way that is fair to them. Romaine, S. (2009) claimed that while tailoring assessment materials to reflect learners' language skills and experiences, educators are required to recognize the connection between language and social factors. In this paper, sociolinguistic profile of a group learners is discussed in terms of gender, sex, race, ethnicity, social status and how these factors can be addressed appropriately by giving practical implications. By acknowledging the diverse backgrounds and perspectives of target learners, teachers build a foundation for a more inclusive and dynamic environment. Accordingly,

this article will enlighten the usage of English among various ethnics and genders and how it may influence the linguistic needs and preferences of learners.

Sociolinguistics profile of a group of learners. The group is diverse with 12 female and 3 male students, in total 15 students with considerably different cultural backgrounds and learning experiences. The learners are at the age of 18-19 and study at Kimyo Technical University, majoring in language teaching. Their level is intermediate (B2) according to CEFR standards and most of them learned English at learning centers. The reason why they have chosen this major and learning English is that almost all female students are planning to be an EFL/ESL teacher, while the male students have set a goal of pursing master degree abroad. In terms of nationality, there are students from 3 various families: Kazakh, Uzbek and Russian, so they have their own personal interests and learning preferences. When it comes to learners' strengths, they are good at listening and speaking. They have gained experiences and skills by travelling to other countries. They can make interactions with native speakers about familiar contexts, like their interests, viewpoints on varied topical issues just by giving clear options. However, they struggle with reading and understanding complex texts or passages, also writing is quite challenging for them, especially when they have to write essays with complex grammatical structures.

Subgroups. *A) Nationality (Kazakh).* This subgroup has minor number of Kazakh students who have moved to Tashkent recently. Both of them have grown up in Kazakhstan surrounded by traditional customs and culture, like cuisine, dance or music which leads to the discrimination while learning a language. These two Kazakh students' learning preferences and approaches vary because of their national identity and culture. Furthermore, they have strongly connected to their mother tongue, hence the way of learning and curriculum designing should be taken into consideration.

B) Gender (male). In my group, there are only 3 male students that constitutes another subgroup. According to the gender of students, they have different interests, experiences, preferences and motivations, which can influence the process of learning. Male students may have some challenges while grouping them or choosing topics. Also, in group discussion they may not have a strong willingness to speak and participate in, since their interests vary than female students'. Moreover, the styles of communication between male and female students can affect the way how they use a language. However, if they are supported and addressed appropriately, they can success in their academic journeys.

Gender and Sexuality. The social factor of gender is vitally important in my class, since there are students with the high level of difference in their gender. As I discussed above, students have different interest and hobbies, linguistic needs based on their gender, so this factor plays the main role in teaching. Fought (2011) reported that according to numerous studies, gender affects the use of linguistic features because of its powerful role in teaching. In terms of sexuality, I think that it is personal matter and it should not be focused or discussed. The important thing in teaching a language is a solely attention to creating a welcoming environment that promotes equality and respect between all genders. The matter which should also be taken into account is grouping. As Roebl (2007) mentioned that, boys and girls tend to sit separately and they choose gender-related topics, this usually happens in Uzbek classes. To make it more precise, girls are more tentative speakers than boys and the contents they watch on media are also different, girls are likely to follow fashion, long-lasted series or shows, while male students go for business stuffs, cars, politics or sport.

Race and Ethnicity. According to Fought (2011), our ethnic identity is related to language more than other social factors, such as age, gender or social status. It may give an opportunity to speak in an entirely different language. For instance, as Korean-American, a person can speak both English and Korean, while American can only communicate in English. Also, ethnic identity may be integrated with differences in language use, such as what words we use to compliment or how we start or end the conversation. From my point of view, these factors should be focused on while teaching students come from different origins. Although there are more Asian students in my class, their preferences, perceptions and linguistic needs are not the same. Uzbek and Kazakh student can understand each other with less difficulties, as the origin of both languages rooted to the same place, while Russian learners struggle to adopt to the Asian learning environment, since they are European-Russian ethnically. When it comes to the race, it is not relevant and connected to teaching a language, because I consider that there may have severe consequences in terms of inequality, racism or discrimination, if we focus on it rigidly.

Sociolinguistics Profile of a Learning Context. In this scenario, the learners study at Kimyo Technical University in Tashkent and none of them are planning to move or study abroad in upcoming year, so the teaching process takes place in a university setting. According to Deumert, A. (2011), multiculturalism and multilingualism are considered as a common factor that aids to improve diversity in educational settings. To facilitate a more inclusive classroom environment, students come from other regions or even countries, such as Russia, India or Kazakhstan, play a crucial role as they bring various dialects, languages and consequently, this fosters linguistic diversity and language experience that learners are going to get exposed to (Bayley, R. & Villarreal, D. 2018).

Moreover, university is well-equipped with all necessary fixings, such as desks, chairs, whiteboards, technical tools, reading materials, course books and etc., since this university has been recently founded. So, in terms of socioeconomics, almost all students have access to higher education in this university, because they likely come from wealthy families according to their social status. Baugh, J. (2005) notes that educators, who teach at university, should understand the socioeconomic diversity among learners, as they have to provide support and resources in a fair and impartial manner.

Pedagogical Implications. Taking into consideration students' gender, I avoid using gender stereotypes and grouping them according to their gender. In order to foster a friendly atmosphere and to keep a balance of participation in class, I try to group students based on not only their gender, but also what they are interested in, which approach they choose, what their level is. Another implication is material designing and topics. As both gender representatives have their personal interests, hobbies and preferences, I consider what materials, topics, group activities may appeal to both of them. What's more, Schilling, N. (2011) reported that the way of constructing a language or a conversation varies according to a gender type and the inclusivity of gender and sexual identities may lead a teacher to a position where she can empower learners to avoid discrimination.

Additionally, recognizing and respecting the cultural backgrounds of Kazakh students will help them to foster a sense of belonging and pride in the classroom. This can be adjusted by incorporating elements of Kazakh culture, such as music, language, cuisine or some traditional activities. Moreover, acknowledging and celebrating Kazakh national holidays may create a multicultural atmosphere in the class and give the other students an opportunity to be familiar with Kazakh culture.

Besides, to support dynamic classroom environment among my students, I would like to apply cooperative language learning (CLL) approach which encourages male students to actively engage in discussions or projects. In his article, Karim K. (2018) defines cooperative learning as "group learning activity" that motivates a learner to exchange information and increase the learning of others. By employing this instruction CLL, I can create a supportive place for not only male students, but also Kazakh students, so that their voices will be heard respectively.

Assessment Implications (internal assessment).

1) Considering gender difference. While assessing students, recognizing male and female students' styles is vitally important. As they demonstrate different styles, they should be provided with an opportunity to showcase their knowledge and ability whether in oral or written way. To bridge this gap, teacher should avoid forcing students to do tasks and support them to do in a way that is straightforward for them.

2) Considering cultural background. Since I have students from three different nationalities, their cultural background plays a role, while grading them. I try to create assessment materials and prompts that are relevant and reflective of their experiences and language skills. It is a "must-done" to include some Kazakh materials into assignments, so that they can accomplish and perform successfully in the class. Including material which illustrates culture of learners in assignments helps them feel more connected to the content, and seeing themselves reflected in it makes their engagement and motivation enhanced (Bayley, R. & Villarreal, D. 2018).

3) Acknowledging learning styles and preferences. Every student has their own unique learning style and preferences. This may include options for visual, auditory, kinesthetic and other modes of learning in assessment. By offering varied assessment formats, students will feel more independent and freer to demonstrate their knowledge in a preferred way. In every class, there can be found students who are introverted especially if they are new in the class or extroverted, based on their learning preference they can submit assignment by making presentations, writing reflection or doing it as a group project. Consequently, these implications aim to keep balance and fairness while grading learners.

To conclude, first and foremost, language educators while teaching sociolinguistics, should recognize various sociolinguistic aspects, such as ethnicity, identity, age, gender and etc. which provides them with a comprehensive overview of this subject and aids to analyze language attitudes, methods, theories during their academic experiences, as cited by Wardhaugh, R. & Fuller, J. M. (2014).

In advocating for the specific learners within the diverse group, recognizing their national identity, cultural heritage, gender and language backgrounds is essential for educators to meet their needs and address them properly. To foster valued classroom environment, this research paper recommends other language instructors to go beyond classroom boundaries, like arranging extra classes where students can exchange their knowledge, discuss topics, get closer to each other, showcase interests and practice outside the class. Moreover, before immersing into the teaching process, I suggest teachers to be aware of the language used by students from different subgroups, so that she can employ a dominant language to explain topics or design a course material. With the help of this, teachers can make a way for them to analyze individual identities and aspirations, and promote equity and inclusion.

References

1. Baugh J. Linguistic profiling. – Routledge, 2005.
2. Bayley R., Villarreal D. Cultural attitudes toward language variation and dialects // The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching, 2018.
3. Bolton K. English in Asia, Asian Englishes, and the issue of proficiency // English Today 94, 24(2). – Cambridge University Press, 2008.
4. Deumert A. Multilingualism. The Cambridge handbook of sociolinguistics. – Cambridge University Press, 2011.
5. Karim K. Cooperative language learning // The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching, 2018.
6. Fought C. Language and ethnicity. – Cambridge University Press, 2011.
7. Roebl M. K. Gender in language teaching. – St John's University, 2007.
8. Romaine S. Linguistic diversity and poverty: Many languages and poor people in a globalizing world. – A & C Black, 2009.
9. Schilling N. Language, gender and sexuality. The Cambridge handbook of sociolinguistics. – Cambridge University Press, 2011.
10. Wardhaugh R., Fuller J.M. An introduction to sociolinguistics. – John Wiley & Sons, Incorporated, 2014.

Mahliyo DJAKBAROVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'QITISHGA YANGICHA YONDASHUV

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda Blum taksonomiyasidan foydalanishning amaliy ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sifat, Blum taksonomiyasi, bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez, baholash.*

Annotation. *The article highlights the practical importance of using Bloom's taxonomy in teaching adjective vocabulary in elementary grades.*

Keywords: *adjective, Bloom's taxonomy, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation.*

Аннотация. *В статье подчеркивается практическая значимость использования таксономии Блума при обучении лексике прилагательных в начальных классах.*

Ключевые слова: *имя прилагательное, таксономия Блума, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценивание.*

Bugungi ta'lim tizimining vazifasi o'sib kelayotgan avlodni kreativ fikrlaydigan, turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishini ta'minlaydigan, o'zaro muloqot jarayonida bilim-ko'nikmasini to'la namoyon etadigan, erkin hamda o'ziga ishonchini oshiradigan bilim bilan ta'minlashdir. Xalqaro baholash dasturlarining milliy ta'lim-tarbiya tizimiga ta'siri, ijobiy tomonlari ham aynan shu vazifalarni qay darajada amalga oshira olishimizga bog'liq.

An'anaviy ona tili o'quv predmetida grammatik bilimlar tizimli berilar, ammo Milliy o'quv dasturida ta'kidlangan ona tili o'quv predmeti asosida shakllantiriladigan to'rt asosiy nutqiy ko'nikma – yozish, o'qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish (nutq so'zlash) to'lig'icha qamrab olinmagan edi. Yangi avlod darsliklarida (garchi ayrim kamchiliklar sezilsa-da) o'quvchilarda yuqoridagi nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsad qilib olingan.

G'.Hamroyevning fikricha, o'quv topshiriqlari ona tili ta'limi mazmunini yuzaga chiqarish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, ta'lim jarayonida o'quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanishga alohida e'tibor berish talab etiladi [2: 12]. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumi bo'yicha berilgan o'quv topshiriqlarini takomillashtirish, tizimli hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nazariy bilimlarga mos mashq va topshiriqlarni aniq ko'rsatma asosida taqdim etish zarur. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada sifat so'z turkumini o'qitishda Blum taksonomiyasi asosida yangicha yondashuvni taqdim etmoqdamiz.

Boshlang'ich sinfda so'z turkumi bilan umumiy tanishtirilgach, har bir leksik-grammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning dastlabki bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratish imkonini beradi. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari sifatning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

– so'zning nimani ifodalashi (predmet belgisi);

– so'roqlarga javob bo'lishi (qanday?, qanaqa?);

– gapda, asosan, qanday bo'lak vazifasida kelishi (aniqlovchi);


– imlosi (orttirma darajadagi sifatlarning ajratib hamda juft va takroriy sifatlarning chiziqcha bilan yozilishi) [1: 102–111].

O'quvchilar mana shu o'rgangan bilimlari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydi. Ularning nimani o'rganganlariga qarab har bir so'z turkumi grammatik belgilari haqidagi bilimlari kengaya boradi. O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, *gul, guldor, gulladi* so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun III sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: Nima? – gul. Bu so'z narsani bildiryapti, ko'plikda qo'llanadi – *gullar* – bu ot; *guldor* so'zi "qanday?" so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiryapti. Demak, bu – sifat. *Gulladi* so'zi "nima qildi?" so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning holatini bildiryapti. Bo'lishsiz shaklda qo'llanadi – *gullamadi*. Bu – fe'l [4: 258–261].

Dasturga ko'ra 1-sinfning IV choragida shaxs va narsaning belgisini bildiruvchi so'zlar va ularning so'roqlari (4 soat); 3-sinfning III choragida sifat so'z turkumi, sifatning otga bog'lanishi, sifatning ma'no turlari, sifat yasovchi qo'shimchalar, qarama-qarshi va yaqin ma'noli sifatlar, sifatlarning yozilishi (11 soat); 4-sinfning III choragida sifat va uning otga bog'lanishi, sifatlarning ma'no munosabatlari, o'z va ko'chma ma'nodagi sifatlar, sifatlarning ma'no turlari: rang-tus, maza-ta'm, shakl, xil-xususiyat sifatlari, sifatlarning o'zi bog'langan so'zlar bilan yozilishi, sifat yasovchi qo'shimchalar, sifatlarning imlolari hamda matndan sifatlarni topish va tahlil qilish (16 soat) bo'yicha soatlar ajratilgan [3].

Uzluksiz ta'limda ta'lim oluvchilarga belgilangan o'quv dasturlari asosida bilim berish va o'quv

natijalarini baholashda Blum taksonomiyasi mezonlariga asoslaniladi. Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o‘quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta’lim olamida keng tarqalgan. Blum tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishda oltita darajaga ajratdi. Blumga ko‘ra tafakkur darajalarida bo‘ladi. Ushbu darajalar quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar bilan ham ifodalanadi.



Bilish dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo‘nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstrakt bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremalar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda o‘quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza va o‘zgartira oladi (so‘zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tavsiflaydi.

Qo‘llash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noan’anaviy holatlarda ham foydalanadi va ularni ma’lum bir model, formula, ko‘rsatma asosida to‘g‘ri qo‘llaydi.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi.

Sintez. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o‘quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini, ko‘rinishini yaratadi. Bu bosqich tegishli natijalardan yangi jadval tuzishga urg‘u beruvchi ijodiy xarakteridagi faoliyatni taqozo etadi.

Baholash. Mazkur kategoriya yuqorida ko‘rsatilgan barcha kategoriya bo‘yicha o‘quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini nazarda tutadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, o‘quvchi mezonlarni ajrata va ularga rioya qila oladi. Mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi.

Sifat so‘z turkumini Blum taksonomiyasi asosida o‘qitish va o‘quvchilarda tizimli bilim-ko‘nikmalarni hosil qilishni quyidagicha amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

Bilish: sifat belgi bildiruvchi so‘zlar ekanligi, *“qanday?”, “qanaqa?”* so‘roqlariga javob bo‘la olishi (1-sinf); sifatning ma’no turlari: maza-ta’m, xil-xususiyat, rang-tus, shakl, hid, makon-zamon (2-sinf); zid ma’noli sifatlar, o‘z va ko‘chma ma’no ifodalovchi sifatlar, sifat darajalari (3-sinf); sifatning gapdagi vazifasi, sifatlarning yozilishi (4-sinf).

Tushunish: sifatlarning qanday ma’no ifodalashini tushunish, masalan, “qizil” rangni, “shirin” maza-ta’mni ifodalashi. *“Shirin ovqat”* o‘z ma’noda, *“shirin bola”* ko‘chma ma’noda qo‘llanishini anglashlari. Quyida keltirilgan jadvalda sinflar kesimida o‘quvchilar qaysi sifatlarning ma’nosini tushunishi va nutq jarayonida farqlay olishi keltirilgan:

1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
yaxshi	sovuq	baxtiyor	mashaqqat
chiroyli	qattiq	ezgu	fidoyi
shirin	mazali	tinch	yorqin
qora	toza	farovon	xushsurat
odobli	tartibli	muattar	baquvvat
aqlli	dangasa	dastyor	mayin
katta	moviy	yalqov	orasta

Qo‘llash: belgi bildiruvchi so‘zlarni qarama-qarshi ma’nosini topa olishi, yaqin ma’noli sifatlarning ma’nosini o‘zaro farqlab nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olishi, sifat darajalarini farqlash, o‘z va ko‘chma ma’noli sifatlarning farqiga borgan holda nutq jarayonida qo‘llay olish. Jumladan, *katta-kichik, yaxshi-yomon, dangasa-mehnatkash, baland-past* sifatlari qarama-qarshi ma’noni bildirsa; *chiroyli-go‘zal-latofatli-ko‘rkam* sifatlari yaqin ma’noli, ma’nodosh; *sovuq havo* (o‘z ma’noda), *sovuq xabar* (ko‘chma ma’noda); *katta* (oddiy daraja), *kattaroq* (qiyosiy daraja), *kap-katta* (orttirma daraja). Bunda har bir sinfda o‘quvchilar biladigan belgi bildiruvchi so‘zlarning yuqorida keltirilgan ma’nolarini hisobga olgan holda tushuntiriladi va o‘quvchilar belgi bildiruvchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzishni o‘rganadi.

Tahlil: bu bosqichda matn bilan ishlanadi. Ya’ni o‘quvchilarga yosh nuqtayi nazaridan matnlar beriladi, undagi belgi bildiruvchi so‘zlarni topish va tahlil qilish uchun quyidagi savollar beriladi:

1. Matndan qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarni toping.

2. Bu so‘zlar qanday belgi (rang-tus, maza-ta’m, xil-xususiyat, shakl, makon-zamon, hid) ifodalayotganini aniqlang.

3. Sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda daftaringizga ko‘chirib yozing.

4. Belgi bildiruvchi so‘zlar o‘z yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanganini aniqlang.

5. Siz bu sifatning o‘rnida qaysi so‘zni qo‘llay olar edingiz?

6. Bu so‘zning zid ma’nolisini bilasizmi?

7. Sizningcha, bu sifat qaysi darajani ifodalagan: oddiy, qiyosiy, orttirma, ozaytirma?

Bunday tahlilni amalga oshirishda 1–2-sinf o‘quvchilariga ertak, maqol va topishmoqlarni; 3–4-sinf o‘quvchilariga hikoya, she’riy parchalar berish tavsiya etiladi.

Sintez: belgi bildiruvchi so‘zlar o‘quvchilarga o‘rgatilar ekan, qaysi yoshdagi o‘quvchi bo‘lishidan qat’i nazar, bu so‘zlarning ma’nosini tushunishda, imlosi hamda talaffuzida muammolar kelib chiqadi. Quyidagi jadvalda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ko‘rsatmalar berilgan:

Muammo	Ko‘rsatma
O‘quvchi belgi bildiruvchi so‘zlarning ma’nosini tushunmaydi:	1) lug‘at bilan ishlash, ya’ni shu so‘zning ma’nosini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” orqali aniqlash va sodda tilda tushuntirib berish; 2) obrazli tushuntirish, ya’ni shu so‘z aks etgan rasm, videolavha, predmetni ko‘rsatish; 3) kitob vositasida, ya’ni shu so‘z qatnashgan ertak, hikoya yoki she’rni mutolaa qilishga yo‘naltirish.
O‘quvchi belgi bildiruvchi so‘zni to‘g‘ri talaffuz qila olmaydi.	Talaffuz mashqi, ya’ni o‘quvchi bilan birgalikda shu so‘zni qayta-qayta talaffuz qilish.
O‘quvchi belgi bildiruvchi so‘zni to‘g‘ri yoza olmaydi.	Yozish mashqi, ya’ni belgi bildiruvchi so‘zni qayta-qayta yozdirish, lug‘at, diktant orqali nazorat qilish.
O‘quvchi nutqida belgi bildiruvchi so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llaydi.	Asosan, nutqimizda faol o‘rnashib qolgan o‘zlashma so‘zlar “chorniy”, “tyomno siniy”, “oranjeviy”ni nutqda faol ishlatish yoki so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosini farqlay olmaslik oqibatida bu muammo yuzaga kelgan. Uni bartaraf etish, so‘z ma’nosini tushuntirish, lug‘at daftar tutib, shu so‘z ishtirok etgan gaplardan misollar yozdirish va yod oldirish.

Baholash. Bu nisbiy kategoriya bo‘lib, o‘qituvchi “Sifat so‘z turkimi” bo‘yicha o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini baholashda to‘rtta nutqiy ko‘nikma asosida baholashni rejalashtirishi lozim:

1. O‘qib tushunish. O‘quvchilarga yoshini hisobga olgan holda turli nutqiy parchalar beriladi, matnda qatnashgan sifat qanday belgini ifodalayotganini tushuntirish so‘raladi.

2. Tinglab tushunish. O‘quvchilarga audiomaterial yoki videolavha eshittiriladi. Unda qatnashgan belgi bildiruvchi so‘zlar o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga daftarga yoziladi.

3. Yozish. Lug‘at diktant orqali o‘rganilgan sifatlarning imlosi mustahkamlanadi.

4. Gapirish (nutq so‘zlash). Uyga vazifa sifatida o‘rganilgan sifatlar ishtirokida kichik matn tuzish va og‘zaki bayon qilib berish topshirig‘i beriladi.

Xullas, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Sifat so‘z turkumi” mavzusini Blum taksonomiyasi asosida tushuntirish belgi bildiruvchi so‘zlarni oson o‘zlashtirish va nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olishlari uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: Iqtisodmoliya, 2007.
2. Hamroyev G‘. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. d-ri... diss. avtoref. – Toshkent, 2022.
3. Ona tili fanidan milliy o‘quv dasturi. 2024–2025-o‘quv yili uchun.
4. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, Nosir, 2009.
5. O‘qish savodxonligi qamrov doirasi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi. – Toshkent, 2021.

Dilafruz SARIMSAKOVA,
PhD, Associate Professor of Namangan State University

CONTINUING PROFESSIONAL DEVELOPMENT THROUGH EXPLORATORY ACTION RESEARCH

Over the last decade, a considerable attention in literature has been grown around promoting Exploratory Action Research (EAR) that supports Continuing Professional Development (CPD) in building teachers' knowledge and skills, even in low-resourced environments, as well as EAR is being introduced into pre-service teacher training (PreSETT) in different contexts in order to become engaged in effective professional learning as novice teacher-researchers (Borg, 2013; Borg & Sanchez, 2015; Smith & Rebolledo, 2018, Katwijk, Jansen & Veen, 2023; Stringer, 2024). Exploratory Action Research (EAR) was originally developed by Richard Smith and Paula Rebolledo in 2013. The first EAR project (Champion Teachers Project) was started by British Council in Latin American countries (Chile, Mexico, Peru, Argentina, etc.). For example, teachers in Chile reported greater confidence in addressing classroom management challenges through EAR. By observing students' behavior and implementing structured interventions, teachers were able to foster a more positive classroom atmosphere. Educators in Argentina used EAR to explore language proficiency issues among their students. By experimenting with different teaching techniques, such as increased peer interaction and student-led discussions, teachers observed an improvement in language acquisition and student engagement. In Colombia, teachers explored issues related to student motivation. By researching motivational factors and integrating more student-centered activities, teachers saw notable improvements in students' enthusiasm for learning. The majority of teachers who were involved in the Champion Teachers Project had local and global impacts through presenting their researches (R. Smith and Rebolledo, 2022).

EAR is being popularized in Uzbekistan through NETRUZ (Network of English Teacher Researchers in Uzbekistan) since 2021. Even EAR is currently being introduced into pre-service teacher training (PreSETT) programs of some local universities of Uzbekistan in order to increase teachers' awareness of dimensions of CPD and teaching them to how to explore, understand and improve their teaching practices through exploratory action research.

EAR is an established method for teachers to take charge of their own professional learning through CPD, working with their research problems and evaluating context-specific solutions (Stringer, 2024). EAR is a bottom-up approach that is suitable to all teachers, teacher-educators, teacher-researchers, novice teachers and student-teachers who explore own contexts without interfering their everyday teaching practices (Katwijk et al., 2023). EAR, as a form of teacher research, aims to initially explore a classroom challenge, a puzzle or a success in the teaching context to gain a better understanding before taking any actions (Smith & Rebolledo, 2018). The exploratory and reflective nature of EAR makes it an ideal CPD tool, as it transforms teachers into researchers in their own classrooms, building skills and confidence through firsthand insights (Wyatt, M., & Dikilitaş, K. (2016). EAR encourages teachers to investigate issues they encounter in their classrooms, experiment with solutions and assess the impact of their interventions.

Exploratory Action Research (EAR) is a systematic, teacher-led approach that combines two key stages: exploration and action. Teachers begin by exploring a specific issue or challenge in their classroom. Through observations, student feedback, or data collection, they gain a deeper understanding of the issue before implementing interventions. Once they have thoroughly explored the problem, they take action, implementing strategies to address the challenge, and then evaluate the results. The process is iterative, allowing teachers to develop their methods continually, adapt to student needs and develop innovative solutions.

EAR model was illustrated through the diagram in Figure 1. EAR is conducted in two phases.




Fig. 1. Stages of EAR, developed by Smith & Rebolledo, 2018.

First, in exploratory phase, a teacher-researcher plans to explore an issue such as a success story (something that works well and would like to explore further), a puzzle (doubts or questions about your students and their learning) or a challenging situation

(something that didn't work and would like to know why). By identifying a research focus/topic, a teacher sets up the questions to explore own perceptions, assumptions and beliefs as a teacher, others' perceptions (e.g. students or colleagues) and others' behavior (students) through collecting data in order to gain better understanding of issue in their classrooms and to better recognize their students' needs and interests.

In the action phase, teacher-researcher plans actions and implement them. In EAR, it is important to understand the situation, reasons behind the problem before implementing action plan. By doing EAR, teachers explore, understand and improve their practices as teachers.

The main book "A *Handbook for Exploratory Action Research",* written by Smith and Rebolledo in 2018, presents a comprehensive guide for teacher educators who are interested in EAR to enhance their teaching practices. This handbook provides teachers with practical steps to identify, investigate, and address challenges within their classrooms, fostering a reflective approach to teaching. By guiding teachers through the stages of EAR and illustrating its benefits, the handbook encourages educators to become researchers in their own classrooms, driving positive changes in their teaching methods and in student outcomes. In other words, teachers can become researchers in their own classrooms, empowered to continuously improve their methods and adapt to their students' needs.

Smith & Rebolledo (2018) highlight many benefits of using EAR as a professional development tool, emphasizing how it can transform teachers' understanding of their own practices and their ability to address classroom challenges. EAR empowers teachers by positioning them as active participants in their professional development. By engaging in exploratory action research, teachers take ownership of their growth, developing solutions tailored to their specific contexts. This empowerment is particularly valuable in education systems where teachers may have limited control over curriculum and resources, as it allows them to make meaningful improvements within their classrooms.

One of the core tenets of EAR is reflective practice. Through this approach, teachers regularly evaluate their teaching methods, assess their impact on students, and identify areas for improvement. This reflection becomes a habit that encourages continuous learning, helping teachers remain responsive to their students' evolving needs. Reflective practice is a key component of effective teaching, fostering adaptability and resilience.

Moreover, EAR helps teachers develop critical problem-solving skills. As they work through the research process, teachers learn to frame problems accurately, analyze root causes and experiment with evidence-based solutions. These problem-solving abilities are essential for managing complex classroom dynamics and responding to diverse student needs, and they translate into greater confidence in tackling new challenges.

Smith and Rebolledo (2018) emphasize the importance of collaboration in EAR, as teachers often share their findings, ideas and experiences with colleagues. By discussing their research with peers, teachers can gain fresh perspectives and receive constructive feedback, strengthening their research skills and fostering a sense of community. This collaborative aspect of EAR helps reduce teacher isolation and promotes a culture of shared professional growth.

By addressing specific challenges through EAR, teachers can create more effective learning environments that boost student engagement and improve learning outcomes. When teachers implement strategies based on careful observation and data, they are more likely to see positive changes in student participation, motivation and achievement. This direct impact on students is one of the most rewarding outcomes of EAR, as it demonstrates the practical value of research-driven teaching.

Unlike traditional professional development workshops, which may have limited long-term impact, EAR offers a sustainable, ongoing approach to growth. Teachers can revisit the EAR cycle throughout their careers, continuously refining their practice as they encounter new challenges. This sustainability makes EAR a valuable tool for lifelong learning, helping teachers stay motivated and committed to self-improvement.

To conclude, CPD through EAR offers teachers a powerful way to take control of their growth and adapt to the evolving demands of teaching. By encouraging teachers to explore, act and reflect, EAR fosters self-directed learning, reflective practice and problem-solving skills that benefit both teachers and students. EAR not only strengthens teaching practice but also empowers teachers to become active researchers in their classrooms. By embedding CPD in everyday teaching practices, EAR enables teachers to engage in lifelong learning, transforming the classroom into a space for growth, discovery and innovation, and see the signs of success.

References

1. Borg S., Sanchez H. International perspectives on teacher research. – Springer, 2015.
2. Smith R., Rebolledo P. A handbook for exploratory action research. – London: British Council, 2018.
3. Rebolledo P., Smith R., Bullock D. Champion Teachers: Stories of Exploratory Action Research. – British Council ELT Research Papers, 2016.
4. Stringer T. Synthesisability and optimising exploratory action research for continuing professional development // Educational Action Research, Latest Articles, 2024, 1-18. https://doi.org/10.1080/09650792.2024.2362706
5. Van Katwijk L., Jansen E., Van Veen K. Pre-service teacher research: A way to future-proof teachers? // European Journal of Teacher Education, 2023, 46(3), 435-455. https://doi.org/10.1080/02619768.2021.1928070
6. Wyatt M., Dikilitaş K. English language teachers becoming more efficacious through research engagement at their Turkish university // Educational Action Research, 2016, 24(4), 550-570.

Sharofat TOSHMIRZAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining erkin tadqiqotchisi

TA'LIM TARAQQIYOTIDA "4K" METODI

Annotatsiya. *Maqolada noan'anaviy ta'limning o'ziga xos tomonlari, interfaol usullarning dars jarayoni va mavzu o'zlashtirilishiga ta'siri, "4K" metodining mohiyati, dars jarayonida bu metoddan foydalanishning ustuvorligi haqida ma'lumot berilgan, o'quvchining bilim va ko'nikma hosil qilishida "4K" metodining ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, an'anaviy ta'lim, noan'anaviy ta'lim, interfaol ta'lim metod, tanqidiy fikrlash, kritik fikrlash, "4K" metodi.*

Annotation. *The article provides information about the unique aspects of non-traditional education, the impact of interactive methods on the learning process and subject mastery, the essence of the 4 C method, and the priority of using this method in the teaching process. It also reveals the importance of the 4 C method in the formation of student's knowledge and experience.*

Keywords: *education, traditional education, non-traditional education, interactive learning method, critical thinking, 4 C method.*

Аннотация. *В статье представлена информация об уникальных аспектах нетрадиционного образования, влиянии интерактивных методов на процесс обучения и усвоения предмета, сущности метода "4К", приоритете использования этого метода в учебном процессе для получения учащимися знаний и опыта. Раскрыта важность метода "4К" при создании видео.*

Ключевые слова: *образование, традиционное образование, нетрадиционное образование, интерактивный метод обучения, критическое мышление, метод "4К".*

Ma'lumki, an'anaviy ta'limda ko'proq yodlash, o'qib javob berish, o'qituvchi aytgan fikrlarni takrorlashga tayangan usullar ko'p qo'llangan. Bunday usullar asosan ikki xil: faol va nofaol o'zlashtirish shaklida namoyon bo'lgan. Nofaol o'zlashtirishda o'qituvchi bilimlarning asosiy manbayi hisoblanadi. U ta'lim oluvchiga topshiriqlar beradi, talaba ma'lumotni o'qiydi, o'rganadi va o'qituvchiga so'zlab beradi, o'qituvchi baholaydi. Bu reproduktiv ta'lim hisoblanadi va bunda talaba deyarli yangilik olmaydi, shunchaki o'qituvchidan olgan narsalarini takrorlaydi.

Faol o'zlashtirish usulida o'qituvchi o'quvchiga ma'lum bir mavzuda insho, esse yozish, mustaqil fikrini bayon qilish topshirig'ini beradi va talaba shakllangan tajribasi, dunyoqarashi, ba'zi individual xususiyatlarini ishga solib, vazifani bajaradi. Bu usulda o'quvchining ijodkorligi birmuncha namoyon bo'ladi.

Ta'lim berishning uchinchi usuli interfaol o'zlashtirish bo'lib, rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Bizda ham faol o'zlashib, ta'lim tizimimizga chuqurroq joriy qilinayotgan shakldir. Interfaol usulda dars jarayonining yetakchi figurasi – o'quvchi(lar)ning o'zi. Dars boshlanishida o'qituvchi o'quvchilar o'rtasiga ma'lum bir muammoli vaziyat tashlaydi, guruh bo'lib shu vaziyat yechimini topish shartini qo'yadi. Interfaol ta'lim shu o'rindan boshlanadi. O'qituvchi topshiriq berishi bilan talabalar o'zaro bilim almashadi va o'z-o'zidan o'zlashtiruvchi subyektlarga aylanadi: so'zlaydi, tinglaydi, fikr almashadi, bir-birining xatosini tuzatib, yagona yechimga keladilar. Bugungi kunda o'quvchilardan tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy hamda ijodiy fikrlash, atrofidagi insonlar bilan sog'lom hamkorlik qilish hamda moslashuvchan bo'lish talab etiladi. Demak, ta'lim jarayonini o'quvchilarning o'zi boshqaradi, o'qituvchi esa yo'nalish berib turadi. Interfaol usulda dars o'tish samaradorligini oshiruvchi zamonaviy texnologiyalardan biri "4K" metodidir. Shu o'rinda xalqaro baholash tizimida yuqori natijalarga erishgan Singapur, Finlandiya tajribalari asosida shakllangan va o'zbek ta'lim tizimiga joriy etilayotgan "4K" modeli haqida to'xtalamiz.

"4K" yondashuvi o'z nomi bilan to'rtta tamoyilni o'z ichiga oladi:

1. Kollaboratsiya (korporatsiya) usuli o'quvchilarga guruhlarda ishlab hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

2. Kommunikativlik metodida o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadi.

3. Kreativ (ijodiy) fikrlashda o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi va muammolarni ijodiy hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

4. Kritik (tanqidiy) fikrlash. Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi [2].

Kollaboratsiya va kommunikatsiyada o'quvchilar guruhlarda ishlab, o'z qobiliyatlarini namoyish qiladi. Ijodiy fikrlash metodi talabaning ijodkorligini, yangi g'oyalar topib, ommaga olib chiqish, o'z xulosalarini himoya qila olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash o'quvchiga axborotni tanqidiy baholash

ko‘nikmasini singdiradi. Atama “kritik fikrlash” (grekcha *kritikos – tanqid, baholash, imtihon*) deb ataladi. Bu yerda “tanqid” tushunchasi ayblash ma’nosiga emas, balki “aniqlash”, “baholash”, “ajratish qobiliyati” kabi ma’nolarga ega. “www.arxiv.uz” saytidagi 2019-yil 20-sentabrda chop etilgan maqolada bu atama “kritik (tahliliy) fikrlash” deb atalgan [3]. “4K” metodi ommalashgandan buyon “tanqidiy fikrlash” termini qo‘llanib kelyapti. Bu metodda o‘quvchi axborotni ko‘proq tanqid emas, tahlil qilishini hisobga olsak, bizningcha ham, atamani “tahliliy fikrlash” deb nomlagan o‘rinli bo‘ladi. Bu so‘z tarjimalarida “analiz-tahlil” va “tanqid” (so‘zlashuvda) ma’nolari berilgan. Dars jarayoni uchun analiz-tahlil atamasi ko‘proq mos keladi, degan fikrdamiz.

Ta’lim bo‘yicha ekspert Komil Jalilov “Gazeta.uz” internet nashriga bergan intervyusida quyidagilarni aytadi: “Tanqidiy fikrlash” atamasi birinchi marta amerikalik faylasuf, psixolog va o‘qituvchi Jon Dyui tomonidan ishlatilgan. Garchi bu atama Jon Dyui tomonidan kiritilgan bo‘lsa-da, tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, konsepsiyaning o‘zi asrlar osha, muammoga javob izlash bilan mashhur “Sokratik usul” (“Suqrotcha usul”)ga borib taqaladi. Tadqiqotchilar, shuningdek, tanqidiy fikrlash shunchaki ma’lumot olish, saqlash; biror narsa haqida o‘ylash; nimaga ishonish va nimaga ishonmaslik haqida o‘ylashgina emasligini ta’kidlaydilar” [4]. Ekspertning fikricha, tanqidiy fikrlash quyidagi kognitiv jarayonlardan iborat:

– tadqiqot (muammoning konteksti va doirasini tushunish, muammo bo‘yicha taxminlarni aniqlash va ularni shubha bilan ko‘rib chiqish, faktlar va talqinlarning to‘g‘riligini tekshirish, bilimlardagi bo‘shliqlarni tahlil qilish);

– tasavvur qilish (turli xil istiqbollar va muqobil fikrlarni aniqlash, tahlil qilish va taqqoslash);

– harakat (mahsulotning kuchli va zaif tomonlarini tushuntirish, qarorlar, fikrlar);

– fikrlash (boshqa muqobillar bo‘yicha tanlangan qaror / fikr haqida o‘ylash).

Tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlari – materialning sifati va ishonchliligini baholash, turli fikrlarga baho berish qobiliyati – PISA tadqiqotining “o‘qish savodxonligi” tushunchasiga kiritilgan” [4].

Ushbu metodlarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

– o‘quvchilarda mustaqil fikr bildirish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi;

– o‘zaro fikrlar bilan bo‘lishadi;

– jamoada ishlash va o‘z fikrlarini shakllantirib, yetkazib berish qobiliyati paydo bo‘ladi;

– nutqi ravon bo‘ladi;

– tahlil qila oladi;

– tanqidiy fikrlaydi;

– o‘zgalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadi;

– ijodiy fikrlaydi.

Shu o‘rinda jadid bobolarimizning ma’rifatchilik sohasida qilgan ishlariga e’tibor qaratsak. Jadidlar otasi Ismoilbek G‘aspirali yangi tipdagi “usuli jadid” maktablarini tashkil etar ekan, Yevropa tajribasiga tayanishni ma’qullaydi, ammo uni tahlil qilib o‘zlashtirish lozimligini ta’kidlaydi. “Ovro‘pa bir keksa choldir, tajribasi ko‘pdir. Ulug‘ yoshiga hurmatimiz bor, tajribasidan o‘rganamiz. Maktablarini, universitetlarini biz ham quramiz. Ammo aqllarimizni qancha yoritsak, yuraklarimizni shuncha “haqqoniyat” bilan to‘ldirmoqqa harakat qilamiz” [5].

Ma’rifatparvar jadid bobolarimiz Munavvar qori Abdurashidxonov, Saidrasul Azizzoda, Abdulla Avloniy tashkil etgan “usuli jaded” maktablarida hozirda interfaol deb atalayotgan usullarning ilk namunalari qo‘llangan. Ayniqsa, Avloniy tashkil etgan Mirobod (1908-yil), Degrezdagi (1909-yil) maktablar ham Yevropa, ham Sharq ta’lim-tarbiyasiga tayangan holda faoliyat yuritgan. Avloniy o‘z maktablari uchun yangi tipdagi darsliklar yaratgan.

“Inson ibrat nazari ila boqub, dunyo kitobidan o‘z qadr-hissasini bilib olmagi lozimdur, – deb yozadi Avloniy. – Shuning uchun aql sohiblari, fatonat egalari o‘zlariga foydasi bo‘lsa-bo‘lmasa, sinchiklab qarag‘on narsalaridan bir hissa olmay qo‘ymaslar” [6].

Avloniy tashkil etgan yangicha ta’lim usulidagi maktablar tezda shuhrat qozonib, o‘quvchilari soni keskin ortgan, biroq hukumat tazyiqiga uchrab, ko‘p o‘tmay yopilgan.

O‘tgan asr boshlarida o‘zbek ma’rifatchiligida ilk namunalari paydo bo‘lgan jamoada ishlash, o‘z fikrini bayon qila olish, ijodkorlikni namoyon qilish, axborotni tahlil qilish kabi usullar bugungi kunga kelib yangi nomlar kasb etdi, rivojlantirildi, joriy etilmoqda. Jadid bobolarimiz boshlab bergan, to‘liq joriy qilinishini orzu qilgan ta’lim-tarbiya usullari “4K” metodlarini to‘liq singdirish orqali samarali natijalar berishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norboyeva D. XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi model – “4K” haqida. https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida.

2. (Internet manba) URL: https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/kritik-tahliliy-fikrlash-asoslari.

3. Jalilov K. Колонка: Навыки 4K в образовании: Что это, как их внедрять и получается ли? https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/30/4k/.

4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent, Ma’naviyat, 2002.

5. Qosimov B., Rizayev Sh. Abdulla Avloniy. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-shuhrat-rizaev-abdulla.

Saida SULTANOVA,
Alfraganus universiteti katta o'qituvchisi

TARJIMA JARAYONIDA LINGVISTIK INTERFERENSIYANING NAMOYON BO'LISHI

Tillarning shaxs va jamiyat ongidagi aloqasi nutq aralashuvi bilan tavsiflanadi. "Interferensiya" atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, *inter* – "o'zaro" va *ferens* – "ko'tarish", "urilish" ma'nosini anglatadi. Bu atama Praga lingvistik maktabi vakillari tomonidan tilshunoslik sohasiga kiritilgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, nutq interferensiyasi, ya'ni aralashuvi tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, shu jarayonning natijasi, o'zaro ta'siri va uning natijasi sifatidir.

Tilshunoslikda interferensiya masalasi, odatda, til aloqalari doirasida ko'rib chiqiladi va interferensiya ikki tilda so'zlashuvchi tomonidan ikki aloqa qiluvchi tilning o'zaro bog'liqlik me'yorlari va qoidalarining buzilishi deb tushuniladi. Bu hodisa ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar ishlarida o'z aksini topgan (J.B.Buranov, M.D.Djusupov, U.K.Yusupov, V.V.Alimov, E.Bujarovska, U.Vaynrayx, E.M.Vereshchagin, V.A.Vinogradov, V.V.Klimov, L.N.Kovilina, V.N.Komissarov, N.A.Lyubimova, R.K.Minyar-Beloruchev, N.B.Mechkovskaya, E.Petrovich, V.Y.Rozensveyg, Y.I.Studenichnik, E.Xaugen, L.V.Shcherba).

Ilmiy-texnik tarjima tadqiqotchisi, olim A.L.Pumpyanskiy fikriga ko'ra, tarjima jarayonida xatolarga olib keladigan asosiy sabablar qatoriga quyidagilar kiradi:

1) so'zlar va grammatik shakllarning bir ma'noliligiga ishonish;

2) so'zning grafik ko'rinishini aralashtirish;

3) o'xshatishdan (analog) noto'g'ri foydalanish;

4) so'zlarning haqiqiy ma'nosidan ko'ra aniqroq ma'noga ega bo'lgan tarjimasi;

5) inglizcha so'zlarni, leksik va grammatik birikmalarni tarjima qilish uchun tarjima tilida ma'noni topa olmaslik [3].

Uzoq vaqt davomida tilshunoslikda interferensiya hodisasi faqat to'g'ridan to'g'ri til aloqasi natijasida kelib chiqishi kuzatilgan. XIX asrning oxirida ko'p millatli davlatlarda tillarni o'rganish natijasida olimlar tillar bir-biriga ta'sir qiladi va tillar aralashadi, degan xulosaga keldi. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, interferensiya hodisasiga asosan salbiy ma'noda qaralgan, biroq vaqt o'tishi bilan uning tilga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikrlar paydo bo'ldi. XX asrning oxirida tillararo interferensiya hodisasi (nafaqat ikki tilli, balki ko'p tilli) ham bo'lishi mumkinligi haqida mulohaza yuritila boshlandi [1].

Interferensiyaning asosiy manbayi bu – o'zaro ta'sir qiluvchi tillar tizimidagi nomuvofiqliklar: har xil fonemik tarkib, fonemalarning pozitsion amalga oshirilishining turli qoidalari, ularning mosligi, turli intonatsiya, differensial va integral xususiyatlarning turli nisbati, grammatik kategoriyalarning turli tarkibi yoki ularni turli ravishda ifodalash usullari va boshqalar. Interferensiya tilning o'zgarishi emas, balki bir tilni boshqa tilning ta'siri ostida o'zgarishidir.

Interferensiyaning namoyon bo'lishi uchun zarur shartlar bu ikki tillilik (bilingvizm) yoki ko'p tillilik (maltilingivalizm) va til bilan aloqa qilishdir. Tarjima jarayonida lingvistik interferensiyaning namoyon bo'lish joyi – bir tildan boshqa tilga tarjima qiluvchi shaxsning o'zi, u bir til tizimining ba'zi elementlari, hodisalari va funksiyalarini boshqa tilning elementlari, hodisalari va funksiyalari bilan qoplashga harakat qilganda yuzaga keladi. Bu ayrim hollarda ma'noning buzilishi va asl nusxadan turli xil chetlashish holatlariga olib keladi. Biroq tarjima jarayonida adekvat tarjima qoidalariga amal qilgan holda bunday chetlashuvning oldini olish mumkin.

Tilshunos olim M.Djusupov interferensiya fenomenini quyidagicha talqin etadi: "Tilshunoslik, lingvodidaktika va til o'rgatish metodikasida interferensiya bir qator qarashlarda va unga oid tushunchalarda (ichki interferensiya, tillararo interferensiya: lingvistik tushuncha, psixologik tushuncha va h.k.) ko'rib chiqiladi. Ilmiy adabiyotlarda interferensiyani ona tili xususiyatlarining ona tili bo'lmagan tilni o'zlashtirish jarayoniga bir tomonlama ta'siri sifatida tushunish hukmronlik qiladi. Bizning tushunchamizga ko'ra, o'zga til nutqidagi interferensiya bir vaqtning o'zida ikki tomonlama salbiy ta'sir natijasidir, shundan kelib chiqqan holda tillararo interferensiya ta'rifini quyidagicha shakllantirish taklif etiladi: tillararo interferensiya – ona va o'zga til tizimlarining shaxs va jamiyat ongiga aloqada bo'lgan xususiyatlarining bir vaqtning o'zida ikki tomonlama salbiy ta'siri bo'lib, o'rganilayotgan til me'yorlaridan va ba'zi hollarda ona til me'yorlaridan chetga chiqishga olib keladi va ikkinchi tilda nutq ishlab chiqarish jarayonida lingvistik xatolar shaklida namoyon bo'ladi" [2].

Fikrimizcha, garchi zamonaviy tilshunoslikda interferensiya hodisalari ijobiy (yangi qarash) deb fikr bildirilsa-da, tilshunoslar birinchi navbatda e'tiborni salbiy interferensiya hodisasiga, ya'ni salbiy interferensiya hodisasini o'rganish barobarida uning oldini olish masalalariga qaratishlari lozim. Chunki bilingv nutqidagi interferensiya nutq jarayonida bir qator to'siqlar yaratishi mumkin.

Interferensiya fenomenini ingliz va o'zbek tillari kesimida olib qarasak, ingliz va o'zbek tillari alohida til guruhlariga mansub. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german tillari guruhiga kirsa, o'zbek tili turkiy tillar guruhiga kiradi. Bu, o'z navbatida, sintaktik (gap bo'laklarining tarkibi, yordamchi so'zlar), leksik (mustaqil so'zlar), morfologik (mustaqil so'zlarning morfologik shakli), fonetik (ohang) kabi tafovutlarni keltirib chiqaradi.

Badiiy tarjima jarayonida ko'p uchraydigan interferensiya turlariga bir oz to'xtalib o'tsak, bular leksik-semantik, morfologik, sintaktik va stilistik interferensiyalardir. Bo'lajak talaba-tarjimonlar beixtiyor ona tiliga xos so'z

va ularning semantik strukturasidagi xususiyatlarni o'zga tilda qo'llab yuborishi bois leksik-semantik interferensiya yuzaga keladi, ya'ni ikki tilning leksik-semantik ko'lamdagi o'zaro ta'siri, leksik birliklarning ma'no jihatdan farqlanishi yoki ba'zi iboralarning ekvivalentiga ega emasligi tufayli bir-biriga to'g'ri kelmasligi natijasida tarjima tilida me'yorlarning buzilishi, nutqda biror so'zning boshqa so'z o'rnida noto'g'ri qo'llanilishi yuzaga keladi.

Bunday vaziyatda masalaning yechimi ikki til leksik-semantik tizimining me'yoriy darajasidagi nutqiy qo'llanishlarini talab darajasida bilish (C1 darajada) va to'g'ri qo'llashdan, ya'ni leksik birlikning o'z va ko'chma ma'nosiga e'tibor bergan holda ona tili va o'zga tilni o'zaro qiyoslash orqali qo'llashdan iborat. Masalan, quyidagi misollarga e'tiborni qaratsak: o'zbek tilida *"ko'z"* so'zi ingliz tilida *"eye"* so'zi bilan ifodalanadi, biroq "ko'z" so'zining ko'chma ma'noda qo'llanishi semantik jihatdan o'zbek tiliga xosdir, shu jihatdan teng keluvchi bu so'zlar o'z leksik ma'nolari bilan farq qiladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga oid xatolar tarjimonning ma'lum bir ijtimoiy-madaniy ma'lumotga ega emasligi bilan bog'liq bo'lib, bu tarjima qilingan matnni to'liq tushunishga xalaqit beradi va natijada maqsadli tilda adekvat tarzda asl matnni "qayta ifodalash"-da salbiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy aralashuv bir tilda me'yordan chetga chiqish bilan ifodalansa, ijobiy aralashuvda boshqa tilning ta'siri ostida til ko'nikmalarini egallash va mustahkamlash kabilar nazarda tutiladi. Oddiyroq qilib aytganda, lingvistik interferensiya deganda bir til tizimi elementlarining boshqa til tizimiga aralashuvi tushunilishi kerak, bu ham konstruktiv, ham dekonstruktiv bo'lishi mumkin.

Tarjima adekvat deb nomlanishi uchun u o'z ma'nosi bo'yicha asliyatga imkon qadar yaqin bo'lishi va shu bilan birga tarjima qilingan til qoidalariga muvofiq kelishi lozim. Adekvat tarjima asl nusxaning mazmun va shakl birligini boshqa til vositasida qayta qurishdir. Bu natijaga erishishda tarjimon interferensiya hodisasini uning salbiy ta'siridan qochish uchun yaxshi bilishi kerak.

Xulosa qilib aytsak, nutq interferensiyasi tarjima jarayonining muqarrar hodisasidir va bunda tarjima mexanizmi to'g'ri bajarilsa, salbiy ta'sir bartaraf etilishi mumkin. Badiiy tarjimaga o'rgatish, nafaqat badiiy tarjima, balki chet tilni o'rgatish amaliyotida interferensiya hodisasining salbiy ta'sirini bartaraf etish uchun uni sinchiklab o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимов В.В. Интерференция в переводе (на материале профессионально-ориентированной межкультурной коммуникации и перевода в сфере профессиональной коммуникации). Дис. ... докт. фидол. наук. – Москва, 2004.
2. Джусупов М. Речевая интерференция как результат двуединого отрицательного воздействия // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2021. Т. 12. №1.
3. Пумпянский А.Л. Введение в практику перевода научной и технической литературы на английский язык. 1965. – Москва: Книга по Требованию, 2012.

Dilbar JUMAYEVA,
Navoi State Pedagogical Institute, an ESL teacher

BRIDGING THE GAP: EXPLORING THE ROLE OF PHILOLOGY IN TRANSLATING MOTIVATIONAL LITERATURE AND FOSTERING CROSS-CULTURAL UNDERSTANDING

In an increasingly globalized world, the demand for motivational literature transcends cultural and linguistic boundaries (Newmark, 1988). Motivational texts, which often serve as catalysts for personal growth and empowerment, rely heavily on the cultural and emotional resonance of language to inspire readers. Philology, the study of language in historical and cultural contexts, can serve as an essential tool in bridging this gap (Schäffner, 2004). This study examines the role of philology in translating motivational literature and fostering cross-cultural understanding, particularly in culturally distinct languages such as English, Russian and Uzbek, and addresses the central question: *How can philological analysis enhance the translation of motivational literature, ensuring that the emotional and cultural essence is retained in the target language?* By exploring this question, we seek to highlight the importance of cultural sensitivity and linguistic accuracy in translation, particularly when dealing with emotionally charged and culturally embedded texts.

The study involves the following steps:

Text selection. One of the most influential motivational books, such as James Clear's Atomic Habits (2018) is chosen for analysis.

Philological analysis. The texts are examined through a philological lens, focusing on the linguistic structures,

metaphors, idioms and cultural references that contribute to the motivational impact of the original language.

Comparative translation study. Translations of these texts into culturally distinct languages (e.g., Uzbek and Russian) are compared to the original to assess how well the cultural and emotional resonance is preserved.

The findings reveal key insights into how translations maintain or shift motivational impacts across cultural contexts.

Comparing translations of James Clear's Atomic Habits into culturally distinct languages like Uzbek and Russian with the original English text through *philological analysis* offers an insightful way to evaluate how well the book's cultural and emotional resonance is preserved. Translating a motivational text like Atomic Habits is particularly challenging because it involves not only transferring the content but also preserving the tone, idioms, metaphors and cultural references that drive its motivational impact.

1. Linguistic Structures. Imperatives and Declaratives:

English. Imperative sentences, such as "Create good habits" and "Break bad habits", are crucial for the book's motivational tone. They are direct, action-oriented commands that encourage the reader to take control of their habits.

Russian. In Russian, imperatives tend to carry a more formal or authoritative tone. For example, "Создавайте хорошие привычки" still commands action but feels slightly more formal due to the nature of the language's verbal structures.

Uzbek. The Uzbek imperative "Yaxshi odatlarni shakllantiring" translates similarly but can come across as somewhat softer and more relational due to the cultural context in which direct commands are often avoided or softened in favor of politeness.

In both Russian and Uzbek, the motivational force may be impacted by differences in how imperatives are culturally received. In Russian, directness can maintain the strength of the original, while in Uzbek, there may be a slight softening due to cultural preferences for more indirect communication.

2. Metaphors. "Habits are the compound interest of self-improvement":

English. This metaphor connects personal development to a financial concept (compound interest), which is widely understood in Western culture. It emphasizes that small, daily actions accumulate over time, much like money in a savings account.

Russian. In Russian, this metaphor might be rendered as "Привычки – это сложные проценты самосовершенствования". While the concept of compound interest is familiar in Russia, the emotional and practical connection may not be as immediately impactful because financial metaphors are not as commonly used in motivational texts as they are in Western contexts.

Uzbek. The phrase in Uzbek, "Odatlar – bu o'zini rivojlantirishning murakkab foizi", would likely resonate less, as the cultural familiarity with financial metaphors like compound interest may be less strong in the context of daily life. This could reduce the emotional resonance of the metaphor, making it feel more abstract.

In both translations, while the technical meaning is preserved, the emotional weight of the metaphor may not carry the same motivational force, particularly in Uzbek, where financial concepts may not be as deeply ingrained in everyday conversation.

3. Idioms. "1 percent better every day":

English. This idiom encapsulates the book's message of incremental improvement in a simple, catchy way. It is easy to understand and memorable in English.

Russian. In Russian, the equivalent phrase might be "На 1% лучше каждый день". While the meaning is clear, the emotional resonance might shift slightly because Russian motivational language tends to favor grander, more dramatic expressions. The subtlety of "1 percent" improvements might not evoke the same sense of motivation.

Uzbek. In Uzbek, "Har kuni 1 foiz yaxshiroq bo'ling" translates effectively, but the idiomatic punch might be weaker. Uzbek motivational language often emphasizes community and collective progress, so the individualistic approach of small, daily improvements may not connect as deeply.

In both translations, the idiom itself is preserved, but the motivational tone may be less effective. Russian favors more sweeping, inspirational language, while Uzbek cultural values may make the highly individualistic tone feel more distant.

4. Cultural References. Olympic Gold Medalists and Business Leaders:

English. In the original text, Olympic athletes and successful business leaders are cultural symbols of discipline, success and high achievement. These references are universally recognizable in many English-speaking contexts.

Russian. Russia has its own strong tradition of admiration for Olympic athletes, particularly in sports like gymnastics, figure skating and hockey. The reference to Olympic athletes in the Russian translation would likely resonate deeply with Russian readers, as these athletes are seen as national heroes. However, the same may not be true for business leaders, as the cultural attitude toward business success can be more ambivalent.

Uzbek. In Uzbekistan, Olympic athletes are respected, but the prominence of business leaders as cultural heroes is less pronounced. The cultural context in Uzbekistan values family, community and collective progress over individual business success. As a result, references to business leaders might not have the same motivational impact.

In both cases, cultural adaptation plays a significant role. The Russian translation of the Olympic references would likely be more effective, while the Uzbek translation might require more localized examples of cultural figures who embody discipline and perseverance.

5. Emotional Resonance. Tone of Directness:

English. The original text uses a direct, actionable tone, which is characteristic of Western motivational literature. This tone is designed to empower the reader to take immediate steps toward improvement.

Russian. Russian motivational texts often adopt a more inspirational or philosophical tone, especially in self-help literature. While the directness in the Russian translation may still motivate action, it may feel more formal and authoritative, which could affect how relatable it feels to the reader.

Uzbek. In Uzbek culture, communication often involves softening directness to maintain social harmony. The bluntness of some of the English commands ("break bad habits", "get 1 percent better every day") may be softened in translation to fit the cultural norms of politeness and indirectness, potentially diminishing the urgency of the message.

In both Russian and Uzbek translations, emotional resonance may shift due to differences in how directness and motivational language are culturally perceived. The original's straightforward tone might feel more formal in Russian and gentler in Uzbek.

In the translations of Atomic Habits into Russian and Uzbek, the linguistic structures, metaphors, idioms, and cultural references are mostly preserved, but the cultural and emotional impact can vary. In Russian, some of the cultural references, especially to athletes, remain strong, though the business success examples may not resonate as deeply. In Uzbek, cultural preferences for collectivism, indirect communication and less emphasis on business success may alter how the motivational message is received.

While the technical translation of concepts is accurate, the emotional tone of motivation, shaped by cultural attitudes toward success, achievement and directness, may need further adaptation in each language to fully capture the original's impact.

The findings suggest that philological analysis is crucial in maintaining the cultural and emotional resonance of motivational texts across different languages. The study underscores the importance of understanding linguistic and cultural nuances when translating motivational literature, as these elements can affect how the motivational message is received (Schäffner, 2004). While literal translations are often feasible, cultural adaptations are necessary to retain the original's emotional and motivational impact. Future research should explore other genres and languages to expand on these findings.

The results indicate that philological analysis is essential for maintaining both the linguistic integrity and the cultural relevance of motivational literature in translation. By examining the historical and cultural background of language, philology allows translators to make informed decisions about how to adapt texts to different cultural contexts while preserving their emotional and cognitive impact.

For instance, understanding the cultural connotations behind metaphors and idioms enables translators to find appropriate equivalents in the target language. Similarly, knowledge of the cultural values surrounding success and empowerment allows for translations that resonate with the target audience's worldview, thereby ensuring that the motivational power of the text is not diminished.

The study also highlights the importance of creative translation strategies. In cases where direct translations are not feasible, philological insights can guide translators in crafting culturally relevant adaptations that maintain the original text's motivational effect. For example, replacing individualistic expressions of empowerment with collective ones in collectivist cultures ensures that the translation remains culturally appropriate while still inspiring the reader.

This research demonstrates the critical role of philology in translating motivational literature and fostering cross-cultural understanding. By providing a deep understanding of the linguistic and cultural nuances of both the source and target languages, philological analysis helps bridge the gap between cultures, ensuring that motivational texts retain their emotional and cognitive impact across linguistic divides.

The findings of this study suggest that successful translation of motivational literature requires more than just linguistic fluency; it requires a thorough understanding of the cultural and historical contexts in which both the source and target languages are embedded. Future research could further explore the application of philological techniques in the translation of other genres, as well as examine the long-term effects of translated motivational texts on readers' self-efficacy and empowerment.

References

1. Bandura A. Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change // Psychological Review, 1977, 84(2), 191-215.
2. Clear J. Atomic Habits. – An Imprint of Penguin Random House LLC, 2018.
3. Newmark P. A textbook of translation. – Prentice Hall, 1988.
4. Schäffner C. Metaphor and translation: Implications for a cognitive approach // Journal of Pragmatics, 2004, 36(7), 1253-1269.
5. Summary of James Clear's Atomic Habits (2018). https://jamesclear.com/atomic-habits-summary.
6. Quotes from James Clear's Atomic Habits (2018).

Minhojiddin RAXIMOV,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
biznes boshqaruvi va moliya kafedrasi katta o'qituvchisi

TA'LIM MUASSASALARI TIZIMIDA YOSHLARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim muassasalari tizimida yoshlarning ijodiy faolligi bilan bog'liq muammolarning yechimini topish, yoshlarning ijodiy faoliyatini tashkil etish, ta'lim tizimini samarali boshqarish, uzluksiz ta'lim orqali shaxsni rivojlantirish, qobiliyati, axloqiy va estetik hissiyotlarini qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda milliy va xalqaro ta'lim tendensiyalariga yondashuv omillari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, tarbiya, uzviylik, uzluksizlik, izchillik, ijodiy faollik, kasbiy kompetentlik, milliy va xalqaro ta'lim tendensiyalari.*

Annotation. *This article discusses finding solutions to the problems of youth creative activity within the educational institutions system, organizing their creative work, efficiently managing the education system, developing the individual through continuous education, nurturing their abilities, moral and aesthetic feelings based on values, and addressing the factors related to national and international educational trends.*

Keywords: *education quality, upbringing, continuity, consistency, creative activity, professional competence, national and international educational trends.*

Аннотация. *В статье рассматриваются пути решения проблем творческой активности молодежи в системе образовательных учреждений, организация их творческой деятельности, эффективное управление образовательной системой, развитие личности через непрерывное образование, воспитание способностей, моральных и эстетических чувств на основе ценностей, а также подходы к национальным и международным образовательным тенденциям.*

Ключевые слова: *качество образования, воспитание, преемственность, непрерывность, последовательность, творческая активность, профессиональная компетентность, национальные и международные образовательные тенденции.*

Dunyo ta'limida o'qitish modellarini texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'un holda kashf qilish, ta'lim sifatiga oid nazariya va metodologiyaning yetakchi g'oyalarini tatbiq etish orqali uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar, ilmiy-pedagogik innovatsiyalar, o'qitishning "STEAM – ta'lim" dasturi asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, individuallashtirilgan o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq, tamomila o'zgacha nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unligi hamda hayotiyligini ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqsad ta'lim muassasalari tizimida o'quvchilarning ijodiy faolligi bilan bog'liq muammolarning yechimini topish, ularning ijodiy faoliyatini tashkil etish, ta'lim tizimini samarali boshqarish, maktabdanoq o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirish, qobiliyati, axloqiy va estetik qarashlarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, o'qishga qiziqishi, xohish va istagini, o'zi va atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabati, ruhiy dunyosini rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqishdan iborat. Shunday ekan, ijodkor o'quvchining intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish, uning ichki imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga ko'maklashuvchi maqsadli ta'lim texnologiyasiga alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. Shu sababli milliy ta'lim tizimimiz uchun ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan, o'quvchilarning iste'dodini yuksaltiruvchi, ixtirochilikka qiziqishini rag'batlantiruvchi, shuningdek, ertak, hikoya, qo'shiq, musiqaning obrazli mazmunini tezda idrok eta bilishini, ijodiy imkoniyatlarini nazarda tutgan tadqiqotlar zarur.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar maktabdan boshlab o'quvchilarning zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini qondirib, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlari, mehnat ko'nikmalari, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini rivojlantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratibgina qolmasdan, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishning samarali pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish" [1] kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlarga hamda bu boradagi samarali boshqaruvga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Shuning uchun so'nggi yillarda mazkur soha rivoji yo'lida qator ishlar qilindi. Yuqorida aytilgan maqsadga esa maxsus maktablarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish, nazorat

qilish strategiyalarini takomillashtirish, zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Sohaga tegishli quyidagi me'yoriy hujjatlarda barcha vazifalar belgilangan:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilgan "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda qabul qilgan "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5815-sonli Farmoni;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4444-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risidagi" R-406-sonli qonuni,

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustda qabul qilgan "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 173-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilgan "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda qabul qilgan "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martda qabul qilgan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustda qabul qilgan "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 610-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 9-sentabrdagi PQ-4444-sonli qarori.

Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda uzluksiz ta'limning o'rni beqiyosdir. Shu sabali fan-texnika va ta'lim taraqqiyotini ta'minlashga yildan yilga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zgarishlarning asosiy maqsadi – ta'lim jarayoniga aniq ijobiy mazmun berib, maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish.

Sir emaski, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish sohasiga ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyot tarmoqlari ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni, xalq ta'limi sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va natijadorligini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Hamon demokratik islohotlar qilish, inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shunga qaramay, hozirgi muhit ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini rivojlantirishda shaffoflikni ta'minlash hamda hududlarda ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik jarayonlar xilma-xildir. Ularni tashkil etishda juda ko'p jihatlarni hisobga olish lozim. Pedagogik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o'quv jarayonini bir butun amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, turli fan elementlarini yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o'ziga xos o'rganish predmetini o'z ichiga olgan holda fanlarni xususiyatlariga ko'ra bog'lovchi, integratsiyalashgan kurslarning mazmunini anglatadi [2].

"O'quvchining faoliyatida ijodkorlik, uning samarali ta'lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta'limning pedagogik asosi sanaladi [3]. Maktab o'quvchilaridagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasidir. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega faoliyatga zaruriyat seziladi. Bu esa ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. Barchaga ma'lumkin. bu sohadagi so'nggi islohotlar o'qitish shakllari va mazmunini o'zgartirmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan atalgan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktabi kabi zamonaviy va

innovatsion ta'lim maskanlari ochildi [4: 383]. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yildi, bu esa kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. Zero 2019-yil 26-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizini, 2025-yilgacha 20 foizini, 2030-yilga qadar esa 50 foizini "zamonaviy maktab"larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.

Shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchining aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida buni yaqqol kuzatish mumkin. Chunki bu paytda bolalarning aqliy qobiliyati, diqqati faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V.Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A.Krutetskiy, E.G'oziyev, G'.Shoumarov, O.Roziqov, B.Adizovlar ta'kidlashlaricha, bu davrdagi o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi rivojlanadi. Mazkur yoshdagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari bir-biridan farq qilar ekan, iste'dodi ham turlicha namoyon bo'ladi [5]. Shuning uchun ularning mayl va intilishlarini bilish va ijodiy faoliyatlari, iste'dodlarini rivojlantirish nihoyatda muhim. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq [6: 5].

Sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan mashg'ulotlarning samaradorligi faqatgina dars jarayonida ko'zga tashlanmaydi. Mashg'ulotdan tashqari sharoitlarda ham ularning xatti-harakatlari, shaxsiy yondashuvlari, ijodkorliklari, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashlari, pedagogik jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikka erisha olishlari namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarur ekani davr talabiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. – Toshkent, 2019. https:// president.uz/uz /lists/view/2708.
2. Abdullayeva B. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped.fan.d-ri…diss. – Toshkent, 2006.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Buxoro davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi. "Maktabgacha ta'lim – maktab – oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (ikkinchi to'plam). – Toshkent, 2022.
4. Abdiyeva K. Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish. // Oriental Art and Culture, 2020, III.
5. Ikromov A., Maxmudov S., Anorqulova G. Germaniya: Ta'lim, ilm-fan. Kasb mahorati. 2004, №2.
6. Jo'rayev R., Ibragimov X. Pedagogik jamoaning innovatsioan faoliyati. // Xalq ta'limi. 2004, №2.

Shahnoza MAJIDOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

SURXONDARYO GIDRONIMLARINING MORFOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada Surxondaryo gidronimlarining tarkibiy tuzilishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *gidronim, sodda, qo'shma, tarkibli, kompozitsiya, tarkibiy tuzilishi, tub va yasama, mahsuldor.*

Annotation. *The article discusses the compositional structure of Surkhandarya hydronyms.*

Keywords: *hydronym, simple, compound, compositional, composition, compositional structure, root and artificial, productive.*

Аннотация. *В статье рассматривается формирование структуры сурхандарьинских гидронимов.*

Ключевые слова: *гидроним, простой, сложный, композиционный, композиция, композиционная структура, корневой и искусственный, продуктивный.*

Gidronimlar – geografik xaritalar va planlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, qonun hujjatlari, hukumat qarorlari, ma'muriy boshqaruv organlari faoliyatida, xilma-xil ma'lumotnomalar hamda ilmiy, ta'limiy, axborotga oid nashrlarda uchraydi. Geografik nomlarni xatosiz yozish esa umumiy imloviy savodxonlikning uzviy qismi hisoblanadi.

Gidronim – so'z, lekin suv havzalari va inshootlarini ifodalaydigan atoqli ot. O'zbekiston hududidagi barcha gidronimlar o'zbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yoziladi.

N.Uluqov o'zbek toponimikasidagi toponimlarning morfologik tuzilishiga doir tasniflarni yondashuv asosi va xarakteriga ko'ra uch guruhga ajratadi:

1) yasalish usuli va modeliga ko'ra;
2) yasovchi vositalar va tarkibiy tuzilishiga ko'ra;
3) tarkibi va tarkibidagi lug'aviy birliklarga ko'ra [3: 178].

Shunday ekan, toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifida uning tarkibidagi morfemalar, ya'ni lug'aviy asos, yasovchi affiks, topoformant va toponimik aniqlagichlarni hisobga olish lozim. Yuqoridagi tas-

niflarga ijodiy yondashgan holda Surxondaryo gidronimlarini tarkibiy tuzilishini ko‘rib chiqamiz.

1. Sodda gidronimlar.
2. Qo‘shma gidronimlar.
3. Tarkibli gidronimlar.

Surxondaryo gidronimlari grammatik tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma gidronimlarga bo‘linadi. Sodda gidronimlar, o‘z navbatida, qo‘shimchasiz va qo‘shimchali gidronimlarga ajratiladi. Qo‘shimchasiz, affikssiz gidronimlar deganda birgina otdan iborat, boshqa biron unsur qo‘shilmagan geografik nomlar tushuniladi. Bunday gidronimlar bir necha xil bo‘ladi:

a) oddiy geografik yoki ijtimoiy-iqtisodiy atamalar shaklidagi gidronimlar: Qoq (hovuz, Qoq suvli hovuz, qoq suvi bilan to‘lgan hovuz), Ziyorat (ko‘l) (tabarruk joylarga safar qilish) (Hisor tog‘ yonida), Garm kabi;

b) urug‘-aymoq, el-elat nomlari bilan ataladigan geografik nomlar (etnonimlar): Chag‘atoy (koriz);

d) kishilarning ism-familiya, laqablaridan iborat gidronimlar: Sulton (oliy hukmdor, podsho ma’nosini ifodalaydi), Xo‘ja (hurmatli, obro‘-e’tiborli kishi; xo‘jayin, sohib; savdogar; murabbiy);

e) hayvon nomlaridan kelib chiqqan geografik nomlar: Bursuq (Bo‘rsiq).

Asosga qo‘shimcha affiks qo‘shish orqali yasalgan geografik nomlar qo‘shimchali toponimlar deyiladi. Quyidagi qo‘shimchalar joy nomlari tarkibida ko‘proq uchraydi:

-iy – *g‘arbiy, sharqiy, markaziy, Jo‘yi Kabutiy* kabi;

-lar – *Zarangli Azlar* (soy), *Oqlar* (kanal) kabi;

-lik (-liq) – *Matallik* (buloq), *Yoshlik* (nasos stansiya), *Yigitlik* (buloq), *Luxliq* kabi;

-loq (lox) – *Sangloq* (soy) kabi;

-on – *Chilon* (buloq), *Tojikon, Sufiyon* (kanal) kabi;

-cha (kichraytirish belgisi) – *O‘rmoncha, Sho‘rcha, O‘ng shahobcha, Quduqcha* kabi.

Sodda gidronimlar affiksatsiya usulida yasaladi. Sodda tub gidronimlarning lug‘aviy asosi ma’noviy va morfologik jihatdan turlicha. O‘zbek tilida ularni morfologik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1) ot asosli sodda tub gidronimlar: Ziyorat (ko‘l) (Hisor tog‘ yonida), Zindon, Dabil, Jarma, Qasaba, Dara, Padang, Tasang, Xufor, Zaraut, Angor, Chakar, Jayxun, Sulton;

2) sifat asosli sodda tub gidronimlar: Qoq, To‘palang, Zax, Garm.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi sodda tub gidronimlarning asosiy qismini morfologik jihatdan ot asosli nomlar tashkil etadi, sifat asosli sodda tub gidronimlar esa juda kam.

O‘zbek tili gidronimiyasida sodda tarkibli yasama nomlar ham uchraydi. Ularning tarkibi lug‘aviy asos va yasovchi affiksdan iborat bo‘ladi.

Tarkibi birdan ortiq lug‘aviy asosdan iborat suv obyekti nomi qo‘shma gidronim bo‘lib, ular kompozitsiya usuli bilan yasaladi [1: 62]. Qo‘shma gidronimlarning yasalishida *ko‘l, soy, ariq, daryo, buloq, jo‘y, shox, quduq koriz, hovuz* kabi apellyativ gidronimik aniqlagichlar faol qo‘llanadi. Ular qo‘shma, shuningdek, murakkab toponimlarning ma’no tomonini aniqlovchi qismlardir. Bu, ayniqsa, quyidagi gidronimlarda yaqqol ko‘rinadi: *Aksarisoy, Bo‘stonsoy, Zarangbuloq, G‘o‘rinbuloq, Yangiariq, Panjobdaryo, Chuqurko‘l, Turkkoriz, Sharifjilg‘a, Qizilhovuz, Shirinquduq* (Boysun, Sherobod tumani) kabi.

O‘zbek tili gidronimik tizimida qo‘shma gidronimlar miqdor jihatidan ko‘p. Masalan, Surxondaryo viloyati hududidan to‘plangan mingdan ziyod gidronimlarning olti yuzdan ko‘prog‘i qo‘shma gidronimlardir. Bu gidronimlarning morfologik tarkibida ikkinchi komponent sifatida asosan gidronimik aniqlagichlar qo‘llanadi: *Kamolisoy, Ro‘ziboysoy, Davlatsoy, Vaxshivordaryo, Shaymatariq* kabi.

Qo‘shma gidronimlarni morfologik asosi va shakllanish modeliga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

I. Ot + ot:

1) antroponim + gidronimik aniqlagich: Tairariq (Tohirariq) (Boysun tumani Sayrob qishlog‘i), To‘lashariq (Sherobod tumani Kampirtepa qishlog‘i), Boybo‘ribuloq, Qunduzbuloq (Sherobod tumani Qizilolma qishlog‘i), Fotimabuloq, Xolmirzaquduq (Sherobod tumani Qizilolma qishlog‘i) kabi;

2) toponim + gidronimik aniqlagich: Surxondaryo, Boysundaryo, Oltinsoydaryo, Sheroboddaryo, Muzrabotsoy, Oltinsoy (soy), Choshsoy, Bandixonsoy, Darbanddaryo (Boysun tumani), Dashnobodsoy (Sariosiyo tumani) kabi;

3) etnonim + gidronimik aniqlagich: Aymoqariq (Sherobod tumani Kampirtepa qishlog‘i), Qozoqsoy (Sariosiyo tumani), Turkkoriz (Sherobod qishlog‘i Pashxurt qishlog‘i), Duboyariq (Sariosiyo tumani) kabi.

II. Sifat + ot (sifat-gidronimik aniqlagich): Qizilariq (Boysun tumani Sayrob qishlog‘i), Qizilhovuz (Sherobod tumani Xomkon qishlog‘i), Chuchukquduq (Denov qishlog‘i) kabi.

III. Son + ot: Beshbuloq (Sherobod tumani Xomkon qishlog‘i), Beshbuloq (Sherobod tumani Xo‘jaulkan qishlog‘i), Beshbuloq (Sherobod tumani Vandob qishlog‘i), Beshbuloq (Denov tumani) kabi.

Shuningdek, qo‘shma gidronimlar sirasiga izofali birikmadan yasalgan nomlar ham kiradi. Izofa qo‘shish, ko‘paytirish demakdir. Hozirgi tojik tilida, umuman, eron guruhi tillarida ham so‘zlarning aniqlovchili aloqaga kirishuvi izofa tarkibi (tarkibi izofa) deb ataladi [2: 103]. Shuningdek, izofa tarkibini tashkil qilgan qismlarning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlovchi ***-i, -yi*** ko‘rsatkichlari ham izofa deyiladi.

Tojik adabiy tilida so‘zlarning atributiv-adyektiv bog‘lanishi izofali tuzilmani yuzaga keltiradi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, jonli so‘zlashuv va turli sheva, lahjalarda, o‘zbek badiiy adabiyotida izofali birikmalar ko‘p uchraydi.

Fors-tojik tili ta’sirida yuzaga kelgan mazkur sintaktik hodisa hozirgi o‘zbek adabiy tilining nafaqat oddiy leksik, balki onomastik sathida ham kuzatiladi [2: 114]. Forsiy izofa asosida yaratilgan nomlar o‘zbek tili gidronimiyasida ham uchraydi. Masalan, *Jo‘yi bachi she’r, Jo‘yi Yusuf* (Boysun tumani Darband qishlog‘i), *Jo‘yi Chinor, Jo‘yi Kabutiy, Jo‘yi Kalon, Jo‘yi Qayirma* (Boysun tumani Sayrob qishlog‘i), *Jo‘yi Chinor*

(Boysun tumani Panjob qishlog'i), *Obidara, Obikanchar, Obinargiz, Obizarang* (Ko'hitangtog' yonbag'irlari), *Dani obitol* (Boysun tumani Darband qishlog'i), *Obishifo* (Boysun tumani Darband qishlog'i), *Obishir* (Oltinsoy tumani), *Obisho'rdaryo* (Boysun tumani Panjob qishlog'i), *Labisho'r* (Boysun tumani Darband qishlog'i), *Quli Kenja* (Sherobod tumani Vandob qishlog'i), *Quli Gurkxona, Quli Jo'raboy, Quli Xumra* (Sherobod tumani Vandob qishlog'i), *Sarijo'y* (Sariosiyo tumani) kabi gidronimlar ham forsiy izofa asosida yaratilgan.

Xullas, o'zbek tilidagi gidronimlar yasalishida qo'shma gidronimlar salmoqli o'rin tutadi. Bu kompozitsiya usulining faol qo'llanishi mahsuli bo'lib, gidronimlar yasalishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Begaliyev N. Samarqand viloyati gidronimlari (lisoniy tahlil): Filol.fan.nomz...diss. avtoref. – Samarqand, 1994.
2. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
3. Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.

Iroda XAYDAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

SO'Z TARKIBI KOMPONENTLARINING LINGVISTIK TABIATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada so'z tarkibi qismlarining lingvistik tabiati, bu borada o'zbek va xorijiy tilshunoslikda mavjud qarashlar, tasniflash tamoyillari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *o'zak va affiks morfemalar, so'z yasalishi, morf, allomorf, leksik o'zak morfema, grammatik o'zak morfema.*

Annotation. *This article presents different opinions about the linguistic nature of parts of speech and existing views on classification principles in Uzbek and foreign linguistics.*

Keywords: *root and affix morphemes, word formation, morph, allomorph, lexical root morpheme, grammatical root morpheme.*

Аннотация. *В данной статье изложены взгляды на лингвистическую природу частей речи, существующие в узбекском и зарубежном языкознании на классификационные принципы.*

Ключевые слова: *основные и аффиксные морфемы, словообразование, морфология, алломорф, лексическая основная морфема, грамматическая основная морфема.*

Morfema, asosan, til birligi sifatida talqin etilsa-da, ba'zan uning nutq birligi tarzida tavsiflanish holatlari ham kuzatiladi. Jumladan, Yolqin Tojiyevga ko'ra "…bosh morfemaga nisbatan, umuman, affiks emas, balki aniq ma'no va vazifa bajaruvchi ergash morfema sifatida ishtirok etadi, shu maqomga ega bo'ladi. Demak, u, umuman, affiks sifatida til birligiga kiradi, falon ma'nodagi fe'l yasashi, falon ma'nodagi bosh morfemaga qo'shilib kelayotganiga ko'ra nutq birligi ham hisoblanadi" [1: 49]. Y.Tojiyev bu o'rinda *-la* affiksining xususiyatlariga to'xtalib, ushbu affiks til birligi sifatida, asosan, fe'l yasovchi va shakl hosil qiluvchi affiks sifatida mavjudligini ta'kidlaydi. Uning ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu morfemaning omonim ekaniga, shuningdek, u *pichoqla, quchoqla* yoki *qatiqla* so'zlarining har birida boshqa-boshqa ma'nolarda qo'llanmoqda. Ana shu imkoniyatning o'zini namoyon etishi bilan u nutq birligi hamdir [2: 82].

Bizningcha, bu affiks yagona affiks emasligi bois ham uning mazkur xususiyatini hisobga olish muhim ko'rinadi. Chunki fe'l yasovchi va shakl hosil qiluvchi affiks sifatida qaralganida, omonimlik doirasida bo'lsa, fe'l yasovchi sifatida (*pichoqla, quchoqla* yoki *qatiqla* so'zlarining tarkibida) ko'p ma'noli ekani namoyon bo'lmoqda. Y.Tojiyev morfema, xususan, affiks morfemaning lingvistik tabiatini mukammal yoritib berishi, morfemaning til birligi ekanligini qayd etgan. Bu borada yana shunga ahamiyat qaratish kerakki, grammatik ma'no ifodalovchi predlog, ko'makchi, bog'lovchi kabi o'zak morfema qolipida keluvchi elementlar ham so'zlar (qo'shma gap tarkibida uning qismlari) o'rtasida grammatik munosabat shakllanishida qatnashadi [2: 82]. Ular ham ushbu xususiyatlariga ko'ra morfema ekanligi izoh talab qilmaydi. Fikrimiz dalilini Azim Hojiyev ko'makchi morfemalarni erkin, bog'liq va nisbiy bog'liq morfemalarga tasniflash morfemalar mohiyatini yoritishda hech qanday ahamiyat kasb etmasligi haqidagi qarashlariga muvofiqligida deb bilamiz.

Abdulhamid Nurmonov bu xildagi masalalarning nazariy jihatlari xususida to'xtalib, til belgilar sistemasi ekanini yoki uning mazkur xususiyati geterogen munosabatga asoslanishini qayd etadi [3: 52]. Mazkur sistemaning geterogenligi uning gomogen birliklar munosabatidan tashkil topgan bir necha kichik birliklarni o'z ichida birlashtirishida namoyon bo'ladi. Bizningcha, A.Nurmonov qayd etgan geterogen xususiyat til sistemasining pog'onali munosabatga asoslanganida ko'rinadi. O'z navbatida, geterogen sistema gomogen xarakterli tashkil etuvchilarning birlashuvidan shakllangan mikrosistemalardan tarkib topadi. Aslida gomogen va geterogen munosabat mantiqiy, falsafiylikka asoslanadi. Shundan kelib chiqqan holda qayd etish lozimki, morfemalar ham geterogen sistema sifatida leksik, grammatik va oraliq morfemalarni o'z ichiga olishi bilan birgalikda morfem sistema tarkibidagi yuqoridagi har bir guruh,

o‘z navbatida, yana kichik sistemalarga bo‘linishi uchun asos bo‘ladi. A.Nurmonovning mazkur qarashlari bugungi zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida shakllangan qarashlarga to‘la muvofiq keladi. Olimning “grammatik yoki ko‘makchi morfemalar guruhiga kirgan morfemalar “ko‘makchilik” belgisi asosida bir butunni, ya’ni sistemani tashkil qiladi, ayni paytda, ular ma’lum differensial belgilariga ko‘ra yana kichik guruhlarga, sinflarga bo‘linadi”, – degan qarashi yuqoridagi mulohazalarimizning dalili bo‘la oladi [3: 52]. A.Nurmonov bu borada fikr bildirar ekan, jumladan, kelishik qo‘shimchalari bilan ko‘makchilar o‘rtasidagi farqlovchi belgi nimada ekanligiga e’tibor qaratadi va ulardagi analitiklik, sintetiklik xususiyatlarini masalaning hal qilinishidagi omil ekanini ko‘rsatadi. Olim shu asosda erkin va bog‘liq morfemalarning birini boshqasidan farqlab beradi [3: 52].

Shu o‘rinda shakl va ma’no uzviyligi til birligini hosil qilishi (so‘z, morfema), bunda shakl bilan bir qatorda ma’noning ham o‘rni borligi, bu ma’noda shu tilda egalarining to‘plangan tajribasining ifodasi qat’iy ekani hisobga olinmog‘i muhim. Zotan, til birligining yaxlitligi, uning bir butun sifatida shakllanishi va namoyon bo‘lishi o‘zida mujassam qilgan ma’nosi bilan sodir bo‘ladi. Bunda shaklning o‘zi belgiga xos barcha tomonlarni ifodalay olmasligi, belgida ma’noning alohida ahamiyati borligi fikrimiz dalilidir. Bu esa tilda hech qanday alohida narsalarning yo‘q ekanini, istalgan alohida olingan tashkil etuvchi unsur, har qanday holatda ham, butunning qismini taqozo etishini tasdiqlaydi [4: 145-146].

“O‘zbek tili grammatikasi” kitobining birinchi tomida so‘zning morfologik strukturasi so‘zning morfemalarga, ma’no bildiradigan eng kichik qismlarga ajralish xususiyatlari ekani qayd etiladi va ushbu strukturalarning har biri tillararo ham, bir tilning o‘z ichida ham farqlanishi ko‘rsatib beriladi. Kitobda bir til doirasida, shu tilning o‘z ichida farqlanishi til taraqqiyotining turli davrlariga, shevalarga va stilistik xususiyatlarga ko‘ra bo‘lishi mumkinligi keng yoritilgan. Bu fikrlarning asosi sifatida ayrim misollar keltirilgan. Jumladan, *o‘rt – o‘t* (*olov* ma’nosidagi *o‘t* so‘zi aslida *o‘rt* shaklida bo‘lgani: *o‘rtanmoq, yonmoq*), *uvun – un*, *bo‘yinchoq – mo‘yinchoq – munchoq* kabi [5: 19].

Bu haqda fikr bildirganida H.Zokirova fonema so‘z va morfemalar ichida diskret element sifatida o‘zaro sintagmatik munosabatda bo‘lishi, har bir tilda so‘z va morfemalarning ma’lum fonetik struktura tiplari (modellari) mavjudligini, ammo mazkur masala shu vaqtga qadar tilshunoslikda yetarli o‘rganilmaganini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ma’lum so‘z bir necha morfemalar munosabatidan tashkil topishi va ma’lum morfema turli morfemik qurshovda turlicha allomorf (variant)lar sifatida yuzaga chiqishi mumkin ekanini ko‘rsatib beradi (qizil + ar – qizar (il-o), sarig‘ + ay (ar) – sarg‘ay (i-o), bilak + i – bilagi (k-g) kabi so‘zlarda qizil – qiz, sarig‘ – sarg‘, bilak – bilag morflari bir morfemaning ma’lum pozitsiyaga xoslangan turli variantlaridir). H.Zokirova bu mulohazalarini bayon etish barobarida grammatika grammatik ma’no va uning ifodalanish vositalari haqidagi ta’limot ekanini alohida e’tiborga olish lozimligini qayd etadi [6: 18].

A.Nurmonov tilning sistemaviy xarakteri haqida fikr bildirib, Vilgelm fon Gumboldtning jahon tilshunosligida birinchilardan bo‘lib tilning sistemaviy tabiatga ega ekanini asoslaganini qayd etadi va uning tilda hech qanday alohidalik yo‘qligi, tilning har bir alohida deb tasavvur qilinishi mumkin bo‘lgan elementi butunning bir qismini namoyon qilishi bilan bog‘liq fikrlarini ma’qullaydi. U tilni har bir tolasi boshqasi bilan zanjir bo‘lib choklangan ulkan to‘qimaga o‘xshatadi. Tildan foydalanayotgan har bir individ bu ulkan to‘qimaning faqat bir qismi bilan ish ko‘rsa ham, lekin bu qism boshqalari bilan muqarrar aloqa hamda ichki munosabatlar garmoniyasidan iborat bo‘lgangi uchun butun bir to‘qima o‘laroq namoyon bo‘ladi [7: 30]. Bu esa morfemaning alohida o‘rganilishi uning til sistemasidan butunlay uzib olgan holda tadqiq etilishini emas, balki tom ma’noda uning mazkur murakkab va majmuaviy xarakterli tizimda tutgan o‘rnini birlik sifatida ham, belgi sifatida ham yoritishimizga monelik qilmasligini asoslashga tayanch bo‘ladi.

A.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova, Sh.Iskandarova, D.Nabiyevalarning “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya” kitobida ham mazkur masala borasida mukammal ma’lumot keltiriladi. Mazkur asarda qayd etilgan “bir sathga mansub, murakkablik darajasiga ko‘ra bir xil bo‘lgan lisoniy birliklar munosabatidan tashqari, turli sathga mansub, turli murakkablikdagi birliklar ham o‘zaro munosabatga kirishishi” [8: 12] haqidagi qarashlar morfemaning fonemaning evaziga, so‘zning morfemaning evaziga shakllanishini dalillash imkonini beradi.

Yuqoridagilar asosida shuni alohida qayd etamizki, morfemalarning lingvistik tabiati haqida hozirgi tilshunoslikda turli xil, ba’zan qarama-qarshi, ziddiyatli fikrlar ham mavjud. Ammo ushbu qarashlarning ko‘pchiligida morfema tilning bo‘linmas, eng kichik ma’noli birligi tarzida talqin etiladi. Biz esa tadqiqotimiz davomida uning ana shu xususiyatiga asoslangan holda ishimizda unga obyekt sifatida yondashamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiyev Y. Yana so‘z, leksema, so‘zshakl, morfema, morfemika haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2008, №6.
2. Xayrullayev X. Til va nutq birliklarining iyerarxik munosabatlari: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2018.
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1971.
5. O‘zbek tili grammatikasi. Sintaksis. II tom. – Toshkent, 1975.
6. Zokirova H. O‘zbek tili morfonologiyasi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Andijon, 2016.
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
8. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent: Sharq, 2001.

Dildora TUXTAYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KELIB CHIQISH MANBALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning madaniyat bilan bog'liqligi va bu haqida tilshunos olimlarning olib borgan tadqiqotlari ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birliklar, frazeologiya, lingvomadaniy, madaniyat, zamonaviy tilshunoslik, insonning intellektual qobiliyatlari, stereotip, madaniy qadriyatlar.*

Annotation. *This article shows the connection of phraseological units in English and Uzbek languages with culture and the research of linguists on this matter.*

Keywords: *phraseological units, phraseology, linguoculturology, culture, modern linguistics, human intellectual abilities, stereotype, cultural values.*

Аннотация. *В данной статье показана связь фразеологизмов английского и узбекского языков с культурой, даются исследования лингвистов по этому вопросу.*

Ключевые слова: *фразеологические единицы, фразеология, лингвокультурология, культура, современная лингвистика, интеллектуальные способности человека, стереотип, культурные ценности.*

Frazeologiya – har bir tilning lug'at boyligini oshirishga xizmat qiluvchi bebaho xazina bo'lib, muloqotda frazeologik birliklarning qo'llanilishi har qanday nutqni mazmunli va ifodali qiladi. Nutqda so'zlovchi frazeologik birliklarni qo'llash orqali tinglovchiga shu tilga xos milliylik, tarix, madaniyat haqida tushunchalar ham yetkaziladi. Shuning uchun olimlarning ko'pchiligi frazeologik birliklarni madaniyat hodisasi sifatida tadqiq etadi.

Frazeologik birliklarning madaniyat bilan bog'liqligi zamonaviy tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. V.N.Telia frazeologik birliklarning lingvomadaniy yondashuv asoschilaridan biri bo'lib, bu haqida quyidagi fikrni ilgari suradi: "Frazeologiya insonning milliy-madaniy o'zligini aks ettiruvchi oyna bo'lib, undagi madaniy standartlar, stereotiplar, afsona va boshqalar ma'lum bir jamiyatning lingvomadaniy dunyoqarashini aks ettiradi [5: 288]. G.B.Antrushinaga ko'ra esa "frazeologiya – xalqning urf-odatlari, an'ana va xurofotlarining yorqin hamda qiziqarli eskizlari, uning o'tmish tarixi haqidagi xotiralar, xalq qo'shiqlari va ertaklarining parchalari to'plangan rasm galereyasining bir turidir" [1: 225].

Ingliz tilidagi milliy-madaniy xususiyatlarga xos bo'lgan frazeologik birliklar mazmun va mavzusiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi [2: 70–74]:

– ingliz xalqining an'ana va madaniyatini ifodalovchi frazeologik birliklar (*baker's dozen)*;

– irim-sirimlar bilan bog'liq frazeologik birliklar (*cross one's finger)*;

– Buyuk Britaniya va Angliya mashhur olimlari, yozuvchilari, siyosatchilar nomi bilan bog'liq frazeologik birliklar (*a Florence Nightingale);*

– tarixiy faktlarni ifodalovchi frazeologik birliklar (*the curse of Scotland)*;

– diniy manbalar bilan bog'liq frazeologik birliklar (*prodigal son*);

– xalq og'zaki ijodiga xos masal va matallardan kelib chiqqan frazeologik birliklar (*Tom Thumb)*;

– afsona va miflarga asoslangan frazeologik birliklar *(Halcyon days)*;

– badiiy asarlar bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar *(a fool's paradise)*;

– qadimgi rim va grek afsonalaridan kelib chiqqan frazeologik birliklar *(Pandora's box)* [2: 70–74].

Keltirib o'tilgan mazkur tasnif asosida ingliz va o'zbek tillarida inson aqliy qobiliyatini ifodalovchi frazeologik birliklarni shakllanish manbalariga ko'ra quyidagicha tahlil qilish mumkin:

– *terminologik yoki biror-bir kasbga oid leksemalar asosida shakllangan frazeologik birliklar.* Ingliz tilidagi *"chinese arithmetic"* juda murakkab va tushunilishi qiyin bo'lgan holatda ishlatiladi. Bu idiomaning kelib chiqishi bevosita Xitoy arifmetikasi bilan bog'liq.

O'zbek tilidagi *"alifni kaltak deyolmaydi"* frazeologik birikmasi nodon, bilimsiz kishiga nisbatan qo'llanadi. Bu idiomaning shakllanishi o'zbek tilining o'tmishi bilan bog'liq. VIII–IX asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida arab tilidan keng foydalanilgan. Ma'lumki, "alif" arab alifbosidagi eng birinchi va yozilishi jihatdan eng sodda harf hisoblanadi. Bilimsiz va nodon kishilarni hatto alif harfini ham tanimaydigan, bilmaydigan insonga qiyoslanadi;

– *ingliz va o'zbek adabiyoti asosida shakllangan frazeologik birliklar.* Ingliz tilida turli sohalarda qobiliyatli, epchil insonlarga nisbatan *"a man for all season"* ishlatiladi. Bu frazeologik birlik Robert Boltning 1960-yilda yozilgan asaridan shakllangan, keyinchalik bu asarga kinofilm ham ishlangan.

O'zbek tilidagi *"telba majnun"* Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi bosh qahramon Majnunning nomidan kelib chiqqan. Majnun Layli ishqida aqldan ozib telba bo'ladi, shuning uchun bu ibora ishq kuyida es-hushini yo'qotgan shaxsga nisbatan ishlatiladi;

– tarixiy voqea, shaxslar yoki faktlar asosida shakllangan frazeologik birliklar – *Renaissance man* Yevropada XIV–XVII asrlardagi Renessans davri asosida shakllangan bo'lib, bir necha fan sohalarining mukammal bilimlarini egallagan, ilmli, ma'rifatli kishilarga nisbatan ishlatilgan;

– *muqaddas bitiklar asosida shakllangan frazeologik birliklar.* Ingliz tilidagi *"as wise as Solomon"* idiomasi bunga misol bo'la oladi. "Bibliya"ga muvofiq Sulaymon kuch-qudrat va bilimda, ma'rifatda eng qudratli shoh bo'lgan. Bu ibora, asosan, ilm dunyosida tengsiz bo'lgan insonga nisbatan qo'llanadi;

– *kundalik turmush tarzi asosida shakllangan frazeologik birliklar.* O'zbek tilidagi *"tovuq miya", "qovoqkalla"*, ingliz tilidagi *"a wooden head"*, *"cabbage head"* kabi frazeologik birliklar bunga misol bo'la oladi.

Xullas, ingliz va o'zbek tillarida idiomalar kelib chiqishiga ko'ra turli manbalarga borib taqaladi. Lekin yuqorida keltirilgan ba'zi misollardan ko'rish mumkinki, ikki xalq tili va madaniyati o'rtasida mushtaraklik ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Антрушина Г.Б., Афанасьева О.В., Морозова Н.Н. Лексикология английского языка / English Lexicology. – Москва: Дрофа, 2001.
2. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural linguistics. – Tashkent, 2019.
3. Maslova V.A. Cultural linguistics. – Moscow: Akademiya, 2004.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа "Языки русской культуры", 1996.

Robiya VAXOBJONOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

O'ZBEK ADABIY TILI PUBLITSISTIK USLUBINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Publitsistika – davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy va boshqa muhim masalalarini o'zida aks ettiruvchi adabiy ijod turi. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy fikr uyg'otish, ommaviy ongni o'stirish, voqea-hodisalardan xabardor qilish, shaxsiy munosabatni shakllantirishdan iborat. U o'zbek adabiy tilida nutq uslubi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zbek tilida gazetalar chop etila boshlashi, nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. Vaqtli matbuot va nashriyotda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan ko'plab materiallarning bosilishi, radio va televideniye orqali siyosiy-ijtimoiy turmush masalalariga doir ma'ruza va suhbatlar muntazam eshittirilishi, ko'rsatilishi publitsistik uslubning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi [1: 26]. Publitsistika hozirgi kunda janr jihatidan xabar, reportaj, hisobot, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, esse, ochiq xat kabi turlarga bo'linadi. Bugungi kungacha adabiy tilimizning bu uslubi atroflicha o'rganilib, tadqiq etib kelinmoqda.

O'rta Osiyo xususan yurtimizda publitsistika ancha qadimiy asosga ega. Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarlari publitsistik ocherklar qatoriga kiritiladi [5: 594–599]. Bizningcha, Alisher Navoiydan ham oldin yashab o'tgan buyuk mutafakkir Imom Al-Buxoriyning boy merosini ham publitsistikaning yozma ko'rinishi sifatida o'rganish mumkin. Chunki turfa xil insonlar bilan suhbatlashish va ularning bergan ma'lumotlarini yig'ish (reportaj) asosida "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad" asarlari yaratilgan.

Mustamlaka davrida ijtimoiy-siyosiy tuzum, madaniy-ma'rifiy turmushdagi o'zgarishlar natijasida o'zbek publitsistikasi yangi bosqichga o'tdi. Bu o'z navbatida XX asr boshlarida mamlakatda yuzaga kelgan jadidchilik harakati bilan bog'liq. Bu o'rinda matbuot alohida ahamiyat kasb etib, Abdulhamid Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, "Matbuot yettinchi davlatdir". Bu kunda matbuotning ahamiyati buyukdir. Xususan, Sharq xalqi bu kun matbuotning ahamiyatini tushunmishdir", – deydi. Shu o'rinda milliy matbuot, jurnalistika va bosma nashr qachon paydo bo'ldi, degan savol tug'iladi. Tarixda ilk bora Chor Rossiyasining mustabid mustamlaka zulmiga qarshi paydo bo'lib rivojlangan tinch demokratik milliy madaniy-ma'rifiy harakat – jadidchilikning yutug'i sifatida paydo bo'ldi [4: 119].

Chunonchi, "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoyi Farg'ona", "Najot", "Samarqand", "Hurriyat" kabi gazetalar, "Oyna", "Chayon" kabi jurnallar Turkiston tarixida muhim o'rin egallaydi [3: 17].

Ommaviy axborot vositalari asosan to'rt xil ko'rinishga ega: gazeta, jurnal, radio va televideniye. XX asr boshlariga nazar solsak, Turkiston o'lkasida gazeta yetakchi o'rinni egallagan. 1870-yildan chiqa boshlagan ilk gazeta – "Туркестанские ведомосты" va uning o'zbek tilidagi ilovasi "Turkiston viloyati gazeti" edi. Undan so'ng Ivan Gerey muharrirligida o'zbek tilida "O'rta Osiyo umr-guzaronligi" gazetasi chop etila boshlandi. Keyinchalik ushbu gazeta Ismoil Gabidov (Ismoil Obidov) boshchiligida "Taraqqiy" nomi bilan nashr etildi. "Taraqqiy"ni o'ziga dushman bilgan rus hukumati 1906-yilning 21-avgustida 20-sonini musodara qilib tugatdi. Munavvar qori Abdurashidxonov Chor Rossiyasining rasmiy ruxsati bilan 1906-yilning 6-sentabridan boshlab o'zi muharrirligida "Xurshid" gazetasini chiqardi. 1917-yil Fevral inqilobidan keyin "Turkiston viloyati gazeti" Munavvar qori qo'liga

o'tib, "Najot" deb qayta nomlandi. Bundan tashqari ushbu davrlarda "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Samarqand" kabi gazetalar nashr etilgan bo'lsa, "Olosh", "Kengash", "Sho'roi Islom", "Turon", "Turk eli", "Ulug' Turkiston", "El bayrog'i", "Ravnaq ul-islom", "Ozod", "Sadoyi taronchi" kabi gazetalar ham chiqqani manbalarda keltirilgan [4: 53]. Bu gazetalarni nashr etishda millat fidoyilari – Munavvar qori, Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. Publitsistik uslubning rivojlanishida Samarqandda chiqa boshlagan "Oyina", Toshkentda "Al-Isloh", Hamza Hakimzoda Niyoziy rahbarligida "Hurriyat", Toshkentda "Chayon", "Cho'l chayoni" (hajviy) kabi jurnallarning o'rni katta. Keyinchalik "Sadoq", "Ishchilar dunyosi", "Izhor ul-Haq", "Bayon ul-Haq", "Yurt", "Kengash" kabi jurnallar ham nashr etilgan.

Oktabr o'zgarishlaridan so'ng "Inqilob", "Yer yuzi", "Mushtum", keyinchalik "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Guliston" jurnallari ham nashr etilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, "Tafakkur", "Muloqot", "Jahon adabiyoti", "Gulxan", "Saodat", "G'uncha" kabi jurnallar ham ketma-ket nashr yuzini ko'rdi. "O'zbek tili stilistikasi" kitobida [2: 27] publitsistikaning janrlari uch guruhga: 1) gazeta; 2) og'zaki publitsistika; 3) radio va televideniye turlariga bo'linishi qayd etilgan. Ko'rinadiki, ushbu kitobda jurnallar publitsistik uslubning janri sifatida ko'rsatilmagan.

Shu o'rinda publitsistikaning ayrim janrlariga to'xtalishni joiz deb topdik:

– **maqola** – publitsistik janr sifatida ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, siyosat, iqtisodiyot, fan-texnika, madaniyat sohasidagi yangiliklar ommaga yetkaziladi, kamchiliklar tanqid qilinadi. Publitsistikada bosh maqola, nazariy, targ'ibot maqola, muammoli maqola kabi turlari keng qo'llanadi. O'zbekistonda maqola janri tarixi asosan "Turkiston viloyati gazeti"ga borib taqaladi;

– **ocherk** – publitsistikaning yetakchi janrlaridan biri bo'lib, haqiqiy hayotda ro'y bergan voqea-hodisalarning yoritilishi, hujjatlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ushbu janr o'zbek adabiyotiga XX asrning 20-yillarida kirib kelgan bo'lsa ham, chuqur tarixiy ildizga ega. Xususan, Kultegin yodnomalari, "Boburnoma" asarlarida ham ocherkka xos jihatlar ko'zga tashlanadi. Ocherk janrining shakllanishida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor singari adiblarning hissasi katta;

– **felyeton** – ijtimoiy hayot masalalarini satira va yumor vositasida yoritadi. Ushbu janrning asosiy vazifasi jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy tomonlarini qamrab olgan holda aks ettirish, kamchilik, nuqsonlar, ijtimoiy illatlarni fosh etish;

– **pamflet** – biror siyosiy tuzum, ijtimoiy voqelik, ma'lum bir ijtimoiy guruhlar faoliyati, xatti-harakatlarini fosh qiluvchi hajviy-tanqidiy publitsistik asar. Ushbu janrda jamiyatdagi turli shaxslar xarakteridagi nuqsonlar achchiq kinoya, o'tkir sarkazm bilan yoritiladi;

– **esse** – uncha katta bo'lmagan nasriy asar bo'lib, erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatidan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning bir turi hisoblanadi. Essening maqsadi – o'quvchini faol fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Unda ma'lum bir shaxs yoki narsa, voqea-hodisaga subyektiv munosabat bildiriladi. Mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida ko'zga tashlanadi. O'zbek adabiyotiga XX asrning 90-yillaridan boshlab kirib kelgan;

– **reportaj** – informatsion xususiyatga ega bo'lib, bu janrda jurnalist o'zi guvoh bo'lgan voqea-hodisalarni o'z tilidan gapirib zudlik bilan ommaga yetkazadi. Reportajda lavha, suhbat, hisobot va boshqalar ham qo'shilib ketishi mumkin [3: 56, 58, 93].


Publitsistik uslubning yana bir yo'nalishi sifatida XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida ommaviy uslubning yangi turi – radio kirib keldi. Radio yunoncha "radius" – nur, "radio" – nur taratmoq ma'nosini bildiradi (1895-yilda A.S.Popov tomonidan ixtiro qilingan). O'zbekistondagi radiokanal – O'rta Osiyodagi ilk radiostansiya bo'lib, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi 1920-yilda tashkil etilgan. Garchi radio publitsistikaning og'zaki nutqqa asoslangan turi bo'lsa-da, o'z faoliyatida matbuot qonuniyatlariga rioya qiladi, ijtimoiy hayotni aks ettiradi, jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Radioning ham bosh maqsadi publitsistikaning boshqa turlari singari ijtimoiy ma'lumot tarqatishdir.

Xullas, publitsistik uslub mamlakatimizda ancha yillar muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning adabiy uslub sifatida shakllanishi, taraqqiyoti XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda tuzumga qarshi kurash, omma ongi, ijtimoiy taffakurni o'stirish, ma'naviy jihatdan rivojlanish asosiy maqsad bo'lib, bunda publitsistik uslub asosiy ifoda kuchiga aylangan edi. Ushbu uslub rivojida esa kerak bo'lsa jonlarini ham xatarga qo'yib ijod qilgan fidoyi jadid ziyolilarning xizmatlari katta. Bugungi kunga kelib publitsistika o'z rivojlanishining eng yuksak cho'qqisiga chiqdi, deya olamiz. Chunki gazeta, jurnal, radio, televideniye bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoq va platformalar: instagram, telegram, facebook, YouTube va boshqalardan publitsistikaning yangi vositalari sifatida foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalilova M. O'zbek tili stilistikasi asoslari. – Farg'ona, 2009.
2. Sultonmurodova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Yurist-media markazi, 2009.
3. Qozoqboyev T. Jurnalistika asoslari. – Toshkent: Musiqa, 2007.
4. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov (risola). – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
5. Madaminova G. Publitsistika uslubida maqol va matallarning ifodalanish xususiyatlari.// Journal of universal science research, 2017.

МУЛЬТИМОДАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ



Современное педагогическое образование не может стоять на месте, педагогическая наука постоянно развивается и открывает новые горизонты, появляются новые направления, расширяющие возможности обучения и воспитания подрастающего поколения.

Важным аспектом современного педагогического образования является интеграция различных научных подходов и методов, что позволяет находить новые пути решения образовательных задач, разрабатывать инновационные подходы к обучению и воспитанию детей.

Одним из новых направлений в современной педагогической науке стало *мультимодальное обучение*, суть которого заключается в использовании в процессе обучения для доставки информации нескольких видов модальностей – *слуховой, зрительной и кинестетической,* что становится мощным инструментом для улучшения результативности учебного процесса. Мультимодальное обучение – это инновационный подход к образованию, позволяющий создать более эффективные и интерактивные уроки, которые способствуют лучшему пониманию материала и активному участию обучающихся. Одни лучше усваивают информацию, когда видят её (зрительная модальность), другие предпочитают слышать (слуховая модальность), а третьи – познавать через физические ощущения (кинестетическая модальность). Объединение всех трёх модальностей позволяет каждому ученику или студенту выбрать самый подходящий метод для лучшего усвоения информации.

Ещё одно преимущество мультимодального обучения – его способность делать занятия более интересными и увлекательными, например, вместо традиционной лекции или урока мультимодальное обучение предлагает разнообразные активности, включающие в себя использование видео, аудиозаписей, графических изображений и физического движения. Это помогает обучающимся оставаться заинтересованными и активно участвовать в процессе обучения.

Мультимодальное обучение создаёт полноценную педагогическую среду, способную стимулировать все чувства учащихся за счёт комбинирования различных методик, таких как занятия с презентациями, видеоуроки с интерактивными заданиями или даже ролевые игры.

При мультимодальном обучении учащиеся активно вовлечены в процесс обучения, имеют возможность самостоятельно исследовать материалы, проводить эксперименты или решать задачи на основе полученных знаний, что развивает у них критическое мышление и творческие способности.

Мультимодальное обучение включает разнообразные виды текстовых, аудио-, видеоматериалов, а также графики и диаграммы, которые представляют информацию в разной форме, что способствует лучшему пониманию и доступности материала для различных категорий учащихся.

Мультимодальное обучение играет большую роль в изучении языков. Учащимся предлагают осваивать новые слова и грамматические правила посредством чтения, аудирования, письма и разговорной практики. Этот подход помогает обучающимся задействовать все свои сенсорные способности и облегчает процесс запоминания информации.

Таким образом, мультимодальное обучение открывает возможности для повышения качества образования. Благодаря использованию нескольких каналов восприятия, информация глубже усваивается и лучше сохраняется в памяти, что особенно полезно для учащихся с разными типами интеллекта, поскольку в процессе обучения они могут применять свои сильные стороны.

Diqqat, tanlov!



“TIL VA ADABIYOT TA’LIMI” –
“ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ” –
“LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING”
ilmiy-metodik jurnali tanlov e’lon qiladi!

“YILNING ENG YAXSHI MATERIALI”

TANLOV YO‘NALISHLARI:

1. **“Eng yaxshi maqola”.**
2. **“Eng yaxshi dars ishlanma”.**
3. **“Eng yaxshi metodik tavsiya”.**
4. **“Eng yaxshi asar tahlili” (darsliklar asosida).**

☞ Tanlovga materiallar o‘zbek, rus yoki ingliz tilida **shu yilning 10-dekabrigacha** @MaqolaTanlovBot orqali qabul qilinadi. Materiallar “tanlovga” deb ko‘rsatilishi shart.

☞ Tanlov g‘oliblari **noutbuk, planshet, mobil telefon** kabi qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

☞ **G‘oliblarni taqdirlash marosimi 2025-yil yanvar oyida o‘tkaziladi.** Eng yaxshi materiallar jurnal sahifalarida chop etiladi.

ISSN 2010-5584
INDEKS 872